

YASHIL IQTISODIYOT

“Yashil iqtisodiyot” monografiyasi barqaror rivojlanish, ekologik innovatsiyalar va resurslardan samarali foydalanish masalalariga bagʻishlangan. Asarda yashil iqtisodiyot tushunchasi, kelib chiqish tarixi va nazariy asoslari keng tahlil qilinadi. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi, oʻtish jarayonidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar, hamda global daqiriqlar kontekstida yashil iqtisodiyotning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar, investitsiya yoʻnalishlari va “Yashil iqtisodiyot – 2030” loyihasi koʻrib chiqilgan. Ushbu monografiya iqtisodiyot, ekologiya, siyosat va innovatsiyalar kesishmasida tadqiqot olib boruvchi olimlar, talabalar va amaliyotchilar uchun moʻljallangan.

Shoydulova Maftuna Zafar qizi – talaba-tadqiqotchi. Yashil iqtisodiyot, ekologik innovatsiyalar va barqaror rivojlanish masalalari uning asosiy ilmiy qiziqishlari qatoriga kiradi.



Globe
EDIT

Shoydulova.M – Yashil iqtisodiyot

Maftuna Shoydulova

Globe
EDIT



Maftuna Shoydulova

YASHIL IQTISODIYOT

Yashil rivojlanishning nazariy, amaliy va strategik
jihatlari

Maftuna Shoydulova
YASHIL IQTISODIYOT

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

Maftuna Shoydulova

YASHIL IQTISODIYOT

**Yashil rivojlanishning nazariy, amaliy va
strategik jihatlarini**

FOR AUTHOR USE ONLY

GlobeEdit

Imprint

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:

GlobeEdit

is a trademark of

Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

120 High Road, East Finchley, London, N2 9ED, United Kingdom

Str. Armeneasca 28/1, office 1, Chisinau MD-2012, Republic of Moldova, Europe

Managing Directors: Ieva Konstantinova, Victoria Ursu

info@omniscryptum.com

Printed at: see last page

ISBN: 978-620-9-04876-0

Copyright © Maftuna Shoydulova

Copyright © 2025 Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

SHOYDULOVA MAFTUNA ZAFAR QIZI

YASHIL IQTISODIYOT

RISOLA

*O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan
5230100-Iqtisodiyot, 5520100-Ijtimoiy ish (Pensiya ta‘minoti),
5232300-Mintaqaviy Iqtisodiyot, 5232200-Ekonometrika bakalavriat
ta‘lim yo‘nalishlari va 5A230103-Makroiqtisodiyot mutaxassisligi
talabalari uchun Risola sifatida tavsiya etiladi*

Yashil Iqtisodiyot: Risola./Sh.M.Zafarovna va boshqalar. –Denov: “Institut”, 2025. -172 b

Mazkur risolada “Yashil iqtisodiyot” fanining dolzarb masalalari zamonaviy ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida, interfaol ta’lim metodlari va amaliy ko’nikmalarni shakllantiruvchi pedagogik yondashuvlar bilan boyitilgan holda yoritilgan. Risolada “yashil iqtisodiyot” tushunchasining mazmun-mohiyati, uning evolyutsion shakllanish jarayoni, global iqlim o’zgarishlari va ekologik muammolar fonida bu modelga o’tish zarurati chuqur tahlil qilingan.

Yashil iqtisodiyotni tashkil etuvchi asosiy tamoyillar, asosiy yo’nalishlar, barqarorlik indikatorlari, resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni kamaytirish mexanizmlari alohida boblarda tizimli tarzda bayon etilgan. Risolada shuningdek, yashil moliyalashtirish vositalari, innovatsion energiya yechimlari, ekologik samaradorlikni oshirishga qaratilgan davlat siyosati, yashil texnologiyalarni joriy etishdagi ijtimoiy va iqtisodiy effektlar chuqur o’rganilgan. Barcha mavzular zamonaviy statistika, xalqaro indekslar, O’zbekistonning tegishli davlat dasturlari (“Yashil iqtisodiyot – 2030”, “Yashil makon” va boshqalar) asosida o’zbek modeli misolida keng tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiy rivojlanish borasida rivojlangan davlatlar tajribasi, mintaqaviy yondashuvlar, shuningdek, jahon banki va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg’unlashgan yondashuvlar amaliy yechimlar bilan boyitilgan.

Mazkur Risola iqtisodiyot yo’nalishida ta’lim olayotgan talaba-yoshlar, magistrlar, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, amaliyotchilar, davlat boshqaruvi mutaxassislari va ekologik islohotlar bilan shug’ullanayotgan ekspertlar uchun mo’ljallangan. Fanning nazariy asoslari bilan bir qatorda, real sektor misolida muammoli vaziyatlar, testlar va keyslar orqali interfaol o’qitish imkoniyati kengaytirilgan.

Ushbu Risola O’zbekiston Respublikasi “Yashil iqtisodiyot” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar asosida tayyorlangan bo’lib, zamonaviy barqaror rivojlanish modelini ilmiy asoslash, o’quvchilarda ekologik tafakkur va yashil tafakkurni shakllantirishda muhim o’rin tutadi.

Mundarija

KIRISH.....	4
I-BOB. Yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari va tushunchalari.....	7
1.1. Yashil iqtisodiyotning mohiyati, asosiy tushunchalari va kurs predmeti....	7
1.2. Yashil iqtisodiyotning kelib chiqish tarixi	11
1.3. Yashil iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari	13
1.4. Barqaror rivojlanishni ta'minlashda yashil iqtisodiyotning o'rni	17
II-BOB. Yashil iqtisodiyotga o'tish zarurati va bu borada rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	61
2.1. An'anaviy rivojlanish yondashuvlari va uning cheklovlari.....	61
2.2. Yashil iqtisodiyotga o'tish zarurati va tamoyillari	64
2.3. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi.....	91
2.4. Yashil iqtisodiyotga o'tish siyosatining dastaklari	95
2.5. Rivojlangan mamlakatlarning yashil iqtisodiyotga o'tish tajribasi.....	102
III-BOB. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun mavjud shart – sharoitlar	115
3.1. Yashil iqtisodiyotning tashqi omillari va bozordagi tengsiliklar.	115
Xalqaro siyosiy bosimning yashil iqtisodiyotga ta'siri	118
3.2. Yashil iqtisodiyotni rag'batlantiruvchi sohalarga investitsiyalar va xarajatlarni rag'batlantirish.	120
3.3. Yashil iqtisodiyotga xususiy va davlat investitsiyalarini yo'naltirish.	130
3.4. Yashil iqtisodiyot bo'yicha nazariy ko'nikmalarni rivojlantirish.	137
IV-BOB. Yashil iqtisodiyot siyosati maqsadlariga erishish uchun strategiyalar va rejalar	150
4.1 Yashil iqtisodiyot sohasida mamlakatimizda mavjud meyoriy hujjatlar..	150
4.2. "Yashil iqtisodiyot 2030" loyihasi.....	155
4.3. Yashil rivojlanishni rejalashtirishda yashil g'oyalarni integratsiyasi.....	160
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	169

KIRISH

XXI asr insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini — **barqaror rivojlanish paradigmasining** shakllanish davrini boshlab berdi. Ushbu davrning asosiy xususiyati shundaki, iqtisodiy o'sish indikatorlari endilikda ijtimoiy farovonlik, ekologik barqarorlik va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog'liq holda ko'rib chiqilmoqda¹. Bu esa inson faoliyatining barcha sohalarida ekologik omillarni hisobga oluvchi, resurslarni tejovchi, iqlim barqarorligiga asoslangan yangi iqtisodiy model — **yashil iqtisodiyot** konsepsiyasining vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Yashil iqtisodiyot (green economy) — bu iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy adolatni ta'minlagan holda, atrof-muhitga antropogen bosimni kamaytirish, tabiiy kapitalning **regeneratsiyasini** qo'llab-quvvatlash, uglerod intensivligini pasaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan **integratsion iqtisodiy tizimdir**². U klassik iqtisodiy nazariyadagi bozor mexanizmlarini ekologik mezonlar bilan boyitgan holda, iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ekologik va ijtimoiy parametrlarni **inkorporatsiya** etadi³. Bu boradagi yetakchi ilmiy maktablar — ekologik iqtisodiyot (**ecological economics**), barqaror rivojlanish iqtisodiyoti (**sustainable development economics**), bioiqtisodiyot (**bioeconomics**) va uglerodsiz iqtisodiyot (**low-carbon economy**) — yashil iqtisodiyotni nazariy-metodologik asoslar bilan boyitmoqda⁴.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining xalqaro miqyosda institutsional jihatdan mustahkamlanishi **BMTning 2012-yilgi "Rio+20" sammitida** tasdiqlangan bo'lib, unda yashil iqtisodiyot **barqaror rivojlanish** va **qashshoqlikni qisqartirishning** asosiy vositasi sifatida e'tirof etildi⁵. Shundan so'ng Yevropa Ittifoqi, **OECD**, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi transmilliy institutlar yashil moliyalashtirish, ekologik soliq siyosati, uglerod savdosi va yashil

¹ Sachs, J. (2015). The Age of Sustainable Development. Columbia University Press.

² UNEP (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication.

³ Pearce, D., Markandya, A., & Barbier, E. (1989). Blueprint for a Green Economy. Earthscan.

⁴ Pearce, D., Markandya, A., & Barbier, E. (1989). Blueprint for a Green Economy. Earthscan.

⁵ United Nations (2012). The Future We Want – Outcome document of Rio+20.

investitsiyalar bo'yicha siyosiy va ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqdilar⁶. Ayniqsa, 2015-yilda qabul qilingan **BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)** yashil iqtisodiyot tamoyillarini global kun tartibiga olib chiqdi⁷.

O'zbekiston Respublikasida ham ekologik muvozanatni saqlagan holda iqtisodiy o'sishga erishish, energetik mustaqillikni ta'minlash, iqlim xavfsizligini mustahkamlash va uglerod neytralligiga erishish yo'lida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllantirilmoqda. Bu borada muhim normativ-huquqiy asoslar yaratildi. Masalan, **PF-6264-sonli Farmonida** ("O'zbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2021-yil 4-oktabr) 2030-yilgacha bo'lgan yashil o'sish ko'rsatkichlari, **uglerod intensivligini** kamaytirish, qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish va ekologik investitsiyalarni rag'batlantirish kabi strategik yo'nalishlar belgilandi⁸. **PQ-5101-sonli Prezident Qarorida** ("Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 21-aprel) esa ekologik nazorat, davlat monitoringi va **texnologik reglamentatsiya** vositalarining zamonaviy standartlarga moslashuvi belgilanmoqda⁹. 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan **"Yashil transformatsiya siyosati"** mamlakatda iqtisodiy sektorlarni karbon neytral yo'nalishga o'tkazishni nazarda tutadi¹⁰.

Mazkur Risolani yaratish zarurati quyidagi asosiy fanlararo va amaliy sabablar bilan izohlanadi:

1. **Ilmiy-metodologik ehtiyoj** – Yashil iqtisodiyot ko'plab fanlar — iqtisodiyot, ekologiya, energetika, moliya, huquq, texnologiya va siyosatshunoslik bilan kesishuvchi **transdistsiplinar soha** bo'lib, uni chuqur o'rganish zamonaviy ilm-fan talabidir.

⁶ OECD (2020). Green Growth Indicators 2020. Paris.

⁷ United Nations (2015). Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-oktabrdagi PF-6264-sonli Farmoni - "O'zbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-aprel PQ-5101-sonli qarori - ("Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida")

¹⁰ Prezident Sh.M. Mirziyoyevning 2023-yilgi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

2. **Davlat siyosatidagi ustuvorlik** – Yashil iqtisodiyotga oid strategiyalarni amalga oshirishda mutaxassislarning ekologik-iqtisodiy savodxonligini oshirish muhim ilmiy-amaliy vazifadir.
3. **Kadrlar tayyorlashdagi muvofiqlik** – Oliy ta’lim tizimida barqaror rivojlanish va ekologik muhofazaga doir fanlar integratsiyasini ta’minlash uchun mazkur fan *fundamental* ahamiyatga ega.
4. **Xalqaro integratsiya** – O‘zbekistonning xalqaro ekologik bitimlarga (Parij bitimi, **SDGs**) qo‘shilishi tufayli, global yashil iqtisodiyot me’yorlariga mos intellektual va institutsional salohiyat yaratish zarur.

Risolaning *konseptual* tuzilmasi iqtisodiy nazariya va ekologik yondashuvlarning integratsiyasiga asoslangan holda, quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- Yashil iqtisodiyot nazariyasining shakllanish bosqichlari va ilmiy paradigmalari;
- Yashil moliyalashtirish va uglerod bozorlari mexanizmlari;
- Energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan manbalarni joriy etish siyosati;
- Xalqaro tajriba va O‘zbekiston amaliyoti asosida sektoral strategiyalar (qishloq xo‘jaligi, transport, sanoat, urbanizatsiya);
- *Yashil transformatsiyaning* ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri, baholash indikatorlari va monitoring tizimlari.

Mazkur fan — talabalar, ilmiy izlanuvchilar va iqtisodiy qaror qabul qiluvchi mutaxassislar uchun muhim bilim manbai bo‘lib, ularni yashil texnologiyalar, ekologik siyosat va barqaror rivojlanish *konsepsiyalarini* amaliyotga tatbiq etish salohiyatiga ega kadrlar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat O‘zbekistonning, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining ekologik xavfsizligi va iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir.

I-BOB. Yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari va tushunchalari

1.1. Yashil iqtisodiyotning mohiyati, asosiy tushunchalari va kurs predmeti

Yashil iqtisodiyot tushunchasi ekologik barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni uyg'unlashtiruvchi konsepsiya bo'lib, u tabiiy resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va ijtimoiy adolatni ta'minlashni maqsad qiladi.

1.1.1-jadval

Yashil iqtisodiyot va bozor iqtisodiyoti — tamoyil va ustuvorliklar kesishmasidagi farqlar¹¹

Mezon	Bozor iqtisodiyoti (klassik "market eCO2nomy")	Yashil iqtisodiyot ("green eCO2nomy")
Nazariy tayanch	Adam Smitdan neoklassik maktabgacha: erkin bozor, narx signali, shaxsiy manfaat umumiy farovonlikka olib keladi	Ekologik iqtisod, barqaror rivojlanish nazariyasi, "planetar chegaralar" konsepti
Asosiy maqsad	Resurslar taqsimotini narx orqali optimallashtirish, YaIM o'sishi va foydani maksimallashtirish	Farovonlikni resurs chegaralarida maksimal qilish: iqtisodiy + ekologik + ijtimoiy kapitalni bir vaqtda oshirish
Resurslarga qarash	Tabiiy resurslar bozor tovariga aylanadi; cheklov — narx	Tabiiy kapitalni eskirishni iqtisodiy xarajat sifatida ichkilashtiradi; degradatsiyani minimallashtirish ustuvor
Ekologik eksternaliya	Ko'pincha "bozor muvaffaqiyatsizligi" sifatida qaraladi, lekin tuzatish shart emas	Eksternaliyani ichkilashtirish shart: ifloslantiruvchi to'laydi, uglerod narxlash, yashil soliqlar
Regulyatsiya roli	Minimal: mulk huquqi, raqobat va shaffoflik kafolati	Faol: yashil standartlar, kvotalar, karbon bozor, ESG-hisobot
Narx signali	"Ko'rinmas qo'l" – taklif/talab	Narx + "ko'rinadigan qo'l" (ekologik soliq, subsidiyalar, kvota)
O'sish modeli	Chiziqli: ol → ishlat → tashla	Sirkulyar: ol → ishlat → qayta aylantir → qo'shimcha qiymat
Energiya bazasi	Narx eng past bo'lgan manba (ko'mir, gaz)	Karbon-neytral, qayta tiklanuvchi manbalar ustun
Investitsiya ustuvorligi	Qisqa va o'rta muddatli rentabellik	Uzluksiz, "triple bottom line" (profit + people + planet)
Risk profili	Bozor sikllari, xomashyo narxi, siyosiy xavf	Bozor + iqlim tavakkallari (fizik / o'tish), "brown-asset" xatari
Muvaffaqiyat ko'rsatkichi	YaIM, ROE, ROI	YaIM + karbon intensivligi, resurs produktivligi, SDG-indikatorlar
Ijtimoiy	"Trickle-down" – bozor farovonlikni	"Just transition" – o'sish mevalarini

¹¹ Muallif ishlanmasi.

Mezon	Bozor iqtisodiyoti (klassik “market eCO2nomy”)	Yashil iqtisodiyot (“green eCO2nomy”)
taqsimot	pasaytirib tarqatadi	adolatli bo'lish, zaif qatlamni himoya qilish

- **Bozor iqtisodiyoti** – resurslarni *erkin narx signali* orqali taqsimlaydi, lekin ekologik cheklovlarni ichki hisob-kitobga kiritmaslik xavfi bor.
- **Yashil iqtisodiyot** – o‘sha narx mexanizmini saqlab, unga **ekologik narxlash va institutsional “korektorlar”** qo‘shadi; natija: barqaror farovonlik, uglerod izini kamaytirish va tabiiy kapitalni ko‘paytirish.

Bozor iqtisodiyoti “narx – bu hammasi” deydi, yashil iqtisodiyot esa “narxga tabiatning haqini ham qo‘sh” deya talab qiladi.


Yashil iqtisodiyot fanining predmeti — bu iqtisodiy tizimlarning tabiiy-chegaralangan resurslar doirasida barqaror farovonligini ta’minlash jarayonini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etishdir¹². Shu bilan birgalikda, yildan-yilga aholi sonining o‘sib borayotgan murakkab vaziyatda cheklangan iqtisodiy resurslardan cheksiz ehtiyojlarni ekologiyaga ziyon bermasdan qondirishdir.

Mazkur fan quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

¹²World Bank. (2022). *Green Economy Report*. Washington, D.C.: World Bank Publications.


1.1.1-chizma

Yashil iqtisodiyot fani amalga oshiradigan ishlari¹³



1.1.2-Chizma

Yashil iqtisodiyot fanining obyekti va subyekti¹⁴



¹³ Muallif ishlanmasi.

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

1.1.2-jadval

Yashil Iqtisodiyot Modelining Tuzilmasi: Maqsad, Xususiyat va Strategik Yo‘nalishlar¹⁵

Asosiy yo‘nalish	Tavsifi
Ta’rif	Yashil iqtisodiyot – ekologik barqarorlik, iqtisodiy o‘rinish va ijtimoiy adolatni uyg‘unlashtiruvchi modeldir.
Asosiy maqsadlar	<ul style="list-style-type: none"> - Iqlim o‘zgarishining oldini olish - Tabiiy resurslarni asrash - Barqaror rivojlanish - Ijtimoiy tenglikni ta’minlash
Asosiy xususiyatlar	<ul style="list-style-type: none"> - Ekologik xavfsizlik - Resurslardan oqilona foydalanish - Texnologik innovatsiyalar - Ijtimoiy inklyuzivlik
Foydalaniladigan vositalar	<ul style="list-style-type: none"> - Qayta tiklanuvchi energiya manbalari - Toza texnologiyalar - Ekologik soliqlar va rag‘batlar - Barqaror infratuzilma
Natijalar (kutilgan)	<ul style="list-style-type: none"> - Atrof-muhitni muhofaza qilish - Yashil ish o‘rinlari yaratilishi - Raqobatbardosh iqtisodiyot - Ijtimoiy barqarorlik
Uzoq muddatli istiqbol	<ul style="list-style-type: none"> - Ekologik va iqtisodiy muvozanat - Kelajak avlodlar uchun resurslarni saqlab qolish

Yashil iqtisodiyot – bugungi global muammolar: iqlim o‘zgarishi, ekologik *degradatsiya* va resurs tanqisligiga qarshi samarali javob bo‘lib, iqtisodiyotni tabiat qonunlari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan tizimli yondashuvdir ¹⁶ . Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari faqat ekologik masalalargina emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarni ham o‘z ichiga oladi. U o‘zining ko‘p qirrali mazmuni bilan barqaror taraqqiyotning muhim tayanchlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

¹⁶ Pearce, D., Markandya, A., & Barbier, E. (1989). *Blueprint for a Green Economy*. London: Earthscan.

Tahliliy jihatdan olganda, yashil iqtisodiyot an'anaviy iqtisodiy modellarni tanqidiy qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. U o'sishni faqat raqamiy ko'rsatkichlar orqali emas, balki inson salomatligi, ekologik holat va ijtimoiy tenglik darajasi orqali baholaydi¹⁷. Bu yondashuvda innovatsiyalar muhim o'rin tutadi: ekologik toza texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalari iqtisodiyotni yangi bosqichga olib chiqadi¹⁸.

Shuningdek, yashil iqtisodiyotda *inklyuzivlik tamoyili* alohida e'tiborga loyiq – bu, iqtisodiy o'sish jarayonida aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, zaif guruhlar manfaati ham ko'zda tutilishini anglatadi¹⁹. Bu esa uni nafaqat ekologik, balki ijtimoiy adolatga yo'naltirilgan iqtisodiy modelga aylantiradi.

Yashil iqtisodiyot – bu kelajakka qaragan iqtisodiy strategiya bo'lib, u inson, jamiyat va tabiat manfaatlarini muvozanatli holda uyg'unlashtirishga intiladi²⁰. U ijtimoiy farovonlikni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni barpo etish orqali insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolarga tizimli yechim taklif etadi. Shu sababli, uni bugungi va kelajak avlodlar uchun zaruriy va muqarrar yo'l deb hisoblash mumkin²¹.

Yashil iqtisodiyot tushunchasi insoniyatning tabiat bilan bo'lgan munosabatini tanqidiy qayta baholash jarayonida shakllanib borgan. Bu konsepsiya iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy adolat bilan uyg'unlashtirish zaruratidan kelib chiqqan bo'lib, bugungi kunda global miqyosda tan olingan strategik yondashuvga aylangan²².

1.2. Yashil iqtisodiyotning kelib chiqish tarixi

Yashil iqtisodiyot g'oyalarining shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. 1960–70-yillarda **ekologik inqiroz xavfi haqida jiddiy ogohlantirishlar yangray boshladi**. Ayniqsa, 1972-yilda nashr etilgan mashhur **“O'sish chegaralari”** (The Limits to Growth)

¹⁷ Sachs, J. D. (2015). *The Age of Sustainable Development*. Columbia University Press.

¹⁸ OECD (2011). *Towards Green Growth: A summary for policymakers*.

¹⁹ World Bank (2020). *Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development*.

²⁰ Barbier, E. B. (2010). *A Global Green New Deal: Rethinking the Economic Recovery*. Cambridge University Press.

²¹ United Nations (2015). *Transforming our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development*.

²² Meadows, D. H., Meadows, D. L., Randers, J., & Behrens III, W. W. (1972). *The Limits to Growth*. Club of Rome.

hisobotida cheksiz iqtisodiy o'sishning ekologik salohiyati mavjud emasligi asoslab berildi²³. Shu yili o'tkazilgan **BMTning Stokgolm konferensiyasi** esa insoniyat tarixida ilk bor atrof-muhit muammolarini global darajada muhokama qilgan anjuman sifatida e'tirof etildi²⁴.

1980-yillarda yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari yanada boyidi. 1987-yilda BMTning maxsus komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan **"Bizning umumiy kelajagimiz"** (Our CO2mmon Future) hisobotida **barqaror rivojlanish** tushunchasi ilk bor rasmiy ta'riflandi²⁵. Bu yondashuv iqtisodiy o'sishni nafaqat iqtisodiy mezonlar, balki ekologik va ijtimoiy omillar bilan baholash zarurligini ilgari surdi.

1990-yillarda "yashil iqtisodiyot" atamasi ilmiy adabiyot va siyosiy hujjatlarda asta-sekin qo'llanila boshladi. Bu davrda ekologik soliq siyosati, qayta tiklanuvchi energiyaga investitsiyalar va chiqindilarni kamaytirish bo'yicha konsepsiyalar paydo bo'ldi²⁶. Tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish, iqlim o'zgarishi va ekologik izlarning kuchayishi yashil iqtisodiyot zaruratini yanada oshirdi.

2008-yilgi global moliyaviy inqiroz yashil iqtisodiyot g'oyalariga yangi sur'at berdi. Xususan, **BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP)** tomonidan ilgari surilgan **"Yashil iqtisodiy tiklanish"** (Global Green New Deal) tashabbusi yashil iqtisodiyotni inqirozdan chiqish yo'li sifatida ilgari surdi²⁷. Bu yondashuv nafaqat ekologik barqarorlikni, balki yangi texnologiyalar asosida ish o'rnlari yaratishni ham nazarda tutdi.

Yashil iqtisodiyotning xalqaro siyosiy darajada tan olinishi **2012-yilgi "Rio+20" sammitida** yuz berdi. Sammitda "Barqaror rivojlanish va qashshoqlikni qisqartirish kontekstida yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi qabul qilinib, bu model global rivojlanish yo'nalishi sifatida belgilandi²⁸.

²³ Club of Rome. *The Limits to Growth*. New York: Universe Books, 1972.

²⁴ United Nations. *Declaration of the United Nations Conference on the Human Environment (Stockholm Declaration)*. Stockholm, 1972.

²⁵ World Commission on Environment and Development. *Our Common Future* (Brundtland Report). Oxford: Oxford University Press, 1987.

²⁶ Pearce, D., Markandya, A., & Barbier, E. (1989). *Blueprint for a Green Economy*. Earthscan.

²⁷ UNEP. *Global Green New Deal: Policy Brief*. Nairobi: United Nations Environment Programme, 2009.

²⁸ United Nations. *The Future We Want* (Outcome Document of the Rio+20 Conference). New York, 2012.

2015-yilda esa muhim burilish nuqtasi ro‘y berdi — **Parij iqlim kelishuvi** orqali yashil iqtisodiyot va uglerod neytralligi masalasi xalqaro iqlim siyosatining markaziga aylandi²⁹. Shundan so‘ng, ko‘plab davlatlar o‘z milliy strategiyalarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida qayta shakllantira boshladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi “Yashil kelishuv” dasturini³⁰, Xitoy “ekologik tsivilizatsiya” siyosatini³¹, O‘zbekiston esa “**Yashil o‘shish strategiyasi – 2030**” hujjatini³² qabul qildi.

Bugungi kunda yashil iqtisodiyot atamasi nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish vositasi, balki texnologik innovatsiyalar, sarmoya jalb qilish, mehnat bozorini modernizatsiya qilish hamda global barqarorlikni ta’minlovchi yadro konsepsiyaga aylangan.

Yashil iqtisodiyotning tarixiy rivojlanishi uni oddiy ekologik ogohlantirishlardan to kompleks siyosiy-iqtisodiy tizimga aylantirgan bosqichma-bosqich evolyutsiyani aks ettiradi. U bugungi global iqlim inqirozi, resurs tanqisligi va ijtimoiy tengsizlik muammolariga barqaror va tizimli yechim taklif etmoqda. Shu bois, yashil iqtisodiyot – kelajak avlodlar manfaatini inobatga olgan, uzoq muddatli strategik rivojlanish modelidir.

1.3. Yashil iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari

Barcha mavjud iqtisodiy jarayonlarni rivojlanish bosqichi bo‘lgani kabi, yashil iqtisodiyotning ham rivojlanish bosqichlari mavjud. Ammo bu haqida turli adabiyotlarda turlicha keltirilgan. Biz hozir makromoliyaviy nuqtayi nazar kerak bo‘lsa ishlatishimiz mumkin bo‘lgan Markandya, Anil va Stéphane Hallegattening “*Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development*” kitobida aytib o‘tgan yashil iqtisodiyotning rivojlanishini 5 bosqichni o‘rganamiz³³.

²⁹ UNFCCC. *Paris Agreement*. Paris, 2015.

³⁰ European Commission. (2019). *The European Green Deal*. Brussels.

³¹ Government of China. (2015). *Ecological Civilization: Guidelines and Action Plan*.

³² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021). *Yashil o‘shish strategiyasi – 2030*.

³³ Markandya, A., & Hallegatte, S. (2012). *Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development*. Washington, DC: World Bank.

³⁴ Markandya, Anil & Stéphane Hallegatte (lead authors). 2012. *Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development*. Washington DC: World Bank.

1.3.1-jadval

Yashil iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari³⁴

Bosqich	Vaqt va tarixiy markerlar	Mazmuni (World Bank talqini)	Tipik siyosiy-moliyaviy instrumentlar	Misol mamlakat/proektlar
① Ekologik ogohlantirish	1960-70 y. – Rachel Carson (1962), <i>The Limits to Growth</i> (1972), Stokgolm-72	Xom-xatarlikni tan olish: cheksiz o'sish modeli er, suv, atmosfera sig'imi bilan to'qnashyapti.	Ilmiy hisobotlar, fuqarolik kampaniyalari, tabiiy-resurs monitoring	AQSh EPA (1970) tashkil etilishi; GFR va Yaponiyada SOx/Nox tozalash qonunlari
② Barqaror rivojlanish	1980-90 y. – Brundtland (1987), Rio-92, Agenda-21	“Triple bottom line” (iqtisod+ekologiya+ijtimoiy). Barqarorlikni milliy strategiyalarga kiritish.	Atrof-muhit bahosi, EIAs, subsidiya islohoti, o'rmon/biologik xilma-xillik rejasi	Braziliya “Legal Amazon” bosh rejasi; Norvegiya “CO2 solig'i” (1991)
③ Bozor instrumentlari	1997-2007 y. – Kioto protokoli, ETSlar, feed-in-tariff	“Ifloslantiruvchi to'laydi”: karbon kvota bozori, ekologik soliqlar, qayta tiklanuvchi energiyaga tariff kafolati.	Emissiya savdosi (EU-ETS), yashil soliqlar, “FiT” sxemalari, to'lovga asoslangan suv ta'minoti	EU-ETS (2005); Germaniya EEG (2000); Britaniya “Landfill Tax” (1996)
④ Yashil stimulus	2008-2011 y. – Global moliyaviy inqiroz, UNEP <i>Global Green New Deal</i> (2009)	Inqirozdan chiqish uchun yashil infrastrukturaga “fiskal zarba”. Ish o'rni + CO2 pasayishi.	“Stimulus” paketlari (AQSh ARRA-2009), yashil kredit hihiyalari, davlat-xususiy partnyorlik	Janubiy Koreya “Green New Deal” (2009 – US\$38 mlrd); Xitoy RMB 4 trln stimulus (2008)ning 37 % energiya-effektivga
⑤ Strukturaviy transformatsiya	2012 → – Rio+20, SDGs-2030, Parij, EU Green Deal, TCFD, Net-Zero koalitsiyalari	Iqtisodning barcha tarmoqlarida “karbon-yorliq”ga asoslangan kapital oqimi; ESG-hisobot va iqlim xavfi mohiyalashirishning markaziga chiqadi.	Yashil obligatsiya, taksonomiya, karbon chegara solig'i (CBAM), iqlim-xavf diskloj, vodorod strategiyalari	EU Green Deal (2019 → €1 trln), AQSh IRA (2022 → US\$369 mlrd), O'zbekiston “Green Growth Strategy-2030” (2024)

Markandya va Hallegatte (2012) modeliga ko'ra yashil iqtisodiyotning besh pog'onali evolyutsiyasi — bu iqtisodiy-modernizatsion jarayonni ekologik chegaralar bilan uyg'unlashtirishni izchil bosqichma-bosqich aks ettiruvchi konseptual karkasdir. Quyida har bir bosqichning ilmiy-analitik talqini keltiriladi.

1-bosqich. Ekologik ogohlantirish

1960–1970-yillarni tavsiflovchi ushbu fazada ilm-fan va fuqarolik jamiyati «cheksiz o'sish» paradigmasini birinchi marta tanqid ostiga oldi. *Silent Spring* (Carson, 1962) hamda Club of Rome'ning *The Limits to Growth* (1972) modellarida biofizik chegaralar YaIM egri chizig'iga “qat'iy to'qnashuv nuqtasi” sifatida kiritildi³⁵. Milliy darajada AQShning EPA (1970) singari muassasalarning tashkil topishi

³⁵ ICLEI (Local Governments for Sustainability) Reports (2020–2023).

ekologiyani ijtimoiy hamda siyosiy diskursga tatbiq etdi, biroq makroiqtisodiy rejalashtirish haliyam neoklassik “tashqi effektlar” doirasidan chiqmagan edi. Shunday qilib, bu bosqichni **ritorik ogohlantirish, lekin iqtisodiy metrikalarga cheklangan ta’sir** deb baholash mumkin³⁶.

2-bosqich. Barqaror rivojlanish paradigmasi

Brundtland komissiyasining *Our CO2mmon Future* (1987) hisobotidan boshlab ekologik-ijtimoiy chegaralar uch o’lchamli («people–planet–profit») birlik sifatida konseptuallashtirildi. Rio-92 sammitida qabul qilingan *Agenda-21* barqaror rivojlanish strategiyasini davlat siyosatiga kiritish bo’yicha global majburiyatni belgiladi³⁷. Ushbu davrning metodik yutug’i — EIA, CBA va tabiiy-kapital auditlari singari qiymatlash vositalarining shakllanishi; biroq moliyaviy mexanizmlar ko’pincha “ko’ngilli” xarakterda bo’lib, iqtisodiy agentlarga yetarli narx signali uzatilmadi.

3-bosqich. Bozor instrumentlari fazasi

Kioto protokoli (1997) va undan keyin paydo bo’lgan ETSlar, karbon soliqlari hamda “feed-in tariff” sxemalari bozor mexanizmlarini ekologik eksternaliyalarni ichkilashtirishga jalb etdi. Bu yerda asosiy tezis – **“ifloslantiruvchi to’laydi” tamoyilining narx mexanizmi orqali operatsionallashtirilishi**. Germaniyaning EEG qonuni (2000) qayta tiklanuvchi energiya sektori o’sishini eksponensial trayektoriyaga olib chiqdi; ammo karbon narxining pastligi va “leakage” hodisasi bu bosqichning samaradorligini qisqartirdi. Shunday bo’lsa-da, institutsional-infrastruktura poydevori aynan shu fursat ichida shakllandi³⁸.

4-bosqich. Yashil stimulus

2008-yilgi global moliyaviy inqiroz ekologik investitsiyalarni **makrobarqarorlikni tiklash** vositasi sifatida yangicha darajada kun tartibiga olib chiqdi. UNEP’ning “Global Green New Deal” (2009) konsepsiyasi hamda AQSh ARRA (2009) va Janubiy Koreya “Green

³⁶ Kuzibekov, U. (2021).

³⁷ UN ESCAP (2019).

³⁸ Bozorov, A., & Qodirov, I. (2020).

New Deal” (2009) paketlari fiskal multiplikator effekti bilan karbon pasayishini birlashtirdi³⁹. Natijada “yashil ish o‘rinlari” terminologiyasi tug‘ilib, infratuzilma portfeli qayta yo‘naltirildi. Bu bosqichning zaif jihati – ayrim tezkor loyihalarning (masalan, birinchi avlod bioyoqilg‘ilar) texno-ekologik samaradorligini past baholashdir⁴⁰.

5-bosqich. Strukturaviy transformatsiya

2012-yildan boshlab, Rio+20 natijalari, SDGs-2030 va Parij kelishuvi kontekstida, yashil iqtisodiyot kapital bozorlari hamda korporativ moliya anatomiyasiga chuqur singa boshladi. **ESG reporting**, TCFD tavsiyalari, yashil va barqaror obligatsiyalar, shuningdek karbon-chegara tuzatgichi (EU CBAM) kabi instrumentlar “brown” aktivlardan kapital relokatsiyasini rag‘batlantirmoqda. Holbuki, bu faza “**just transition**” masalasini ham keskin qo‘yadi: Net-Zero strategiyasi ijtimoiy-hududiy narxini kim to‘laydi? Demak, moliyaviy arxitektura bilan bir qatorda adolatli kompensatsiya mexanizmlari ham dizaynga kiritilishi zarur⁴¹.

Markandya va Hallegatte modelining ustunligi — ekologik transformatsiyani **fiskal-makroiqtisodiy logika** orqali bosqichlashtirib, har bir fazaga mos siyosat paketini aniqlashi. Bu yondashuv rivojlanayotgan mamlakatlar uchun (xususan, O‘zbekistonning “Yashil o‘shish strategiyasi-2030”) tranzitsiya xaritasini modullash imkonini beradi: ③-bosqichdagi karbon narxlashni ④-bosqich fiskal stimulusi bilan sinergiyalash, ⑤ -bosqich esa ESG-kapitalga kirishni osonlashtiradi⁴².

Modelning chegarasi shundaki, u **post-CO2VID** dinamikasini (2020-2025 y.) inklyuziv qilmaydi va **degrowth** yoki “kuchli barqarorlik” oqimlarining resurs-chegara tanqidiga yetarli joy ajratmaydi⁴³. Shunga qaramay, besh pog‘onali karkas strategik rejalashtirish uchun eng operatsionizatsiya qilinadigan sxema bo‘lib

³⁹ World Bank (2012).

⁴⁰ Jacobs, M. (1991).

⁴¹ Markandya, Anil & Stéphane Hallegatte (lead authors). 2012. *Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development*. Washington DC: World Bank.

⁴² OECD (2011).

⁴³ UNEP (2012).

qolmoqda: u o'tish xarajatlari, siyosat aralashmasi va moliyaviy oqimlarni bosqichma-bosqich joylashni aniq ko'rsatadi.

1.4. Barqaror rivojlanishni ta'minlashda yashil iqtisodiyotning o'rni

Barqaror rivojlanish bugungi global muammolarga kompleks va tizimli yondashuvni taklif qiluvchi muhim kontsepsiya bo'lib, u insoniyat taraqqiyotining uzoq muddatli istiqbolini ta'minlashga qaratilgan. BMT tomonidan 1987-yilda ilgari surilgan ta'rifga ko'ra, barqaror rivojlanish — bu “hozirgi avlod ehtiyojlarini kelajak avlod ehtiyojlarini xavf ostiga qo'ymasdan qondira oladigan rivojlanish”dir. Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi 17 ta global maqsadlarni va ular bilan bog'liq 169 ta vazifalarni o'z tarkibiga oladi⁴⁴.

- ✓ Qashshoqlikka barham berish
- ✓ Ocharchilikni tugatish, oziq-ovqat xavfsizligi va yaxshi ovqatlanish
- ✓ Sog'liqni saqlash va farovonlik
- ✓ Sifatli ta'lim
- ✓ Gender tengligi
- ✓ Toza ichimlik suvi va sanitariya
- ✓ Arzon va toza energiya
- ✓ Ish o'rinlari va inklyuziv iqtisodiy o'sish
- ✓ Sanoat, innovatsiya va infratuzilma
- ✓ Tengsizliklarni kamaytirish
- ✓ Barqaror shaharlar va jamoalar
- ✓ Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish
- ✓ Iqlim o'zgarishiga qarshi choralar
- ✓ **Suv osti ekotizimlari**
- ✓ Quruqlik ekotizimlari
- ✓ Tinchlik, adolat va kuchli institutlar
- ✓ Maqsadlar uchun hamkorlik


⁴⁴ World Commission on Environment and Development (1987).

O‘zbekiston quyidagi maqsadlardan 16 tasini milliy lashtirdi. Sababi, O‘zbekistonda dengiz yo‘qligi sababli 14-maqsad (**dengiz ekotizimlarini asrash**)ni milliy lashtirolmadi⁴⁵.

Bundan tashqari barqaror rivojlanishga erishish vositalari ham mavjud. U quyidagi uch asosiy ustun — **ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik** sosida shakllanadi. Ushbu ustunlar barqaror rivojlanishning poydevorini ashkil etib, o‘zaro integratsiyalashgan holda harakat qiladi. Ularning har biri lohida ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ular faqat birgalikda **iyg‘unlashgandagina** samarali natijaga olib keladi.

1.4.1-chizma

Barqaror rivojlanishning 3 ustuni⁴⁶



1. Ekologik barqarorlik: tabiat bilan uyg‘un yashash falsafasi

Ekologik barqarorlik — bu tabiiy resurslardan ularni tiklash va saqlab qolish imkoniyatini yo‘qotmasdan foydalanish, ekotizimlar salomatligini asrash va kelajak avlodlarga toza, yashashga yaroqli muhitni meros qilib qoldirishni anglatadi⁴⁷. Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillikning kamayishi, suv va havo ifloslanishi kabi ekologik muammolar insoniyat farovonligiga bevosita tahdid solmoqda.

⁴⁵ BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) va O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (2020). *O‘zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlarini milliy lashtirish bo‘yicha milliy hisobot*. Toshkent.

⁴⁶ Muallif ishlanmasi.

⁴⁷ Carson, Rachel (1962).

1.4.2-chizma

Ekologik barqarorlik 5 ta yo'nalishda o'lchanadi⁴⁸



Ekologik barqarorlikning birinchi-asosiy yo'nalishi sifatida **iqlim o'zgarishi va issiqxona gazlari (IG) chiqindilari** muammosiga e'tibor qaratish lozim. Bu yo'nalish global miqyosdagi ekologik tahdidlar ichida eng keng ko'lamliaridan biri bo'lib, insoniyat faoliyatining to'g'ridan-to'g'ri ta'siri ostida yuzaga keladi va butun sayyoraning tabiiy tizimlariga jiddiy bosim o'tkazadi.

So'nggi o'n yilliklarda atmosferaga chiqarilayotgan karbonat anhidrid, metan, azot oksidi va boshqa issiqxona gazlari konsentratsiyasining keskin oshishi global isishning asosiy drayveriga aylangan⁴⁹. Bu jarayon asosan sanoat, energetika, transport va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida yoqilg'ilarning (ayniqsa ko'mir, neft, gaz) ommaviy iste'moli bilan bog'liqdir. IG chiqindilarining ortishi iqlim tizimining tabiiy muvozanatini buzadi, natijada global haroratning o'sishi, qurg'oqchilik va suv tanqisligi, muzliklarning erishi, dengiz sathining ko'tarilishi va ekstremal ob-havo hodisalarining kuchayishi kabi oqibatlar yuzaga chiqadi⁵⁰.

⁴⁸ Muallif ishlanmasi.

⁴⁹ UNESCO (2021).

⁵⁰ Leopold, Aldo (1949).

Bugungi kunda iqlim barqarorligini saqlash uchun IG chiqindilarini kamaytirish global ekologik siyosatning ustuvor yoʻnalishiga aylangan. Parij kelishuvi doirasida belgilangan 1.5°C isish chegarasini ushlab turish uchun jahon hamjamiyati 2050-yilgacha karbon neytrallikka erishishni maqsad qilgan. Bu esa IG chiqindilarini monitoring qilish, ularni kamaytirish boʻyicha qatʼiy chora-tadbirlar koʻrishni va iqtisodiyotda dekarbonizatsiya jarayonlarini jadallashtirishni talab etadi⁵¹.

1.4.1-jadval

2024-yilda global CO₂ chiqindilari⁵²

Davlat/Region	CO ₂ chiqindilari (mlrd tonna)	Aholi soni (mlrd)	Kishi boshiga CO ₂ (tonna)	Oʻzgarish (2023-yilga nisbatan)
Xitoy	12.0	1.4	8.6	+0.2%
AQSH	5.1	0.33	15.5	-0.6%
Hindiston	3.0	1.4	2.1	+4.6%
Yevropa Ittifoqi	2.5	0.45	5.6	-3.8%
Jahon boʻyicha	41.6	8.0	5.2	+2.0%



Xitoy 2024-yilda ham eng yirik emitter sifatida qolmoqda — bu mamlakat global CO₂ chiqindilarining **taxminan 32 foizini** tashkil etdi⁵³. Ushbu koʻrsatkich sanoat sektoridagi yuqori energiya isteʼmoli, koʻmirga boʻlgan katta bogʻliqlik hamda iqtisodiy tiklanish surʼatlari bilan izohlanadi. Shunga qaramay, chiqindilar oʻsishi nisbatan sekin — atigi **0.2 foiz**.

AQSh karbon emissiyasi hajmi boʻyicha ikkinchi oʻrinda boʻlib, 2024-yilda **5.1 milliard tonna** CO₂ chiqardi. Ammo eng eʼtiborga molik jihat — bu yerda kishi boshiga toʻgʻri keladigan CO₂ miqdori — **15.5 tonna**, bu global oʻrtacha (5.2 t) darajadan **uch baravardan ziyod**

⁵¹ Naess, Arne (1973).

⁵² Muallif ishlanmasi.

⁵³ Global Carbon Project. (2024). *Global Carbon Budget 2024*.

yuqori⁵⁴. Mazkur ko‘rsatkich AQShda energiya iste‘moli intensivligi va transport tizimi emissiyasining yuqoriligini ko‘rsatadi.

Hindistonning umumiy CO₂ emissiyasi 3 milliard tonnani tashkil etdi, bu 2023-yilga nisbatan **4.6 foizga** o‘shishni anglatadi. Biroq kishi boshiga CO₂ miqdori hali ham past — **2.1 tonna**⁵⁵, bu Hindistonning iqtisodiyoti rivojlanayotgan, biroq karbon intensivligi nisbatan past ekanligini ko‘rsatadi.

Yevropa Ittifoqi esa 2024-yilda **2.5 milliard tonna** CO₂ chiqardi va **3.8 foizga kamayishga** erishdi. Bu pasayish asosan elektr energiyasi ishlab chiqarishda chiqindilarning kamayishi (ayniqsa ko‘mir asosidagi ishlab chiqarishdan voz kechish) va energetika sohasidagi dekarbonizatsiya strategiyalarining natijasidir⁵⁶.

Umuman olganda, 2024-yilda **fosil yoqilg‘ilardan** kelib chiqqan CO₂ chiqindilari **37.4 milliard tonnani, yer resurslaridan (o‘rmonlarning kesilishi, yong‘inlar)** kelib chiqqan chiqindilar esa **4.2 milliard tonnani** tashkil etdi. Shuningdek, atmosferadagi karbonat anhidrid konsentratsiyasi **422.5 ppm** ga yetib, sanoatgacha davrga nisbatan **52 foiz yuqoriligi** bilan global iqlim xavfsizligiga tahdid solmoqda⁵⁷.

2024-yilgi ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, jahon hamjamiyati hali ham **Parij kelishuvida** belgilangan 1.5°C isish chegarasini saqlab qolish yo‘lidan og‘moqda. Karbon emissiyalarining mutanosib va adolatli qisqarishini ta‘minlash uchun, rivojlangan davlatlar tomonidan yuqori texnologiyali energiya samarador strategiyalari, rivojlanayotgan mamlakatlarga esa moliyaviy va texnik yordam mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi.

Iqlim o‘zgarishi muammosi ekologik muvozanatga eng katta tahdidni yuzaga keltirsa-da, barqarorlikni baholashda faqat atmosfera komponentlarini emas, balki tabiiy resurslarning holatini ham chuqur o‘rganish talab etiladi. Shu bois ekologik barqarorlikning ikkinchi

⁵⁴ Our World in Data. (2024). *CO₂ emissions per capita by country*. Oxford University.

⁵⁵ International Energy Agency (IEA). (2024). *India Energy Outlook*.

⁵⁶ European Environment Agency (EEA). (2024). *Greenhouse gas emissions in the EU dropped in 2024*.

⁵⁷ National Oceanic and Atmospheric Administration (NOAA). (2024). *Trends in Atmospheric Carbon Dioxide*.

muhim yoʻnalishi — **yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish** masalasidir.

Iqlim oʻzgarishi ekologik barqarorlikning global darajadagi muammosi boʻlsa, **yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish** esa mahalliy va mintaqaviy ekologik izchillikni taʼminlashda hal qiluvchi omillardan biridir. Bu yoʻnalish tabiiy resurslardan foydalangan holda ularni kelajak avlodlar uchun ham saqlab qolish tamoyiliga asoslanadi.

Soʻnggi yillarda qishloq xoʻjaligi faoliyatining kengayishi, urbanizatsiya jarayonlari, sanoat va infrastruktura rivoji natijasida yer resurslariga boʻlgan bosim keskin ortdi. Bu oʻz navbatida **degradatsiyaga, choʻllanishga, oʻrmonlar qisqarishiga va biologik xilma-xillikning yoʻqolishiga** olib kelmoqda⁵⁸. Yer degradatsiyasi nafaqat ekologik muammolarni, balki oziq-ovqat xavfsizligi, ijtimoiy tengsizlik va migratsiya kabi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni yuzaga keltiradi.

Xuddi shuningdek, ichimlik suvi resurslariga boʻlgan talab ham ortib bormoqda. Aholi sonining oʻsishi, iqlim oʻzgarishi va suvdan samarasiz foydalanish natijasida koʻplab hududlarda **suv tanqisligi** kuzatilmoqda. Jahon Banki maʼlumotlariga koʻra, 2050-yilga borib dunyo aholisi orasida suv tanqisligidan aziyat chekadiganlar soni 4 milliard kishidan oshishi mumkin⁵⁹. Shu boisdan ekologik barqarorlik konsepsiyasida yer va suv resurslaridan barqaror, adolatli va rejali foydalanish markaziy oʻrin tutadi. Bu nafaqat tabiiy muhitni saqlab qolish, balki yashash muhitini sogʻlomlashtirish va iqtisodiy rivojlanishni uzoq muddatli barqarorlik bilan uygʻunlashtirish uchun ham zaruriy shartdir⁶⁰.

⁵⁸ UNESCO (2021).

⁵⁹ The World Bank. (2016). *High and Dry: Climate Change, Water, and the Economy*.

⁶⁰ World Bank (2020).

1.4.2-jadval

Tanlangan mintaqalar bo'yicha yer degradatsiyasi va suv ta'minoti holati (2023–2024)⁶¹

Mintaqa	Degradatsiyaga uchragan yerlar (mln ga)	Ichilik suvi tanqisligi bo'yicha aholining ulushi (%)	Yillik o'sish (degradatsiya/suv tanqisligi)
Sahroi Kabir (Afrika)	340	65%	+2.5% / +1.8%
Janubiy Osiyo	190	42%	+1.3% / +2.2%
Markaziy Osiyo	60	58%	+2.9% / +1.9%
Lotin Amerikasi	110	35%	+1.1% / +1.4%
Yevropa	45	12%	+0.5% / +0.6%

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar yer degradatsiyasi va ichilik suvi tanqisligi muammosining mintaqaviy tafovutlarga ega murakkab xarakterini ochib beradi. Eng og'ir holat **Afrika qit'asining Sahroi Kabir** mintaqasida kuzatilmoqda: bu yerda degradatsiyaga uchragan maydon 340 million gektarni tashkil etadi, ya'ni qit'aning deyarli yarmi ekotizim barqarorligini yo'qotgan. Shu bilan birga, aholining 65 foizi ichilik suvi tanqisligiga duch kelayotgani bu mintaqada ekologik va ijtimoiy inqiroz bir vaqtning o'zida kechayotganini ko'rsatadi. Yillik degradatsiya o'sish sur'ati 2.5 foizni tashkil qilayotgani bu hududda barqaror yer boshqaruvi strategiyalari mavjud emasligini bildiradi⁶².

Janubiy Osiyo, ayniqsa Hindiston va Pokiston kabi yuqori zichlikdagi mamlakatlarni qamrab olgani bois, bu yerda 190 million gektar yer degradatsiyaga uchragan. Suv tanqisligidan aziyat chekayotgan aholining 42 foizga yetgani⁶³ bu mintaqada suv infratuzilmasining izchil rivojlanmaganligini va qishloq xo'jaligida samarasiz sug'orish tizimlarining ustunligini anglatadi. Bunda yillik

⁶¹ Global Green Growth Institute (GGGI). <https://gggi.org> - [Yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi xalqaro tashkilot].

⁶² UNCCD. (2022). *Global Land Outlook 2nd Edition*. United Nations Convention to Combat Desertification.

⁶³ FAO & IWMI. (2023). *Status of Land and Water Resources in Asia*. Food and Agriculture Organization & International Water Management Institute.

o'sish sur'atining (degradatsiya bo'yicha 1.3%, suv tanqisligi bo'yicha 2.2%) ortib borayotgani jiddiy xavfni anglatadi.

Markaziy Osiyoga xos bo'lgan muammo esa suv resurslarining chegaralanganligi va ular ustidan bo'lgan transchegaraviy raqobatdir. Degradatsiyaga uchragan yerlar 60 million gektarni tashkil qilsa-da, bu mintaqada aholi soni kamroq bo'lganligi uchun bu ko'rsatkich nisbatan yuqori intensivlikni bildiradi. Aholining 58 foizi suv tanqisligidan aziyat chekayotgani⁶⁴ va yillik degradatsiya sur'atining 2.9 foizga yetgani Markaziy Osiyoni ekologik barqarorlik nuqtai nazaridan yuqori xavfli mintaqaga aylantiradi⁶⁵. Sovet davridan meros bo'lib qolgan suv va yer siyosatining izlari, Orol dengizi fojeasi va suvsizlanayotgan hududlar bu tahdidni yanada kuchaytirmoqda.

Lotin Amerikasida 110 million gektar yer degradatsiyaga uchragan bo'lsa-da, suv tanqisligi darajasi 35 foiz atrofida⁶⁶. Bu mintaqada asosan o'rmonlar — ayniqsa Amazon o'rmonlarining kesilishi va yong'inlar orqali yo'qolishi natijasida degradatsiya yuzaga kelmoqda. Suv resurslari miqdor jihatidan boy bo'lishiga qaramay, infratuzilmaning notekisligi suv taqsimotida muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Yevropa mintaqasida esa holat nisbatan barqaror: degradatsiyaga uchragan yerlar 45 million gektarni tashkil etsa-da, bu maydonlar asosan intensiv qishloq xo'jaligi va urbanizatsiya jarayonlari bilan bog'liq. Aholining atigi 12 foizi suv tanqisligiga duch keladi⁶⁷. Bu Yevropada resurslardan samarali foydalanish, ilg'or texnologiyalar va ekologik me'yorlarga qat'iy amal qilinayotganini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, yer va suv resurslaridan foydalanish masalasi ekologik barqarorlik konsepsiyasining ajralmas va murakkab yo'nalishidir⁶⁸. Yer degradatsiyasi va suv tanqisligi — bu nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning ildizi bo'lib xizmat qilmoqda. Sahroi Kabir, Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo

⁶⁴ CAREC. (2021). *Environmental Outlook in Central Asia*. Regional Environmental Centre for Central Asia.

⁶⁵ Bozorov, A., & Qodirov, I. (2020).

⁶⁶ UNEP. (2022). *State of the Environment: Latin America and the Caribbean*. United Nations Environment Programme.

⁶⁷ European Environment Agency (EEA). (2023). *Land degradation and water stress in Europe*.

⁶⁸ OECD (2011).

kabi mintaqalarda bu muammolar surunkali tus olgan va barqaror rivojlanishga to'sqinlik qilmoqda.

Shu boisdan, ekologik siyosatda **integratsiyalashgan resurs boshqaruvi, barqaror qishloq xo'jaligi amaliyotlari, suvni tejevchi texnologiyalar, va landshaft miqyosidagi rejalashtirish** usullarini keng joriy etish zarur. Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik, ayniqsa transchegaraviy suv resurslari bo'yicha adolatli kelishuvlar, muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekologik barqarorlikni baholashda faqat resurslardan foydalanish hajmi emas, balki ularning **tiklanish imkoniyati, boshqaruv sifati va tabiiy tizimlarga ta'siri** ham inobatga olinishi lozim. Zero, yer va suv resurslari — insoniyat hayoti uchun eng asosiy tabiiy zamin hisoblanadi.

Yer va suv resurslarining barqaror boshqaruvi ekologik tizimlarning asosiy tayanchi bo'lsa, bu tizimlarning ichki muvozanatini ta'minlovchi asosiy omil — **biologik xilma-xillikdir**. Biologik xilma-xillik — bu turli organizmlarning, genetik zaxiralar va ekotizimlarning umumiy boyligi bo'lib, tabiatning barqaror ishlashiga xizmat qiluvchi asosiy kapital hisoblanadi⁶⁹.

Ekotizimlar insoniyatga qimmatli xizmatlarni taqdim etadi: toza havo, ichimlik suvi, tuproq unumdorligi, changlatish, kasalliklar nazorati, iqlimni tartibga solish kabi ko'plab funksiyalar tabiiy tizimlar tomonidan ta'minlanadi. Ushbu xizmatlar odatda bozor qiymatiga ega emas, biroq ularning yo'qolishi ekologik, iqtisodiy va sog'liqni saqlash jihatidan katta yo'qotishlarga olib keladi.

So'nggi o'n yilliklarda antropogen omillar — xususan o'rmonlarning kesilishi, sanoat chiqindilari, qishloq xo'jaligida pestitsidlarning haddan tashqari qo'llanilishi, urbanizatsiya va global isish natijasida biologik xilma-xillik sezilarli darajada kamaymoqda. BMTning Biologik xilma-xillik bo'yicha Global hisobotiga ko'ra, hozirgi kunda yovvoyi hayvon turlarining 1 milliarddan ortig'i yo'q bo'lib ketish xavfi ostida⁷⁰.

⁶⁹ Kuzibekov, U. (2021).

⁷⁰ Global Green Growth Institute (GGGI) (2019).

Shu bois, ekologik barqarorlikni ta'minlashda faqatgina resurslardan foydalanish emas, balki **tirik tabiatni himoya qilish, ekotizim xizmatlarini qadrlash, va turlarning yo'qolishini oldini olishga** qaratilgan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi⁷¹.

1.4.3-jadval

Biologik xilma-xillik ko'rsatkichlari va yo'qolish xavfi (2024)⁷²

Mintaqa	Qamrab olingan yovvoyi turlar soni	Yo'qolish xavfi ostida bo'lgan turlar (%)	O'rmon qoplaminig o'zgarishi (2010–2023)	Asosiy xavf omillari
Amazonka (Jan. Amerika)	16,000	24%	-9.5%	O'rmon kesilishi, yong'inlar
Janubiy-Sharqiy Osiyo	10,400	38%	-12.7%	Urbanizatsiya, brakonerlik
Afrika (Ekvatorial)	13,000	33%	-11.2%	Konchilik, qishloq xo'jaligi bosimi
Okeaniya va Avstraliya	7,800	40%	-6.3%	Insoniy tazyiq, invaziv turlar
Yevropa va Markaziy Osiyo	6,200	17%	+0.5%	Iqlim o'zgarishi, infratuzilma kengayishi

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, biologik xilma-xillikka tahdidlar har bir mintaqada turlicha bo'lsa-da, umumiy xavotirli tendensiya — **turlar sonining keskin kamayishi va o'rmon qoplaminig qisqarishidir. Amazonka mintaqasida**, 16 mingdan ortiq yovvoyi tur mavjud bo'lib, ularning 24 foizi yo'qolish xavfi ostida. O'rmon qoplaminig 13 yilda 9.5 foizga qisqarishi, bu hududda ekotizim izchilligining jiddiy buzilayotganini ko'rsatadi⁷³.

Janubi-Sharqiy Osiyoda esa yo'qolish xavfi ostidagi turlar ulushi 38 foizga yetgan — bu global miqyosdagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir. Mintaqada urbanizatsiya jarayonlari va noqonuniy ov qilish

⁷¹ IPBES. (2019). *Global Assessment Report on Biodiversity and Ecosystem Services*. Intergovernmental Science-Policy Platform on Biodiversity and Ecosystem Services.

⁷² Jackson, T. (2009). *Prosperity Without Growth: Economics for a Finite Planet*.

⁷³ WWF (2022). *Living Planet Report 2022*. World Wide Fund for Nature.

(brakonerlik) bu xavfni kuchaytirmoqda ⁷⁴. **Afrikaning Ekvatorial hududlari** ham biologik xilma-xillik boyligi jihatidan muhim, ammo o'rmon maydonlarining 11 foizdan ortig'i so'nggi o'n yillikda yo'qolgan. Konchilik faoliyati va ozuqaviy yer maydonlariga ehtiyojning ortishi ekotizimlarga bosimni oshirmoqda⁷⁵.

Okeaniya va Avstraliyada xavf ostidagi turlar ulushi 40 foizga yetgan bo'lib⁷⁶, bu eng yuqori ko'rsatkichdir. Bu yerda eng katta tahdid invaziv (bosqinchi) turlar va odam faoliyatining kuchayishi bilan bog'liq.

Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqalarida nisbiy barqarorlik kuzatilmoqda. Bu yerda o'rmon qoplaminin oz miqdorda ortgani va xavf ostidagi turlar ulushining 17 foizni tashkil etishi — mintaqaviy ekologik siyosat va himoya choralari nisbatan samarali kechayotganini ko'rsatadi⁷⁷.

Biologik xilma-xillik ekologik tizimlarning chidamliligi, moslashuvchanligi va uzluksiz ishlashini ta'minlaydigan asosiy resurs hisoblanadi. U yo'qolgach, ekotizimlar o'z xizmatlarini bajarishdan to'xtaydi, bu esa insoniyat uchun hayotiy xavf tug'diradi. BMT hisob-kitoblariga ko'ra, global miqyosda biologik xilma-xillik yo'qolishining insoniyatga yetkazadigan iqtisodiy zarari har yili 3 trillion dollardan ortiqni tashkil qilmoqda⁷⁸.

Shu bois, barqaror rivojlanishning ajralmas qismi sifatida quyidagilar ustuvor yo'nalishlar bo'lishi lozim:

- Yovvoyi turlar yashash joylarini qonuniy himoya qilish;
- O'rmon va botqoqliklarni qayta tiklash;
- Biologik xilma-xillikka iqtisodiy qiymat berish (ekotizim xizmatlarini monetizatsiya qilish);
- Jamiyatni atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli qarashga o'rgatish.

⁷⁴ **IPBES (2019)**. *Global Assessment Report on Biodiversity and Ecosystem Services*. Intergovernmental Science-Policy Platform on Biodiversity and Ecosystem Services.

⁷⁵ **FAO (2023)**. *The State of the World's Forests 2022*. Food and Agriculture Organization of the United Nations.

⁷⁶ **UNEP (2021)**. *Making Peace with Nature*. United Nations Environment Programme.

⁷⁷ Global Green Growth Institute (GGGI) (2019).

⁷⁸ **OECD (2023)**. *Global Plastics Outlook: Policy Scenarios to 2060*. Organisation for Economic Co-operation and Development.

Ekologik barqarorlikni ta'minlashda chiqindilarni oqilona boshqarish va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda iqtisodiy faollik darajasining ortishi bilan chiqindilar hajmi ham mutanosib tarzda oshmoqda. Ayniqsa, shaharsozlik, sanoat va iste'mol madaniyatining o'zgarishi natijasida **qattiq maishiy chiqindilar, plastik ifloslanish, atmosfera ifloslantiruvchilari va kimyoviy chiqindilar** ekotizimlar va inson salomatligi uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda⁷⁹.

Agar chiqindilar muvofiqlashtirilmagan holda yig'ilsa yoki yoqilsa, ular atmosferaga zaharli moddalar, jumladan, **dioksinlar, metan, PM2.5 zarrachalari, NO_x va SO₂** kabi ifloslantiruvchi gazlar chiqaradi⁸⁰. Bu moddalar nafaqat iqlim o'zgarishiga, balki yurak-qon tomir va nafas yo'llari kasalliklariga ham sabab bo'ladi. Dengiz va quruqlik ekotizimlarida esa plastmassa va og'ir metall chiqindilari turlarni nobud qiladi va oziq zanjirlariga zarar yetkazadi⁸¹.

Quyidagi jadval 2024-yil holatiga ko'ra ayrim mintaqalarda chiqindi ishlab chiqarish hajmi, uni qayta ishlash ko'rsatkichlari va ifloslanish darajalarini aks ettiradi:

1.4.4-jadval

Chiqindilar hosil bo'lishi, qayta ishlanishi va ifloslanish (2024)⁸²

Mintaqa	Yiliga ishlab chiqarilayotgan chiqindi (mln tonna)	Qayta ishlash darajasi (%)	PM2.5 ifloslanish o'rtacha miqdori (µg/m ³)	Asosiy ekologik xavflar
Shimoliy Amerika	290	34%	12.5	Poligonlar to'lishi, metan chiqishi
Yevropa	240	48%	11.0	Elektron chiqindilar, havo ifloslanishi
Janubiy Osiyo	315	12%	40.2	Havoning ifloslanishi, tartibsiz chiqindi tashlash
Sahroi Kabir Afrikasi	180	8%	29.4	Ochiq yoqilish, xavfli chiqindilar

⁷⁹ Bozorov, A., & Qodirov, I. (2020).

⁸⁰ World Bank (2022). *What a Waste 2.0: A Global Snapshot of Solid Waste Management to 2050*.

⁸¹ Global Green Growth Institute (GGGI) (2019).

⁸² Daly, H.E. & Farley, J. (2011). *Ecological Economics: Principles and Applications*.

Mintaqa	Yiliga ishlab chiqarilayotgan chiqindi (mln tonna)	Qayta ishlash darajasi (%)	PM2.5 ifloslanish o'rtacha miqdori ($\mu\text{g}/\text{m}^3$)	Asosiy ekologik xavflar
Sharqiy Osiyo	380	21%	35.7	Plastmassa ifloslanishi, sanoat chiqindilari

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, chiqindilar hajmi va ularni boshqarish darajasi mintaqalar o'rtasida keskin tafovutga ega. **Sharqiy Osiyoda** yillik chiqindi ishlab chiqarish 380 mln tonnaga yetgan bo'lib, bu global miqyosdagi eng yuqori ko'rsatkichdir. Ammo bu chiqindilarning atigi 21 foizi qayta ishlanadi. Qolgan qismi poligonlarga joylashtiriladi yoki yoqiladi, bu esa yuqori ifloslanishga — xususan **35.7 $\mu\text{g}/\text{m}^3$** miqdoridagi PM2.5 zarrachalariga sabab bo'lmoqda. Bu daraja Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan tavsiya etilgan normadan 3–4 barobar yuqori⁸³.

Janubiy Osiyo ham og'ir holatda: 315 mln tonna chiqindi ishlab chiqariladi, ammo atigi 12 foizi qayta ishlanadi. Mintaqadagi PM2.5 ifloslanish darajasi **40.2 $\mu\text{g}/\text{m}^3$** bo'lib, bu inson salomatligiga jiddiy tahdid tug'diradi. Ayniqsa, Hindiston va Pokistonning yirik shaharlarida havo sifati dunyodagi eng yomonlar qatoriga kiradi⁸⁴.

Yevropada chiqindi miqdori 240 mln tonnani tashkil etsa-da, ularning 48 foizi qayta ishlanmoqda. Havo ifloslanishi nisbatan past (**11.0 $\mu\text{g}/\text{m}^3$**) bo'lib, bu mintaqada ekologik boshqaruv tizimlarining samarali ishlashini ko'rsatadi. Elektron chiqindilarning ko'payishi esa yangi ekologik chaqiriq bo'lib turibdi.

Shimoliy Amerikada chiqindilar hajmi 290 mln tonna, ammo qayta ishlash darajasi 34% bilan cheklangan. Poligonlar to'lishi va metan gazining chiqishi iqlimga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. **Afrikada** esa holat nihoyatda og'ir: chiqindilar asosan ochiq holda yoqiladi yoki tartibsiz tashlanadi. Qayta ishlash darajasi atigi 8% bo'lib, xavfli chiqindilar (bataryalar, akkumulyatorlar, farmatsevtik vositalar) nazorat qilinmaydi⁸⁵.

⁸³ UNSDG (2023). *Sustainable Development Goals Report 2023*. United Nations.

⁸⁴ Sachs, J. D. (2015).

⁸⁵ UNEP (2011).

Chiqindilarni boshqarish va ifloslanishni kamaytirish ekologik barqarorlik strategiyasining ajralmas qismidir. Bunda ikki asosiy yoʻnalish mavjud:

1. **Chiqindilar miqdorini kamaytirish** – “nol chiqindi” konsepsiyasi, takror foydalanish va isteʼmol madaniyatini oʻzgartirish;
2. **Qayta ishlash va ekologik toza utilizatsiya** – chiqindini iqtisodiy resursga aylantirish orqali.

Mintaqalar oʻrtasidagi tafovutlar shuni koʻrsatadiki, bu sohada muvaffaqiyatli siyosat yuritish uchun texnologik imkoniyatlardan tashqari, huquqiy tartibga solish, moliyaviy ragʻbatlar va aholi ongi ham muhim oʻrin tutadi.

Ekotizimlar salohiyatini saqlash uchun chiqindilarning toʻgʻri boshqarilishi va sanoatdagi “yopiq sikl” (circular eCO2nomy) modelining joriy etilishi zarur. Aks holda, chiqindilar ekologik inqirozning asosiy omiliga aylanadi⁸⁶.

Energiya ishlab chiqarish va isteʼmoli — zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi sanaladi. Biroq anʼanaviy energiya manbalari — ayniqsa koʻmir, neft va gaz — nafaqat cheklangan resurslar, balki ular ekologik xavflilik darajasi yuqori boʻlgan manbalardir⁸⁷. Energetika sohasi global issiqxona gazlarining 70 foizdan ortigʻini tashkil qiladi. Shu sababli ekologik barqarorlikka erishishda **energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi manbalarga oʻtish** ustuvor yoʻnalish boʻlib xizmat qiladi⁸⁸.

Energiya samaradorligi — bu mavjud energiya resurslarini kamroq yoʻqotish bilan koʻproq foyda olish deganidir. U sanoat, transport, bino-inshootlar va qishloq xoʻjaligida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali qoʻlga kiritiladi. Boshqa tomondan, **qayta tiklanuvchi energiya manbalari** (quyosh, shamol, gidro, bioenergiya va geotermal manbalar)

⁸⁶ World Commission on Environment and Development (1987).

⁸⁷ **IPBES (2019)**. *Global Assessment Report on Biodiversity and Ecosystem Services*. Intergovernmental Science-Policy Platform on Biodiversity and Ecosystem Services.

⁸⁸ **OECD (2023)**. *Global Plastics Outlook: Policy Scenarios to 2060*. Organisation for Economic Co-operation and Development.

ifloslantiruvchi gazlar chiqarmaydi, tiklanadi va mahalliy resurs sifatida iqtisodiy barqarorlikni kuchaytiradi⁸⁹.

So‘nggi yillarda global miqyosda bu yo‘nalishda ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Quyidagi jadval ayrim mamlakatlarda qayta tiklanuvchi energiya ulushi va energiya samaradorligi bo‘yicha holatni aks ettiradi.

1.4.5-jadval⁹⁰

Qayta tiklanuvchi energiya ulushi va energiya samaradorligi (2024)

Davlat / Mintaqa	Energiya ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchilar ulushi (%)	Yalpi ichki mahsulot birligiga energiya sarfi (kgoe/USD)	Energiya samaradorligi bo‘yicha reyting (1–100)
Norvegiya	74%	0.09	92
Germaniya	51%	0.12	88
AQSH	22%	0.17	80
Xitoy	16%	0.23	72
Hindiston	12%	0.25	68
Jahon o‘rtacha	30%	0.18	—

kgoe – kilogramm neft ekvivalenti

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, qayta tiklanuvchi energiyaga o‘tish darajasi mamlakatlar o‘rtasida keskin farq qilmoqda. **Norvegiya**da energiyaning 74 foizi qayta tiklanuvchi manbalardan olinmoqda. Asosan gidroelektr stansiyalariga tayanadigan bu mamlakatda energiya samaradorligi eng yuqori (reyting: 92) bo‘lib, yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbatan sarflanayotgan energiya miqdori atigi **0.09 kgoe/USD⁹¹**.

Germaniyada ham muqobil energiya manbalariga faol o‘tish kuzatilmoqda — ularning ulushi 51 foizni tashkil etadi. Shu bilan birga, energiya samaradorligi reytingi 88 bo‘lib, bu sohada yevropa mamlakatlari ilg‘orlik qilayotganini ko‘rsatadi⁹².

⁸⁹ OECD (2011).

⁹⁰ OECD (2011). *Towards Green Growth*. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development

⁹¹ IEA (2024). *World Energy Outlook 2024*. International Energy Agency.

<https://www.iea.org/reports/world-energy-outlook-2024>

⁹² REN21 (2024). *Renewables Global Status Report 2024*. Renewable Energy Policy Network for the 21st Century.

<https://www.ren21.net/reports/global-status-report/>

AQSH va **Xitoy** kabi yirik iqtisodiyotlarda an'anaviy energiya manbalariga tayanish hanuz kuchli. AQSHda qayta tiklanuvchilar ulushi 22% bo'lsa, Xitoyda bu ko'rsatkich 16% atrofida. Ayniqsa Xitoyda energiya sarfi yuqori — 0.23 kgoe/USD — bu sanoat intensivligi yuqori bo'lgan iqtisodiyotga xos holatdir. Shu bilan birga, Xitoyda muqobil manbalarni rivojlantirishga katta mablag' yo'naltirilmoqda⁹³.

Hindistonda qayta tiklanuvchi energiya ulushi past (12%), energiya samaradorligi esa sust rivojlanmoqda. Bunda texnologik yetishmovchilik va iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi⁹⁴.

Global o'rtacha ko'rsatkichlar hali yetarlicha yuqori emas: qayta tiklanuvchi manbalar ulushi 30% atrofida bo'lib⁹⁵, bu iqlim o'zgarishi bilan kurashish uchun yetarli emas. Energiya samaradorligida ham katta imkoniyatlar mavjud.

Energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi manbalarga o'tish — barqaror rivojlanishga erishishning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan eng kompleks yo'nalishidir. Bu ikki strategiya birgalikda:

- Iqlim o'zgarishining oldini olishga xizmat qiladi;
- Resurslardan foydalanish bosimini kamaytiradi;
- Energiya xavfsizligini oshiradi;
- Innovatsion texnologiyalar orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Kelajakda energiya siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanishi zarur:

- An'anaviy manbalarga subsidiya berishni kamaytirish;
- Yashil investitsiyalarni ko'paytirish;
- Energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish;
- Aholi va biznesni "yashil energiya" foydasiga motvatsiyalash.

Ekologik barqarorlik — bu tabiat resurslaridan ularning tabiiy tiklanish imkoniyatlarini buzmaganda, keyingi avlodlar

⁹³ **IRENA (2024)**. *World Energy Transitions Outlook 2024: 1.5°C Pathway*. International Renewable Energy Agency. <https://www.irena.org/publications>

⁹⁴ **UNEP (2023)**. *Emissions Gap Report 2023: Broken Record*. United Nations Environment Programme. <https://www.unep.org/resources/emissions-gap-report-2023>

⁹⁵ **World Bank (2023)**. *Tracking SDG7: The Energy Progress Report 2023*. <https://trackingsdg7.esmap.org>

manfaatlarini hisobga olib foydalanishni anglatadi. U nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqlim, resurs, chiqindi, ifloslanish va energiya xavfsizligi kabi zamonaviy global muammolarning kompleks yechimini taklif qiladi⁹⁶.

Tahlil qilingan beshta asosiy yo'nalish — iqlim o'zgarishi va issiqxona gazlari chiqarilishi, tabiiy resurslardan foydalanish va biologik xilma-xillik, suv resurslari sifati va foydalanishi, chiqindilarni boshqarish va ifloslanishni kamaytirish, hamda energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish — ekologik barqarorlikni o'lchash va boshqarishda o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlardir⁹⁷.

Ushbu yo'nalishlar bo'yicha global statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki:

- Taraqqiy etgan mamlakatlarda texnologik salohiyat hisobiga ifloslanish darajasi nisbatan nazorat ostida bo'lsa-da, ularning tarixiy ekologik izlari hanuz sezilarli;
- Rivojlanayotgan mamlakatlar resurslardan foydalanishda intensiv, ammo barqarorlik mezonlariga rioya qilishda zaif;
- Jahon bo'yicha ko'plab mintaqalarda chiqindilar, havo va suv ifloslanishi, biologik yo'qotishlar va energiya isrofi yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

Shu boisdan, ekologik barqarorlikni mustahkamlash uchun quyidagi yondashuvlar zarur:

- **Barqaror boshqaruv siyosati** — milliy va global darajada huquqiy va institutsional mexanizmlarni mustahkamlash;
- **Yashil texnologiyalarni joriy etish** — resurslar sarfini kamaytiruvchi, chiqindilarni minimallashtiruvchi innovatsiyalar;
- **O'quv-tarbiyaviy va ma'rifiy choralar** — aholining ekologik ongini oshirish;

⁹⁶ Stiglitz, J., Sen, A., & Fitoussi, J. P. (2009).

⁹⁷ World Commission on Environment and Development (1987).

- **Moliyaviy mexanizmlar** — yashil investitsiyalar, karbon solig‘i, ekologik subsidiyalar va yashil obligatsiyalar orqali iqtisodiy rag‘batlantirish⁹⁸.

Barqaror ekologik yondashuvlarsiz yashil iqtisodiyotga o‘tish mumkin emas. Ekologik barqarorlik — bu iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikni cheklovchi omil emas, aksincha, ularning uzoq muddatli kafolati hisoblanadi. Bu mezonlar asosida har bir davlat, mintaq va iqtisodiyot sohasi o‘z ekologik izini qisqartirishga, tabiiy resurslarni muhofaza qilishga va iqlim barqarorligini ta’minlashga intilishi lozim.

Bu ustun yashil iqtisodiyot, ekologik texnologiyalar va ekologik ta’lim bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, barqaror rivojlanishning eng muhim elementlaridan biridir.

2. Iqtisodiy barqarorlik: samarali va adolatli o‘sish yo‘li

Iqtisodiy barqarorlik — bu iqtisodiyotning uzoq muddatli o‘sishini ta’minlab, resurslardan oqilona va samarali foydalanishga asoslangan iqtisodiy modelni anglatadi. Bu yo‘nalish nafaqat yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘sish sur‘atlariga, balki iqtisodiy faoliyatning ekologik va ijtimoiy oqibatlariga ham e’tibor qaratadi⁹⁹.

1.4.6-jadval

Iqtisodiy barqarorlikning besh asosiy yo‘nalishi¹⁰⁰

	Yo‘nalish	“Nega muhim?”	Qanday harakat qilish? (Quick hits)
1	Mahsuldorlikni bo‘stlash	TFP ko‘tarilsa, real o‘sish “bench-press”i og‘irlashadi.	<ul style="list-style-type: none"> • Raqamli infratuzilma (5G, cloud) • KOB texnoparklari • Agri-tech & sanoat avtomatizatsiya
2	Moliyaviy inklyuziya va kapitalga kirish	Pul oqimlari “elit-club” emas, mass market bo‘lsin.	<ul style="list-style-type: none"> • Fin-tech, open banking API • Mikrokredit + sukuk • “Green bond” bozorini yoqish
3	Daromadlarni adolatli taqsimlash	Gini past bo‘lsa, ijtimoiy barqarorlik avtomatik bufferdir.	<ul style="list-style-type: none"> • Progres. soliq • Ijtimoiy dividendlarga aksionerlik

⁹⁸ World Commission on Environment and Development (1987).

⁹⁹ Bozorov, A., & Qodirov, I. (2020). *Yashil iqtisodiyot: Nazariy va amaliy asoslari*.

¹⁰⁰ OECD. *Green Growth Indicators 2023*. Paris: OECD Publishing, 2023.

	Yo‘nalish	“Nega muhim?”	Qanday harakat qilish? (Quick hits)
			• Target subsidiyalar, “cash transfer” app
4	Yashil invest klasteri	ESG bugun – reputation shield, ertaga – majburiy standart.	• Karbon kvotalari • Smart grid, VPP* • “Sun-tracker” subsidiya paketi
5	Institutsional mustahkamlash	Qonun o‘tmasa, hamma KPI – faqat PPT.	• Shaffof e-tender, open data portal • “Once-only” hujjat aylanishi • Sud mustaqilligi va CO2pliance bot’lar

Iqtisodiy barqarorlikning 5 asosiy yo‘nalishlardan birinchisi-mahsuldorlikni bo‘rtlash. Keling shu haqida ozroq to‘xtalaylik. Oddiy so‘z bilan aytganda, **mahsuldorlikni bo‘stlash** – bu har bir soat ish, har bir gektar yer yoki har bir so‘m sarmoyadan ko‘proq mahsulot yoki qiymat olishni anglatadi¹⁰¹. Xuddi telefoningizdagi “turbo-rejim”ni yoqishdek: quvvatni ko‘paytirasiz, lekin batareya tez tugamaydi.

1.4.7-jadval

Iqtisodiy Barqarorlik Kontekstida Mahsuldorlikni Bo‘stirish Bo‘yicha Asosiy Intervensiyalar, Mexanizmlar va Natijalar¹⁰²

Blok	Nima qilamiz? (intervensiya)	Qanday ishlaydi? (mexanika)	Kutilgan natija / KPI
Raqamli infratuzilma	5G + edge-CO2mputing’ni 100 % tuman markazlarigacha yoyamiz	Kechikish ↓, IoT va AI xizmatlari “real-time”ga chiqadi	TFP +0.8 %/yil, rural-urban digital gap –40 %
KOB texnoparklari	“Plug-and-play” zavod bloklari, umumiy ERP va IoT platformasi	Kichik firmalar kapitalko‘p xarajatni “sho‘ng‘ib” emas, “share” qilib qoplaydi	KOB eksport ulushi 18 % → 30 % (2030)
Agri-tech boost	Dron seeding, sensor sug‘orish, AI hosil prognozi	Resurs sarfi ↓, hosil vaqti optimallashtiriladi	Gektariga hosil +20 %, suv sarfi –25 %
Sanoat 4.0 grantlari	Robot va CO2bot uchun matching-fund, lekin reskilling KPI bilan	Avtomatizatsiya samarador, lekin ishsizlikka “airbag”	Ishlab chiqarish chiqimi –15 %, qayta tayyorlangan ishchi ulushi 70 %

¹⁰¹ Bozorov, A., & Qodirov, I. (2020). *Yashil iqtisodiyot: Nazariy va amaliy asoslari*.

¹⁰² Schwab, K., and Zahidi, S. *The Global Competitiveness Report 2024*. Geneva: World Economic Forum, 2024.

Blok	Nima qilamiz? (intervensiya)	Qanday ishlaydi? (mexanika)	Kutilgan natija / KPI
Talabga mos STEM pipeline	Dual-track universitet- zavod dasturi, “reverse brain-drain” stipendiyasi	Kompetensiya bozor talabi bilan sinkron	STEM bo'yicha bo'sh ish o'rinlari < 3 %, AI patentlari +50 %

Iqtisodiyotimizni katta, qudratli mashinaga qiyoslaylik. U uzoq masofani to'xtovsiz bosib o'tishi uchun beshta asosiy detalni birdaniga yangilaymiz — har biri keyingisini quvvatlantiradi, xuddi zanjirdagi halqalar kabi.

Avval «raqamli yo'llar»ni tekislaymiz: 5G va keng polosali internet shahardan qishloqqacha uzluksiz ishlasa, korxonalar ham, fermerlar ham kerakli ma'lumotni darhol oladi. Kechikishlar yo'qoladi, ish tezlashadi va mahsulot tannarxi pasayadi¹⁰³.

Bu tezkor axborot oqimi ikkinchi bosqichga — kichik biznes texnoparklariga jon bag'ishlaydi. Zamonaviy ustaxona, robot va 3D-printerlar hammaga ijaraga ochiq: kichik firma ham yirik zavoddek samarali ishlab, bozor va eksportda poygaga qo'shila oladi¹⁰⁴.

Texnoparkda tug'ilgan texnologiya dalaga ham yetib boradi. Dron urug' sepad, sensorlar tuproqni o'lchaydi, sun'iy intellekt hosilni oldindan hisoblaydi. Fermer suv va o'g'itni bekorga sarflamaydi, hosil ko'payadi, daromad ortadi.

Zavod va dala avtomatlashtirilishi bilan ba'zi og'ir ishni robot bajara boshlaydi. Shu payt to'rtinchi bo'g'in — qayta o'qitish dasturi ishga tushadi: ishchi qisqa kursda yangi malaka oladi va robot bilan yonma-yon samaradorlikni yana-da oshiradi.

Bularning barchasini barqaror quvvatlantiradigan beshinchi halqa — talabga mos kadrlar tizimi. Universitet korxonalar bilan birga o'qituv dasturlarini tuzadi, stipendiyalar iste'dodni yurtga qaytaradi. Bitiruvchilar tayyor mutaxassis bo'lib, bozor bo'shligini darhol to'ldiradi¹⁰⁵.

¹⁰³ OECD (2022). *Green Growth Indicators 2022*. Organisation for Economic Co-operation and Development. <https://www.oecd.org/greengrowth/green-growth-indicators-2022.pdf>

¹⁰⁴ Bozorov, A., & Qodirov, I. (2020). *Yashil iqtisodiyot: Nazariy va amaliy asoslari*.

¹⁰⁵ Kuzibekov, U., & Xakimov, M. (2021). *Iqtisodiy barqarorlik va yashil texnologiyalar*.

Natijada butun mexanizm bir maromda ishlaydi: ish tez, xarajat kam, mahsulot sifatli, eksport kuchli. Fermer ham, zavod ishchisi ham ko‘proq topadi, “brain drain” o‘rmini “brain gain” egallaydi. Iqtisodiy zarbalar kelsa, real-vaqt ma’lumot va moslashuvchan kadrlar tufayli tizim yumshoq qo‘nadi. Qisqasi, bu beshta detayl bir-birini quvvatlab, iqtisodiyot mashinamizga kuchli motor va oktanli yonilg‘i beradi — u endi tez, barqaror va uzoq yuradi¹⁰⁶.

Mahsuldorlikni oshirishdan keyingi bosqich – bu moliyaviy xizmatlarni kengaytirish va har bir tadbirkor, fermer yoki kichik biznes uchun kapitalga erkin kirish imkonini yaratishdir. Raqamli texnologiyalar yordamida oddiy odamlar bankka borishga hojat qolmay, smartfon orqali kredit, omonat va sug‘urta xizmatlarini tez va oson oladi.

1.4.8-jadval

Moliyaviy inklyuziya va kapitalga kirish bo‘yicha asosiy intervensiyalar, mexanizmlar va natijalar¹⁰⁷

Blok	Nima qilamiz? (intervensiya)	Qanday ishlaydi? (mexanika)	Kutilgan natija / KPI
Raqamli moliyaviy xizmatlar	Mobil banking, onlayn kredit va to‘lov tizimlarini 100 % qamrab olish	Har kim bankka borishga hojat qolmay, moliyaviy xizmatlar smartfonda mavjud	Moliyaviy xizmatlardan foydalanish 70 % → 90 %
Kreditlashni kengaytirish	Kichik biznes va fermerlarga oson kreditlar berish, kafillik mexanizmi yaratish	Kredit olish shartlari soddalashadi, sarmoya ishlab chiqarishga o‘tadi	KOB va agrar kredit portfeli +50 % (2028-yilgacha)
Moliyaviy ta’lim dasturlari	Moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun treninglar va axborot kampaniyalari	Fuqarolar va tadbirkorlar pul oqimi, qarz, investitsiyalarni yaxshiroq tushunadi	Moliyaviy xatolar va qarzdorlik darajasi –20 %
Sug‘urta va xavfsizlik	Sanoat va qishloq xo‘jaligi uchun moliyaviy sug‘urta mahsulotlarini kengaytirish	Xavflar moliyaviy zararlarini kamaytiradi, barqarorlik oshadi	Sug‘urta qamrovi 30 % → 60 %, ijtimoiy xavflarga chidamlilik oshadi
Investitsiya fondlari va	Xususiy va davlat investitsiya fondlarini	Kapital yangi loyihalarga oqadi, innovatsiyalar	Yangi startaplar soni +40 %, investitsiya

¹⁰⁶ GIZ (2022). *Green Economy and Sustainable Development in Central Asia*.

¹⁰⁷ Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. Free Press.– Milliy iqtisodiyotlar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari haqida.

Blok	Nima qilamiz? (intervensiya)	Qanday ishlaydi? (mexanika)	Kutilgan natija / KPI
startaplar	rivojlantirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash	rag'batlantiriladi	hajmi +60 %

Moliyaviy inklyuziya iqtisodiyotning yuragi – pul oqimlarini kengaytiradi va har bir biznesning o'sish uchun imkoniyatini oshiradi. Smartfon orqali moliyaviy xizmatlarga kirishning kengayishi kichik biznes va fermerlarga kredit olishni osonlashtiradi, shu bilan ular zamonaviy texnologiyalarni joriy etadi va ishlab chiqarishni kengaytiradi.

Moliyaviy ta'lim orqali odamlar o'z byudjetlarini aniq rejalashtira boshlaydi, qarzga botish kamayadi. Sug'urta xizmatlari esa kutilmagan zararlardan himoya qiladi, bu ijtimoiy barqarorlikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Investitsiya fondlari va startaplar rivoji esa iqtisodiy yangilik va raqobatbardoshlikni oshiradi, mamlakatni yanada jozibali qiladi.

Daromadlarni adolatli taqsimlash — bu iqtisodiy barqarorlikning eng nozik va hal qiluvchi jihatlaridan biri. Oddiy qilib aytganda, jamiyatda pul taqsimoti shunchaki “kimga qancha tushadi” emas, balki imkoniyatlar tengligi, ijtimoiy adolat va kelajak uchun barqaror poydevor qurish demakdir.

1.4.9-jadval

Daromadlarni adolatli taqsimlash bo'yicha intervensiyalar va KPI'lar¹⁰⁸

Blok	Nima qilamiz? (intervensiya)	Qanday ishlaydi? (mexanika)	Kutilgan natija / KPI
Progressiv soliqlar tizimi	Yuqori daromadga yuqori soliq stavkalarini joriy etish	Boy qatlamdan ko'proq soliq olinadi, ijtimoiy xizmatlar uchun mablag' oshadi	Soliq tushumi +15 %, daromad tengsizligi indeksi (Gini) -10 %
Ijtimoiy nafaqalar va yordam	Kam ta'minlanganlarga pul va ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish	Ijtimoiy himoya tizimi zaif qatlamni qo'llab-quvvatlaydi	Kam ta'minlanganlar darajasi -20 %, kambag'allik darajasi kamayadi

¹⁰⁸ Morduch, J., & Armendáriz, B. (2010). *The Economics of Microfinance*. MIT Press.

Blok	Nima qilamiz? (intervensiya)	Qanday ishlaydi? (mexanika)	Kutilgan natija / KPI
Ta'lim va malaka oshirish dasturlari	Kambag'al qatlam uchun bepul yoki arzon ta'lim va kasb-hunar kurslari	Ta'lim imkoniyatlari tenglashadi, kambag'al qatlam iqtisodiy faol bo'ladi	Ta'lim oluvchilar soni +25 %, daromad darajasi oshadi
Adolatli mehnat bozori yaratish	Ish bilan ta'minlash va mehnat qonunlarini kuchaytirish	Ishchilar himoyalanaadi, mehnat sharoiti yaxshilanadi, ish haqi oshadi	Rasmiy bandlik +10 %, o'rtacha ish haqi +12 %
Ijtimoiy dialog va barqarorlik	Jamiyatdagi manfaatdor tomonlar o'rtasida muloqotni kuchaytirish	Norozilik kamayadi, siyosiy barqarorlik oshadi	Ijtimoiy nizolar soni -30 %, tinchlik indeksi oshadi

Daromadlarni adolatli taqsimlash iqtisodiy barqarorlikning ajralmas qismi bo'lib, uning ta'minlanishi jamiyatdagi tenglikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Buning uchun avvalo progressiv soliqlar tizimini joriy etish zarur. Bu tizim orqali yuqori daromadga ega qatlamlardan ko'proq soliq olinib, yig'ilgan mablag'lar jamiyatning zaif qatlamlari uchun ijtimoiy xizmatlarga yo'naltiriladi. Natijada daromadlar orasidagi tafovut kamayadi va iqtisodiy adolat ta'minlanadi¹⁰⁹.

Ijtimoiy nafaqalar va yordam dasturlari esa aynan shu zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlab, ularning kambag'allik darajasini pasaytirishga xizmat qiladi. Bu yordamlar, o'z navbatida, jamiyatdagi iqtisodiy faollikni oshirishga turtki beradi, chunki yordam olganlar o'z imkoniyatlarini kengaytirib, iqtisodiyotda faolroq ishtirok eta boshlaydi¹¹⁰.

Ammo adolatli taqsimlashning yana bir muhim elementi — ta'lim va malaka oshirishdir. Kambag'al qatlam uchun ta'lim imkoniyatlari kengaytirilganda, ular o'z bilim va ko'nikmalarini oshirib, yuqori daromadli ish o'rinlariga ega bo'la oladilar. Bu esa o'z navbatida daromadlarning adolatlir oq taqsimlanishiga xizmat qiladi va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlaydi.

¹⁰⁹ GIZ (2022). *Green Economy and Sustainable Development in Central Asia*.

¹¹⁰ UNSDG (2023). *The Sustainable Development Goals Report 2023*. United Nations Statistics Division. <https://unstats.un.org/sdgs/report/2023>

Shuningdek, adolatli mehnat bozori yaratish muhim rol o'ynaydi. Ish bilan ta'minlash va mehnat qonunlarini kuchaytirish orqali ishchilarni himoya qilish, ularning ish haqlarini oshirish iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi, barqaror iste'molni ta'minlaydi va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi¹¹¹.

Oxir-oqibatda, ijtimoiy dialog va barqarorlikni rivojlantirish orqali jamiyatdagi manfaatdor tomonlar o'rtasida samarali muloqot o'rnatiladi. Bu esa noroziliklarni kamaytirib, siyosiy va ijtimoiy tinchlikni mustahkamlaydi, mamlakatni uzoq muddatli barqaror rivojlanish yo'lida yanada ishonchli qadam tashlashiga imkon beradi¹¹².

Shunday qilib, bu intervensiyalar zanjir kabi bir-biriga bog'lanib, daromadlarni adolatli taqsimlash orqali ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mahsuldorlikni bo'stash, moliyaviy inklyuziya va daromadlarni adolatli taqsimlash zamin hozirlab bergach, navbat **Yashil invest klasteri** ga keladi. Bu bosqichda iqtisodiy o'sish "karbonli yoqilg'i"dan "yashil energiya"ga uzluksiz ko'chadi. Davlat va xususiy sektor hamkorlikda qayta tiklanuvchi manbalar, energiya samarador qurilmalar va atrof-muhitga xush keladigan texnologiyalarga sarmoya yo'naltiradi. Yashil startaplar uchun grant va soliq imtiyozlari bozorni jalb etadi, infratuzilma esa quyosh, shamol va bioenergiya stansiyalarini tezkor ulashga tayyorlanadi¹¹³. Natijada karbon izi keskin qisqaradi, energiya tannarxi pasayadi, eksport esa "yashil" sertifikatlar evaziga yuqori marjaga ega bo'ladi. Eng muhimi, yangi, ekologik xavfsiz ish o'rinlari paydo bo'lib, daromadlarning adolatli taqsimlanishini yanada maqsadli qiladi.

Bu va avvalgi barcha tashabbuslarning barqaror ishlashi, albatta, **Institutsional mustahkamlash** ga bog'liq. Iqtisodiyot nechog'li texnologik va yashil bo'lmasin, agar qoidalar chalkash, nazorat sust bo'lsa, tizim qoqiladi. Shu bois, mustaqil sud organlari, shaffof byudjet

¹¹¹ **WBCSD (2024).** *Vision 2050: Time to Transform*. World Business Council for Sustainable Development. <https://www.wbcsd.org/Overview/Resources/Vision-2050-Time-to-Transform>

¹¹² **UNSDG (2023).** *Sustainable Development Goals Report 2023*. United Nations. <https://unstats.un.org/sdgs/report/2023/>

¹¹³ **Kuzibekov, U., & Xakimov, M. (2021).** *Iqtisodiy barqarorlik va yashil texnologiyalar*. Toshkent: Fan va texnologiya.

jarayonlari va kuchli raqobatni qo‘llab-quvvatlovchi regulyatorlar shakllantiriladi. Raqamli kadastr, ochiq ma’lumot portallari va korrupsiyaga qarshi sun’iy intellekt nazorati investor ishonchini oshiradi, kapital oqimini barqarorlashtiradi. Natijada soliq tushumlari aniq, davlat xarajatlari samarador, biznes muhiti esa bahsga chidamli bo‘ladi¹¹⁴.

Shu tariqa, yashil invest klasteridan keladigan toza energiya mahsuldorlikni yangi darajaga ko‘tarsa, institutsional mustahkamlash bu energiyani izchil tartibga solib, barcha qatlamlar manfaati uchun yo‘naltiradi. Pul oqimi keng, daromad taqsimoti adolatli, atrof-muhit esa himoyalangan bo‘lsa, iqtisodiyot mashinasi endi nafaqat tez va barqaror, balki ekologik pok va ijtimoiy jihatdan mas’ul bo‘lib ishlaydi.

1.4.10-jadval

Yashil invest klasteri va Institutsional mustahkamlash (Intervensiya → mexanika → kutilgan natija / KPI)¹¹⁵

Blok	Nima qilamiz? (intervensiya)	Qanday ishlaydi? (mexanika)	Kutilgan natija / KPI
Yashil invest klasteri	<ul style="list-style-type: none"> • Quyosh, shamol va bioenergiya loyihalariga grant + soliq imtiyozlari • “Green-bond” bozorini ishga tushirish • Yashil startap-inkubatorlar 	Davlat-xususiy sheriklik orqali sarmoya oqimi tezlashadi; yosh firmalar texnika va bozorga oson chiqadi	<ul style="list-style-type: none"> • Qayta tiklanuvchi quvvat ulushi 15 % → 35 % (2030) • CO2₂ emissiyasi/GDP –30 % • “Green-job”lar +100 k
Eko-infratuzilma (klaster tarkibi)	Elektr tarmoqlarini smart-grid ga yangilash; EV zaryad stansiyalari tarmog‘i	Energiya yo‘qotishi ↓, qayta tiklanuvchi manbalar tarmoqqa muammosiz ulanadi	<ul style="list-style-type: none"> • Tarmoqqa ulanish yo‘qotishi –10 p.p. • EV ulushi 0.5 % → 10 %
Institutsional mustahkamlash	<ul style="list-style-type: none"> • Ochiq ma’lumot portali + AI-ga asoslangan korrupsiya monitoringi • Mustaqil regulyator va sud islohotlari • “One-stop” raqamli litsenziyalash 	Shaffoflik↑, bitim xarajatlari↓; investor ishonchi mustahkamlanadi	<ul style="list-style-type: none"> • Doing Business indeksi +20 pozitsiya • Tender shaffofligi indeksi +25 %
Fiskal barqarorlik bo‘limi (institutsional tarkib)	“Yashil soliq” va karbon boji; fiskal qoidalarni parlament	Ifloslantiruvchi to‘laydi; byudjet intizomi kuchayadi	• Yashil soliq tushumi GDP ning 1 %-ga yetadi

¹¹⁴ K. Matyoqubov (2021).

¹¹⁵ Schwab, K. (2016). *The Fourth Industrial Revolution*. World Economic Forum.

Blok	Nima qilamiz? (intervensiya)	Qanday ishlaydi? (mexanika)	Kutilgan natija / KPI
	nazoratiga berish		• Budget defitsiti < 3 % GDP

Yashil invest klasteri va institutsional mustahkamlash – bu bir mexanizmning ikki tiniq tishli g‘ildiragi. Birinchisi iqtisodiyotga toza energiyali turbo-yoqilg‘i quyadi, ikkinchisi esa dvigatelni nazorat paneli bilan jihozlab, tezlikni barqaror ushlab turadi¹¹⁶.

Avvalo, **yashil klaster** sahnaga chiqadi. Quyosh va shamolga berilgan grantlar, green-bond bozorining arzon mablag‘i hamda startup-inkubatorlar tufayli investorlar pulini karbonli konveyerdan ekologik loyihalarga buradi. Sarmoya oqimi smart-grid kabellarini tortadi, bioenergiya zavodlarini tiklaydi, EV zaryad stansiyalarini joylaydi. Natijada 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi quvvatning ulushi uchdan birga yetadi, CO₂ emissiyasining har so‘m YAIMga to‘g‘ri keladigan hajmi uchdan biriga qisqaradi va yuz minglab yangi “yashil” ish o‘rni paydo bo‘ladi¹¹⁷. Har bir megavatt toza energiya – nafaqat ekologik yutuq, balki mahalliy muhandis, montajchi va IT-mutaxassis uchun barqaror maosh demakdir.

Ammo bu sur‘atni saqlash uchun qat‘iy institutsional tayanch kerak. **Institutsional mustahkamlash** shu yerda rulni qo‘lga oladi: ochiq ma’lumot portallari har bir kilovatt va so‘mning izini ko‘rsatib turadi, AI-nazorat esa tender va ruxsatnomalardagi korrupsiyani “ko‘r burchak”siz kuzatadi. Mustaqil sud va regulyatorlar qoidalarni adolat bilan uyg‘ulaydi, raqamli “one-stop” litsenziyalash esa bitimni byurokrtiyasiz qiladi¹¹⁸. Doing Business reytingida yigirma pog‘ona yuqorilash – bu qog‘ozdagi medaldan ko‘ra muhimroq signal: «Kapital xavfsiz, keling!»

Shu payt **fiskal barqarorlik** bo‘limi moliyaviy metronom bo‘lib xizmat qiladi. Karbon boji va “yashil” soliqlar ifloslantiruvchini haqiqiy

¹¹⁶ K. Matyoqubov (2021).

¹¹⁷ **World Bank (2022)**. *What a Waste 2.0: A Global Snapshot of Solid Waste Management to 2050*.

<https://datatopics.worldbank.org/what-a-waste/>

¹¹⁸ BMT Bosh Assambleyasi (2015).

narx bilan yuzlashtiradi, byudjet esa parlament nazoratidagi fiskal qoida tufayli 3 % defitsit chizig‘idan oshmaydi ¹¹⁹. Demak, ekotizimni moliyalash faqat bugungi “populistik sharshara” emas, balki uzoq muddatli strategiya bo‘lib qoladi.

Natijada quyidagi “domino” efekti yuzaga keladi:

1. **Kapital** grant va imtiyoz yordamida yashil loyihaga kiradi.
2. **Infratuzilma** smart-grid va EV tarmog‘i orqali energiyani tejamkor tarqatadi.
3. **Ish o‘rinlari** yangi servis va texnik xizmat ko‘rsatish bozorini kengaytiradi.
4. **Shaffoflik** xavfni kamaytirib, foiz stavkalarini pastga tushiradi.
5. **Karbon boji** esa eski, iflos texnologiyalarni iqtisodiy jihatdan ma‘nasiz qilib, pulni yana klasterga qayta yo‘naltiradi.

Shunday qilib, yashil invest klasteri – bu iqtisodiy ustunlikni karbon izisiz hosil qiladigan motor. Institutsional mustahkamlash esa bu motorni kompyuter boshqaruvi bilan uyg‘unlashtiradi: tezlikni oshiradi, lekin dvigatelni qizib ketishdan asraydi. Ikkovlon birga ishlaganda, mamlakat yuqori tezlikda oldinga siljiydi — tabiatni asrab, fiskal intizomni buzmay, jamiyatga barqaror va adolatli foyda keltirib.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy barqarorlik samarali moliyaviy siyosat, mas‘uliyatli iste‘mol va ishlab chiqarish, ekologik soliq islohotlari kabi mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Bu esa iqtisodiy o‘sishni nafaqat raqamlar, balki sifatli rivojlanish mezonlari orqali baholashni taqozo etadi.

3. Ijtimoiy barqarorlik: adolat, inklyuzivlik va inson salohiyati


Ijtimoiy barqarorlik — bu jamiyatdagi barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar, adolatli resurs taqsimoti, ijtimoiy himoya, salomatlik, ta‘lim va huquqiy ishonch kabi asosiy ijtimoiy tamoyillarning kafolatlanishini nazarda tutadi¹²⁰. Bu ustun inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish va jamiyatdagi zaif qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan.

¹¹⁹ **UNEP (2021).** *Making Peace with Nature*. United Nations Environment Programme. <https://www.unep.org/resources/making-peace-nature>.

¹²⁰ E. Gulyamov, I. Qurbonov (2019).

1.4.3-chizma

Ijtimoiy barqarorlik 5 ta asosiy yo‘nalishi mavjud¹²¹



Ekologik barqarorlikning tahlilidan so‘ng, endi ijtimoiy barqarorlikni tashkil etuvchi besh asosiy yo‘nalishning birinchisi — **aholi salomatligi va sog‘liqni saqlash tizimi** masalasiga e‘tibor qaratamiz. Bu yo‘nalish ijtimoiy farovonlik, mehnatga layoqatlilik va inson kapitalining barqaror shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Barqaror rivojlanishda sog‘lom jamiyat asosiy omillardan biridir. **Aholi salomatligi** nafaqat tibbiy ko‘rsatkichlar bilan, balki ijtimoiy infratuzilma, gigiyena, toza ichimlik suvi, ovqatlanish sifati va ekologik holat bilan ham chambarchas bog‘liq.

Sog‘liqni saqlash tizimi — bu fuqarolarga profilaktika, diagnostika, davolash va reabilitatsiya xizmatlarini taqdim etuvchi institutlar, resurslar va siyosatlarining kompleksidir. Barqaror sog‘liqni saqlash tizimi quyidagi mezonlar bilan tavsiflanadi:

- Sog‘liqni saqlash xizmatlariga universal kirish;
- Sifatli va malakali tibbiy kadrlar mavjudligi;
- Davlat tomonidan sog‘liqni moliyalashtirish darajasi;
- Yuqori darajadagi sanitariya va epidemiologik nazorat;
- Profilaktik sog‘lomashtirish dasturlarining mavjudligi.

¹²¹ Muallif ishlanmasi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG-3)da shunday deyiladi: *“Har bir insonning salomatligini ta’minlash va barcha yoshdagilar uchun farovon hayotni kafolatlash”*¹²². Shu bois, sog‘liqni saqlash tizimi ijtimoiy tenglik, gender adolati, va ijtimoiy zaif qatlamlarning himoyasi bilan ham chambarchas bog‘liq.

1.4.11-jadval

2024-yil: Sog‘liqni saqlash tizimi ko‘rsatkichlari (tanlangan davlatlar bo‘yicha)¹²³

Davlat	Tug‘ilishda kutilayotgan umr (yil)	Sog‘liqni saqlash xarajatlari (% YaIM)	Shifokorlar soni (1000 aholiga)
JP Yaponiya	84.6	10.9	2.5
CH Shveysariya	83.9	11.3	4.4
PT Portugaliya	81.2	9.5	4.9
US AQSH	76.1	16.6	2.6
EG Misr	75.0	5.0	0.8
UG Uganda	62.7	4.7	0.2
UZ O‘zbekiston	73.1	6.1	2.4

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlar (Norvegiya, Germaniya) sog‘liqni saqlash tizimiga yuqori miqdorda investitsiya yo‘naltirgan. Ularning tug‘ilishda kutilayotgan umr ko‘rsatkichi yuqori bo‘lib, bu holat yuqori sifatli tibbiy xizmatlar, sog‘lom turmush tarzining keng targ‘ib qilinishi, va ijtimoiy himoya mexanizmlarining rivojlanganligini anglatadi.

AQSH eng katta moliyalashtirishga ega bo‘lishiga qaramay, umr davomiyligi ko‘rsatkichi boshqa rivojlangan davlatlarga nisbatan pastroq, bu esa tizimdagi notekisliklar va sog‘liqdagi ijtimoiy tafovutlarga ishora qiladi¹²⁴.

Rivojlanayotgan davlatlar — Hindiston va Xitoyda sog‘liqni saqlash xarajatlari past bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkichlar izchil oshmoqda.

¹²² Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (2015). *Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)*. 3-maqsad: Sog‘liq va farovonlik. <https://sdgs.un.org/goals/goal3>.

¹²³ International Renewable Energy Agency (IRENA). *Renewable Power Generation Costs in 2023*. Abu-Dhabi: IRENA, 2024.

¹²⁴ Capra, Fritjof (1996).

O‘zbekiston sog‘liqni saqlash sohasiga nisbatan barqaror miqdorda mablag‘ ajratmoqda va shifokorlar soni ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan yuqoriroq¹²⁵.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlar (Norvegiya, Germaniya) sog‘liqni saqlash tizimiga yuqori miqdorda investitsiya yo‘naltirgan. Ularning tug‘ilishda kutilayotgan umr ko‘rsatkichi yuqori bo‘lib, bu holat yuqori sifatli tibbiy xizmatlar, sog‘lom turmush tarzining keng targ‘ib qilinishi, va ijtimoiy himoya mexanizmlarining rivojlanganligini anglatadi¹²⁶.

AQSH eng katta moliyalashtirishga ega bo‘lishiga qaramay, umr davomiyligi ko‘rsatkichi boshqa rivojlangan davlatlarga nisbatan pastroq, bu esa tizimdagi notekisliklar va sog‘liqdagi ijtimoiy tafovutlarga ishora qiladi¹²⁷.

Rivojlanayotgan davlatlar — Hindiston va Xitoyda sog‘liqni saqlash xarajatlari past bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkichlar izchil oshmoqda. O‘zbekiston sog‘liqni saqlash sohasiga nisbatan barqaror miqdorda mablag‘ ajratmoqda va shifokorlar soni ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan yuqoriroq.

Aholi salomatligi va sog‘liqni saqlash tizimi barqaror ijtimoiy taraqqiyotning asosiy shartlaridan biri bo‘lsa, ijtimoiy barqarorlikning navbatdagi muhim yo‘nalishi — **ta‘lim sifati va unga teng kirish imkoniyatidir**. Ushbu omil inson kapitalini shakllantirishda, ijtimoiy tenglikni ta‘minlashda va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda beqiyos ahamiyatga ega¹²⁸.

Ta‘lim — bu barqaror rivojlanishning ko‘zgusi. Har bir shaxsning bilim olishga teng huquqi bo‘lishi jamiyatdagi tenglik, ijtimoiy ko‘tarilish va innovatsion salohiyatning o‘rishini ta‘minlaydi. Ta‘lim tizimining sifati va uning umumiy aholi qatlamlariga ochiqligi ijtimoiy barqarorlikning mezonini hisoblanadi¹²⁹.

Barqaror ta‘lim tizimi quyidagi asosiy mezonlarga ega:

¹²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. (2024). *Yillik tahliliy hisobot*.

¹²⁶ <https://sdgs.un.org> – BMTning SDG portali: rasmiy ma‘lumotlar, indikatorlar va hisobotlar.

¹²⁷ World Health Organization (WHO). (2022). *World Health Statistics*.

¹²⁸ E. Gulyamov, I. Qurbonov (2019).

¹²⁹ UNDP Uzbekistan (2022).

- Boshlang‘ichdan oliy ta‘limgacha bo‘lgan bosqichlarning sifatli faoliyati;
- Jinsiy, mintaqaviy va ijtimoiy tafovutlarsiz ta‘limga kirish imkoniyati;
- Ta‘limda zamonaviy texnologiyalar va metodikalar qo‘llanilishi;
- Ustuvorlik sifatida kasb-hunar va hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish;
- Ta‘limga ajratilayotgan byudjet miqdori va o‘qituvchilar malakasi.

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlaridan SDG-4 (Sifatli ta‘lim)da shunday deyiladi: *“Insonlarning butun umr davomida sifatli ta‘lim olish imkoniyatini ta‘minlash va barchaga inklyuziv hamda adolatli ta‘limni taqdim etish.”*¹³⁰

1.4.12-jadval

Ayrim davlatlarda ta‘lim ko‘rsatkichlari (2024-yil)¹³¹

Davlat	Savodxonlik darajasi (%)	Ta‘limga ajratilgan mablag‘ (% YaIM)	O‘qituvchi boshiga o‘quvchilar soni
Finlyandiya	100%	6.5	11
Germaniya	99%	5.2	13
AQSH	99%	5.9	15
O‘zbekiston	99%	5.8	17
Hindiston	77%	3.1	30
Niger	41%	2.6	39

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, rivojlangan davlatlarda ta‘lim tizimi yuqori darajada moliyalashtiriladi va savodxonlik darajasi deyarli 100%ga yetadi¹³². Finlyandiya ta‘lim tizimi sifati bilan butun dunyoga mashhur bo‘lib, o‘qituvchi boshiga o‘quvchilar soni ham ancha kam — bu esa individual yondashuvni kuchaytiradi.

O‘zbekistonda savodxonlik darajasi yuqori bo‘lishiga qaramay, o‘qituvchi yuklamasi nisbatan yuqori va infratuzilma masalalarida hali

¹³⁰ United Nations. (2015). *Sustainable Development Goal 4*. <https://sdgs.un.org/goals/goal4>

¹³¹ UNEP Finance Initiative. *Global Guidance on Green Bonds: Impact Reporting*. Geneva: UNEP-FI, 2022.

¹³² OECD (2022). *Green Growth Indicators 2022*. Organisation for Economic Co-operation and Development. <https://www.oecd.org/greengrowth/green-growth-indicators-2022.pdf>

ham yechim talab etiladi. Ta'limga ajratilgan byudjet esa izchil oshmoqda¹³³.

Hindiston va Nigerda savodxonlik darajasi past, ayniqsa Nigerda bu ko'rsatkich jiddiy ijtimoiy muammolarni anglatadi. O'quvchilar sonining haddan tashqari ko'pligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sifatli va teng ta'lim tizimi — ijtimoiy barqarorlikning tayanch ustunlaridan biridir. Bilim olishga teng imkoniyatlar yaratish orqali jamiyatda ijtimoiy adolat, innovatsiyalar va inson salohiyati rivojlanadi. Davlatlar ta'lim sohasini strategik ustuvor yo'nalish sifatida belgilab, uzoq muddatli barqaror taraqqiyotga asos solishi zarur¹³⁴.

Sifatli ta'lim va sog'lom hayot sharoitlarini ta'minlash bilan bir qatorda, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda eng muhim omillardan biri — **ijtimoiy tenglik va adolat**dir. Bu yo'nalish jamiyatdagi barcha guruhlar uchun teng imkoniyatlar yaratishni, diskriminatsiyaga qarshi kurashni va ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy tenglik — bu jamiyatda har bir fuqaro jinsidan, etnik mansubligidan, nogironligidan, iqtisodiy ahvolidan yoki yashash joyidan qat'i nazar, bir xil huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishini bildiradi. Bu tushuncha nafaqat qonuniy tenglik, balki **amaliy hayotdagi adolatli sharoitlarni** ham o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy adolat quyidagi asosiy jihatlarni qamrab oladi:

- Jinsiy tenglik (ayollar va erkaklar o'rtasida);
- Iqtisodiy imkoniyatlarning tengligi;
- Kam ta'minlangan yoki marginal guruhlarining jamiyatga integratsiyasi;
- Nogironlar, migrantlar va boshqa ijtimoiy zaif qatlamlarga qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar.

BMTning SDG-10 (Tengsizliklarni kamaytirish) maqsadida ushbu yo'nalish bevosita ilgari surilgan.

¹³³ UNDP Uzbekistan (2022).

¹³⁴ UNDP Uzbekistan (2022).

¹³⁵ **Transparency International**. *Global Corruption Report 2023: Public Procurement*. Berlin: TI, 2023.

1.4.13-jadval

Ayrim davlatlarda ijtimoiy tenglik ko'rsatkichlari (2024-yil)¹³⁵

Davlat	Jinsiy tenglik indeksi (0–1)	Gini koeffitsienti (daromad tengsizligi)	Ayollar parlamentdagi ulushi (%)
Norvegiya	0.89	27.6	45.0
Shvetsiya	0.88	28.3	47.1
AQSH	0.76	41.5	29.1
O'zbekiston	0.75	33.5	32.0
Hindiston	0.68	37.8	14.4
Niger	0.58	44.1	11.0

Jinsiy tenglik, daromadlar taqsimoti va siyosiy ishtirok ko'rsatkichlari ijtimoiy adolat darajasini aniqlovchi asosiy indikatorlardir. Norvegiya va Shvetsiya yuqori tenglikka ega bo'lib, bu mamlakatlar aholining barcha qatlamlari uchun imkoniyatlarni teng taqdim etishga qaratilgan siyosat yuritayotganini ko'rsatadi.

AQSHda ayollar parlamentdagi ulushi o'rtacha bo'lsa-da, Gini koeffitsientining yuqoriligi ijtimoiy tenglikda muammolar borligini anglatadi.

O'zbekistonda bu yo'nalishda ijobiy harakatlar mavjud: ayollarning siyosiy ishtiroki oshgan, daromadlar taqsimoti esa nisbatan muvozanatda. Biroq gender tengligini yanada kuchaytirish, ayollarni iqtisodiy faoliyatga keng jalb etish hali ham dolzarb¹³⁶.

Hindiston va Nigerda esa tengsizlik ancha keskin. Bu ko'rsatkichlar aholining muayyan qismlari iqtisodiy va siyosiy hayotda to'liq ishtirok eta olmasligini anglatadi.

Ijtimoiy tenglik va adolat ijtimoiy barqarorlikning eng muhim mezonlaridan biridir. Tengsizlik va diskriminatsiyaning oldini olish orqali nafaqat ijtimoiy salomatlik, balki iqtisodiy samaradorlik ham oshadi. Davlatlar bu yo'nalishda faol siyosat yuritib, ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish orqali jamiyatda mustahkam barqarorlikka erishishlari mumkin.

¹³⁶ UNDP Uzbekistan (2022).

Ijtimoiy tenglik va adolat sharoitida barqaror jamiyat qurishning muhim sharti — har bir fuqaro uchun iqtisodiy jihatdan faol bo‘lish imkoniyatining yaratilishidir. Shu bois, ijtimoiy barqarorlikning navbatdagi asosiy yo‘nalishi — **bandlik va munosib mehnat sharoitlaridir**¹³⁷.

Barqaror jamiyatda har bir shaxs o‘z bilim va salohiyatidan samarali foydalanib, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda faol ishtirok eta olishi lozim. Bu esa bandlikning yuqori darajada bo‘lishi, ish o‘rinlarining barqarorligi, mehnat sharoitlarining inson salomatligiga va huquqlariga zid bo‘lmasligini taqozo etadi.

Munosib mehnat (decent work) konsepsiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Ish bilan ta’minlashda teng imkoniyatlar;
- Ish joyining xavfsizligi va barqarorligi;
- Mehnat huquqlarining himoyasi;
- Adolatli ish haqi;
- Mehnat migratsiyasida huquqiy muhofaza.

BMTning SDG-8 maqsadi aynan “Barqaror iqtisodiy o‘sish, to‘liq bandlik va munosib mehnat”ga qaratilgan bo‘lib, u global mehnat bozori muammolariga kompleks yondashuvni ilgari suradi¹³⁸.

1.4.14-jadval

2024-yil uchun bandlik va mehnat sharoitlari ko‘rsatkichlari¹³⁹

Davlat	Ishsizlik (%)	Norasmiy bandlik (%)	O‘rtacha ish haqi (USD)	Bandlik darajasi (%)
Germaniya	3.4	9.1	4200	77.2
AQSH	3.9	10.2	5100	74.6
Yaponiya	2.7	8.0	3900	79.5
Fransiya	6.9	12.4	3700	70.1
Braziliya	7.8	39.5	680	58.7
Meksika	4.5	55.2	750	61.3
Janubiy Koreya	3.0	15.3	3300	75.4

¹³⁷ Global Sustainable Development Report (GSDR) 2023.

¹³⁸ UNESCO (2021).

¹³⁹ UNEP Finance Initiative. *Global Guidance on Green Bonds: Impact Reporting*. Geneva: UNEP-FI, 2022.

Davlat	Ishsizlik (%)	Norasmiy bandlik (%)	O'rtacha ish haqi (USD)	Bandlik darajasi (%)
Janubiy Afrika	32.1	34.6	480	44.1
Hindiston	7.2	79.4	290	54.8
Indoneziya	5.1	76.3	320	60.2
O'zbekiston	8.3	48.7	350	56.9
Misr	9.8	63.5	300	53.4
Niger	16.5	91.0	75	39.7

Rivojlangan mamlakatlar (Germaniya, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya) da ishsizlik darajasi nisbatan past (2.7–4%) va bandlik darajasi yuqori (74–80%). Norasmiy bandlik ko'rsatkichi 10% dan past yoki atrofida bo'lib, mehnat munosabatlari qonuniy asosda, ijtimoiy himoyaga ega holda yuritiladi. Bu mamlakatlar yuqori ish haqi, ijtimoiy himoya va kasbiy malakani doimiy oshirish orqali mehnat bozorida barqarorlikni saqlab turishmoqda¹⁴⁰.

O'rta daromadli rivojlanayotgan mamlakatlar (Braziliya, Meksika, Janubiy Afrika, Hindiston, Indoneziya)da ishsizlik darajasi o'rtacha yoki yuqori (5–32%), lekin muhim muammo — **norasmiy bandlikning yuqoriligi**. Masalan, Hindistonda bu ko'rsatkich 79.4%, Indoneziyada 76.3%. Bu iqtisodiy beqarorlik, daromadlarning barqaror emasligi va mehnat huquqlari zaifligi bilan bog'liq.

Janubiy Afrikada mehnat bozorining tanazzul holati aniq ko'zga tashlanadi: ishsizlik 32.1%, bandlik atigi 44%. Bu ijtimoiy notinchlik va qashshoqlik xavfini kuchaytiradi.

¹⁴⁰ UNDP (2022).

Past daromadli mamlakatlar (O‘zbekiston, Misr, Niger) da norasmiy bandlik juda yuqori (48–91%) va ish haqi juda past. Bu esa ijtimoiy himoya tizimining zaifligi, iqtisodiy o‘shishning notekisligi, va qonuniy mehnat munosabatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligini ko‘rsatadi. Nigerda bandlik darajasi past (39.7%), bu aholining katta qismi iqtisodiy faol emasligini bildiradi¹⁴¹.

O‘zbekistonda mehnat bozorini rasmanlashtirish va ish haqlarini oshirish orqali barqarorlikni kuchaytirish bo‘yicha ijobiy qadamlar tashlanmoqda, ammo norasmiy sektor hamon yirik ulushni egallamoqda¹⁴².

Bandlik va mehnat sharoitlari ijtimoiy barqarorlik uchun asosiy strategik sohalardan biridir. Yuqori bandlik, mehnat huquqlarining kafolati va adolatli ish haqi jamiyatda iqtisodiy tenglikni ta‘minlaydi. Norasmiy sektorning keng tarqalganligi, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda, ijtimoiy himoya va barqarorlikka jiddiy tahdid soladi. Shu bois, siyosiy va institutsional darajada mehnat munosabatlarini qonuniylashtirish, kasbiy ta‘limni kuchaytirish, hamda ijtimoiy himoya tizimlarini takomillashtirish — muhim ustuvorliklar qatoriga kiradi.

Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim yo‘nalishlardan biri — **ijtimoiy xavfsizlik va himoya tizimlarining rivojlanishidir**. Bu yo‘nalish aholining ijtimoiy, iqtisodiy va sog‘liqni saqlashdagi ehtiyojlarini qondirish, nafaqa va ijtimoiy yordam tizimlarini takomillashtirish, shuningdek, turli ijtimoiy guruhlar, xususan, kam ta‘minlangan qatlamlarga ko‘mak berishni o‘z ichiga oladi¹⁴³.

Ijtimoiy xavfsizlik va ijtimoiy himoya tizimlari

Ijtimoiy xavfsizlik ijtimoiy himoya tizimlari orqali amalga oshirilad Ushbu tizimlar aholining barcha qatlamlari uchun quyidagilarni ta‘minlashni maqsad qiladi:

- **Sog‘liqni saqlash, ta‘lim va mehnat** kabi ijtimoiy xizmatlarning ko‘rsatilishi;

¹⁴¹ **UNSDG (2023)**. *The Sustainable Development Goals Report 2023*. United Nations Statistics Division. <https://unstats.un.org/sdgs/report/2023>

¹⁴² <https://www.undp.org> – UNDP hisobotlari, loyiha natijalari va tendensiyalar.

¹⁴³ <https://review.uz> – O‘zbekiston bo‘yicha iqtisodiy tahlillar, strategiyalar va SDG bajarilishi.

- Kam ta'minlanganlarga yordam berish (nafaqa, yordam pullari, ijtimoiy sug'urta);
- Tabiiy ofatlar, iqtisodiy inqiroz yoki pandemiyalar kabi ijtimoiy xavf-xatarlar oldida himoya.

BMTning SDG-1 va SDG-3 maqsadlari aynan “Kambag‘allikni yo‘qotish” va “Sog‘lom hayot kechirish”ni ta'minlashga qaratilgan. Bu yo‘nalish davlatlarning ijtimoiy siyosatiga katta ahamiyat berishga undaydi.

1.4.15-jadval

Ayrim davlatlarda ijtimoiy himoya tizimlari va nafaqa darajasi (2024-yil)¹⁴⁴

Davlat	Ijtimoiy himoya xarajatlari (% Yalpi ichki mahsulotdan)	Pensiya tizimi ishtirokchilarining soni (%)	Ijtimoiy yordam oluvchilar (%)	O‘rtacha nafaqa miqdori (USD)
Germaniya	25.3	40.1	30.0	2000
AQSH	18.4	24.5	16.5	1200
Fransiya	31.2	53.0	35.2	1800
Braziliya	13.7	20.8	23.1	500
O‘zbekiston	5.5	12.4	22.3	150
Hindiston	2.8	8.6	19.7	120
Niger	0.5	3.2	9.6	50

Ijtimoiy himoya tizimlari davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. Germaniya va Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy himoya tizimlariga katta mablag‘ ajratmoqda, bu esa aholining katta qismini pensiya va ijtimoiy yordam tizimlariga qamrab olganligini ‘rsatadi. O‘rtacha nafaqa miqdori ham yuqori, bu fuqarolarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi¹⁴⁵.

AQSHda ijtimoiy yordam tizimi mavjud bo‘lsa-da, uning ko‘lamiga qaraganda Fransiya va Germaniyaga nisbatan past. Biroq,

¹⁴⁴ North, D. C. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press, 1990.

¹⁴⁵ <https://www.worldbank.org> – Jahon bankining barqaror iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha tahlillari.

AQSHda ijtimoiy himoya tizimi faqatgina muayyan qatlamlar uchun mavjud bo‘lib, nafaqa olish imkoniyatlari ham cheklangan¹⁴⁶.

O‘zbekiston va Hindiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy himoya tizimi va pensiya ishtirokchilarining soni nisbatan past. Bu mamlakatlarda ijtimoiy himoya tizimlarining rivojlanishi talab qilinadi. O‘zbekistonning ijtimoiy himoya xarajatlari Yalpi ichki mahsulotga nisbatan kamroq, shuning uchun tizimning samaradorligi ham sezilarli darajada past.

Nigerda esa ijtimoiy himoya tizimi juda cheklangan va resurslar kam. Ijtimoiy xavfsizlikka ajratilgan mablag‘larning pastligi ijtimoiy qatlamlarning beqarorligini yanada oshiradi¹⁴⁷.

Ijtimoiy xavfsizlik va ijtimoiy himoya tizimlari ijtimoiy barqarorlikning muhim poydevoridir. Rivojlangan mamlakatlarda tizimlarning mustahkamligi fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qilsa, rivojlanayotgan davlatlarda ijtimoiy himoya tizimlarining kengaytirilishi zarur. Ijtimoiy yordam va nafaqalar yordamida jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni saqlash, kambag‘allikni kamaytirish va iqtisodiy inqirozlar oldida himoya qilish uchun davlatlar ijtimoiy siyosatni mustahkamlashlari kerak.

Uch ustun – bitta strategik maqsad

Barqaror rivojlanishning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ustunlari birgalikda global muammolarga kompleks yechim taklif etadi. Ular o‘zaro mustahkam aloqada harakat qilsa, chinakam barqarorlik va farovonlikka erishish mumkin bo‘ladi. Masalan, iqtisodiy o‘shish ekologik ifloslanish evaziga bo‘lsa, bu barqaror bo‘la olmaydi. Yoki ekologik muhofaza ijtimoiy ehtiyojlarni e‘tiborsiz qoldirsa, bu ham muvaffaqiyatsiz model bo‘ladi. Shu bois, zamonaviy siyosat va iqtisodiy strategiyalar bu uch ustun o‘rtasidagi muvozanatga tayanishi zarur¹⁴⁸.

Barqaror rivojlanish insoniyatning kelajak taqdiri uchun universal va majburiy yondashuvdir. Uning uch asosiy ustuni — ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik — birgalikda uyg‘unlikda mavjud

¹⁴⁶ IEA (2024). *World Energy Outlook 2024*. International Energy Agency.

<https://www.iea.org/reports/world-energy-outlook-2024>

¹⁴⁷ Dobson, Andrew (2007).

¹⁴⁸ <https://sdgs.un.org> – BMTning SDG portali: rasmiy ma‘lumotlar, indikatorlar va hisobotlar.

bo‘lgan taqdirdagina bu konsepsiyaning mohiyati ro‘yobga chiqadi. Har bir ustun o‘zining murakkablik darajasi, siyosiy va iqtisodiy vositalari, hamda ijtimoiy oqibatlarini bilan ajralib turadi. Ammo ular bir-birini to‘ldirib, o‘zaro integratsiyalashgan holda barqaror kelajak sari yo‘l ochadi.

Nazariy savollar — javoblari bilan

1. Nima uchun “yashil invest klasteri”ni institutsional mustahkamlash bilan bir vaqtda joriy etish muhim?
2. Karbon boji “domino” zanjirida qanday katalitik rol o‘ynaydi?
3. Savol: Smart-grid tarmoqlari yashil klaster KPI-lariga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
4. SDG’lar “bir-butun to‘r” deyishimizga sabab nima?
5. Nega SDG 17 (“Hamkorlik”) alohida maqsad sifatida ajratilgan?
6. SDG’larda ‘universal, inclusive, leave no one behind’ prinsipi qanday riskni kamaytiradi?
7. Markandya & Hallegatte (2012) modelida “bozor instrumentlari fazasi” ning markaziy iqtisodiy tamoyili nima?
8. “Yashil stimulus” bosqichini an’anaviy antitsiklik fiskal siyosatdan nima ajratib turadi?
9. 5-bosqich (“strukturaviy transformatsiya”)da ESG-hisobot standartlari qanday moliyaviy xatarlarni oshkor etishga xizmat qiladi?
10. Barqaror rivojlanish (2-bosqich) kontsepsiyasi qanday uchta integratsiyalashgan o‘lchovga tayangan?

Javoblar

1. Javob: Chunki ekoinvestitsiya oqimi faqat shaffof, barqaror va kam-xavfli muhitda barqaror saqlanadi; mustahkam institutlar (sud, regulyator, ochiq data, fiskal intizom) investor xavfini kamaytirib, “yashil” loyihalarning uzoq muddatli rentabelligini kafolatlaydi.
2. Javob: Karbon boji an’anaviy, yuqori-emissiyali ishlab chiqarishning haqiqiy xarajatini ko‘rsatadi, shu bilan ularning

- rentabelligini pasaytiradi va kapitalni qayta tiklanuvchi energetikaga qayta yo'naltiradi.
3. *Javob:* Tarmoq yo'qotishlarini kamaytirib va real-vaqt balansini boshqarib, smart-grid qayta tiklanuvchi quvvat ulushini xavfsiz oshiradi hamda CO₂/GDP ko'rsatkichini pasaytiradi.
 4. *Javob:* Har bir maqsad (masalan, oziq-ovqat xavfsizligi) boshqalarga (masalan, #3 sog'liq) to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi; bitta tugunni tortsang, butun sistema siljiydi.
 5. *Javob:* 169 ta sub-targetni davlat, xususiy sektor va jamiyat o'zaro koordinatsiyasiz bajarib bo'lmaydi; #17 — bu qolgan 16 talabni moliya, texnologiya va bilim almashuvi orqali “quvvatlovchi transformator”.
 6. *Javob:* Ijtimoiy-iqtisodiy chetlatilgan guruhlarini erta integratsiya qilish — siyosiy notinchlik va bozor uzilishlari (supply-chain shock) xavfini pasaytiradi; bu reputatsion va operatsion risk-hedge.
 7. *Javob:* Tashqi ekologik xarajatlarni narxga ichkilashtirish (“ifloslantiruvchi to'laydi”) orqali investitsiya oqimini qayta yo'naltirish.
 8. *Javob:* Xarajatlar infratuzilma va texnologiyalarda iqlim-barqaror aktivlarga yo'naltiriladi, shu bilan bir vaqtning o'zida CO₂ emissiyasini kamaytirish dual maqsadi ko'zlanadi.
 9. *Javob:* Karbon aktivlari qadrsizlanishi, iqlim siyosati tufayli daromad pasayishi (transition risk) va jismoniy iqlim xatarlari (physical risk).
 10. *Javob:* Iqtisodiy farovonlik, ekologik barqarorlik, ijtimoiy adolat (people–planet–profit).

Test savollari

1. Doing Business reytingida **20 pog'ona** ko'tarilish asosan qaysi chora natijasi?
A) Karbon boji

- B) Ochiq ma'lumot portali + "one-stop" litsenziyalash**
 C) EV zaryad stansiyalari
2. KPI-larga ko'ra **CO22 emissiyasi/GDP** ko'rsatkichini eng ko'p pasaytiruvchi omil nima?
 A) Ta'lim grantlari
B) Green-bond bozori
 C) Fiskal defitsitni 3 % dan past saqlash
3. "Green-job"lar sonining **+100 ming** ga yetishi uchun birinchi navbatda kerak bo'lgan investitsiya turi?
 A) Progressiv soliqlar
B) Quyosh va shamol loyihalariga grant + soliq imtiyozlari
 C) AI-monitoring tizimi
4. **Qaysi SDG iqlim o'zgarishiga moslashuvni bevosita ko'zlaydi?**
 a) 6 Suv va sanitariya
b) 13 Iqlimga qarshi choralar
 c) 14 Suv osti hayoti
 d) 9 Sanoat va innovatsiya
5. "**Responsible CO2 consumption & production**" (SDG #12) asosiy **KPI'si qaysi tavsifga eng mos?**
 a) Ishsizlik darajasi
 b) CO22 emissiyasi per capita
c) Material foot-print per unit GDP
 d) Chekka hududlarda internet qamrovi
6. **Korxonada o'z ESG hisobotida faqat gender tengligi ko'rsatkichlarini oshirishga urg'u berilgan. Bu qaysi tamoyilni buzishi mumkin?**
 a) Materiality
b) Balans va o'zaro bog'liqlik
 c) Additionality
 d) Net-zero alignment
7. *Kioto protokoli qaysi bosqichga tegishli?*
A. Ogohlantirish
 B. Yashil stimulus

- C. Strukturaviy transformatsiya
D. Post-CO2VID
8. *“Feed-in tariff”* sxemasi qanday maqsadga xizmat qiladi?
A. CO₂ ga chegara solig‘i joriy etish
B. Qayta tiklanuvchi energiya uchun kafolatli narx berish
C. Karbon kvotasi sotib olish
D. Energiya iste‘molini subsidiyalash
9. ESG obligatsiyaning asosiy farqi nimada?
A. Kupon foizining past bo‘lishida
B. Emitent riskining yo‘qligida
C. Mablag‘lar ekologik yoki ijtimoiy maqsadga mo‘ljallanishida
D. Faqat davlatlar chiqarishida
10. *“Just transition”* konsepsiyasi qaysi asosiy savolga javob izlaydi?
A. Iqlim o‘zgarishining fizik modeli
B. Karbon narxi optimal darajasi
C. Dekarbonizatsiya xarajatlari ijtimoiy taqsimoti
D. Markaziy banklar likvidlik siyosati

Case study

1-Case Study (vaziyat + savollar + kalit)

Vaziyat:

2024-yilda O‘zbekiston “Yashil obligatsiyalar nizomi”ni tasdiqladi va 500 mln AQSh dollari miqdorida 10 yillik yashil bond emissiyasi rejalashtirdi. Mablag‘lar quyidagicha taqsimlanadi: 45 % — quyosh-shamol elektr stansiyalari, 30 % — energetik samaradorlik dasturlari, 15 % — suv infratuzilmasini modernizatsiya qilish, 10 % — chiqindini gazga aylantirish loyihasi. Hukumat 2030-yilgacha YaIM karbon intensivligini 35 % ga kamaytirishni maqsad qildi.

Savollar:

1. Emissiya qaysi evolyutsion bosqichning tipik instrumenti? Izoh bering.
2. Taqsimotga qarab, eng katta iqlim ta'siri potentsiali qaysi yo'nalishdan kutiladi? Nega?
3. "Just transition" nuqtai nazaridan ushbu obligatsiya dasturiga qanday ijtimoiy indikativ ko'rsatkich qo'shishni tavsiya etasiz?
4. Karbon intensivlik maqsadi bajarilmasa, investor tavakkalchiligini kamaytirish uchun hukumat qanday mexanizmni kiritishi mumkin?

Javob kaliti (konspekt):

1. **5-bosqich** (strukturaviy transformatsiya) — kapital bozorlari orqali yashil obligatsiya chiqarish bilan xususiy resurs safarbar etiladi.
2. 45 % ulushli **quyosh-shamol** segmenti CO2₂ emissiyasini to'g'ridan-to'g'ri kamaytiradi, shuningdek elektr sektorining "brown" yoqilg'iga bog'liqligini pasaytirishga eng katta hissa qo'shadi.
3. Tavsiya: **Ish o'rinlarining hududiy taqsimoti va energiyaga sarflanadigan uy xo'jalik byudjeti ulushi** ko'rsatkichlarini KPI sifatida kiritish (past daromadli viloyatlarda subsidiyalangan tarif).
4. **Kredit-garantiya sxemasi yoki "step-up/step-down" kupon mexanizmi**: maqsad bajarilmasa – kupon foizi +50 bp ko'tariladi, bajarilsa – 25 bp pasayadi; bu investorni himoya qiladi va hukumatga bosim bo'ladi.

2-Case study + yechim (mini)

Vaziyat:

"Oltin Yulduz Tekstil" AJ paxta-ip gazlamalarini ishlab chiqaradi. Kompaniya 2030 yilgacha SDG integratsiyasi bo'yicha reja so'raydi. Hozir:

- Suv sarfi yuqori.
- Ishchilarning 40 % ayollar, ammo rahbariyatda atigi 5 %.
- Energiya manbai: 90 % an'anaviy gaz.
- Eksport bozorida Yevropa xaridorlari qat'iy ESG talab qilmoqda.

Savol: Qaysi 3 ta SDG'ni "high-impact focus" qilib tanlab, har biri bo'yicha bitta o'Ichnanadigan pilotsiya taklif qiling.

Yechim (model-javob):

1. 6-maqsad. Toza ichimlik suvi va sanitariya

- *Pilot:* "Closed-loop" suv qayta aylantirish tizimini joriy etib, paxta yuvish bosqichida suv sarfini 30 % ga qisqartirish.
- *Metric:* m³ suv / tonna mahsulot (baseline → 12 oyda -30 %).

2. 5-maqsad. Gender tengligi

- *Pilot:* Rahbarlik zaxirasida "Women in TechTex" dasturi, o'qish-mentoring + kvotali tayinlov; 3 yil ichida mid-managementda ayollar ulushi 5 %→20 %.
- *Metric:* Ayol menejerlar ulushi (%).

3. 7-maqsad. Arzon va toza energiya (13 sinergiya)

- *Pilot:* Tom yopmasiga 2 MW quyosh paneli va issiqlik rekuperatsiyasi.
- *Metric:* Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%), CO₂ tonna / yil kamayishi.

Natija rationale: Ushbu trio suv-og'ir tekstil sektorida materialityga 100 % mos keladi, Yevropa xaridorining "hot button"larini (suv, iqlim, gender) yopadi va #17 doirasida texnologik hamkorlik eshiklarini ochadi.

3-Case-study: "Solar Lake Project"

Vaziyat:

2026-yilda "Solar Lake" nomli 600 MW quvvatli quyosh klasteri \$450 mln green-bond chiqarmoqchi. Hukumat grant (30 %) va 8-yil soliq imtiyoz beradi. Loyihaga qarshi tomonlar "korrupsiya riski yuqori, fiskal defitsit kengayadi" deb xavotir bildirmoqda.

Topshiriqlar:

1. Investor xavfini kamaytirish uchun qanday institutsional choralar taklif qilasiz?
2. Karbon boji va fiskal qoida bu loyihaga qanday moliyaviy ta'sir ko'rsatadi?
3. KPI sifatida uch yillik muddatda ikki raqamli ko'rsatkichni aniqlang.

Yechim (javoblar):

1.
 - a. Ochiq ma'lumot portalida tender va pul oqimini real-vaqt ko'rsatish;
 - b. Mustaqil sud va AI-monitoringni tender nazoratiga jalb etish;
 - c. "One-stop" raqamli litsenziya platformasi bilan byurokratiyani qisqartirish.
2. Karbon boji ko'tarilgani sari (masalan, \$40 / t) an'anaviy elektr stansiyalari qimmatlashadi, "Solar Lake"ning LCO2E nisbatan tushib, obligatsiya rentabelligi oshadi. Fiskal qoida grant o'lchamini budget defitsiti 3 % chegarasida ushlab turadi, shu bilan fiskal barqarorlikni himoya qiladi.
3. KPI: (a) Qayta tiklanuvchi quvvat ulushi 18 % → **25 %** (3 yil); (b) CO₂ /GDP intensivligi **-12 %**.

II-BOB. Yashil iqtisodiyotga o'tish zarurati va bu borada rivojlangan mamlakatlar tajribasi

2.1. An'anaviy rivojlanish yondashuvlari va uning cheklolari.

Bugungi globallashuv davrida rivojlanish masalasi har bir mamlakat kun tartibida turadi. Ammo "qanday rivojlanish?" degan savol har doim ham o'ziga xos, oson javobga ega emas. Rivojlanish deganda ko'pchilik hali-hanuz sanoatlashuv, bozor islohotlari, eksport va investitsiyalarni tushunadi. Bularning barchasi — **an'anaviy rivojlanish yondashuvlari** deb ataluvchi metodlar to'plamidir.

Bu yondashuvlar 20-asrda, ayniqsa Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda keng ommalashdi. Rivojlangan G'arb davlatlari tajribasi asos qilib olinib, boshqa mamlakatlarga ham shunga o'xshash yo'l tavsiya qilindi. Uzoq yillar davomida bu model "rivojlanishning yagona yo'li" sifatida targ'ib qilindi¹⁴⁹. Ammo vaqt o'tishi bilan bu yondashuvlar har doim ham muvaffaqiyat olib kelmasligi, ayrim hollarda esa muammolarni yanada chuqurlashtirishi ayon bo'ldi.

Chunki tarixiy tajriba shuni ko'rsatdiki, har qanday rivojlanish modeli universallik da'vosi bilan chiqqanida, u ko'pincha mahalliy sharoitni, madaniyatni, ekologiyani, va ijtimoiy tuzilmani e'tiborsiz qoldiradi. Natijada esa, qog'ozdagi o'sish bor, hayotdagi yuksalish — yo'q.

Bu mavzuni o'rganish bizga quyidagilarga imkon beradi:

- Rivojlanishning klassik modellari qanday ishlashini tushunish;
- Ularning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish;
- Zamonaviy ehtiyojlarga mos, mahalliy kontekstga asoslangan muqobil yondashuvlar haqida fikr yuritish.

Shunday ekan, biz endi an'anaviy rivojlanish yondashuvlarini chuqurroq ko'rib chiqamiz va ularning cheklovlarini ochib beramiz. Bu nafaqat nazariy bilim, balki amaliy qarorlar qabul qilishda ham asos bo'la oladi.

2.1.1-jadval

An'anaviy rivojlanish yondashuvlari jadvali¹⁵⁰

Yondashuv nomi	Asosiy xususiyatlari	Asosiy tanqidlar / Cheklovlar
Modernizatsiya nazariyasi	G'arb yo'li bo'yicha bosqichma-bosqich rivojlanish: qishloq → sanoat → xizmat ko'rsatish	Tarixiy, madaniy farqlarni e'tiborsiz qoldiradi; G'arb modelini universalashtiradi
Sanoatlashtirish yondashuvi	Og'ir sanoat va infratuzilmaga sarmoya; ishlab chiqarishni kengaytirish	Ekologiyani e'tiborsiz qoldiradi; qishloq joylar va aholini e'tibordan chetda qoldiradi
Bozor islohotlari	Xususiyashtirish, erkin savdo, davlat aralashuvini kamaytirish	Ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi; mahalliy sanoatni zaiflashtirishi

¹⁴⁹ Todaro, M. P., & Smith, S. C. (2011). *Economic Development* (11th ed.). Pearson Education.

¹⁵⁰ Rostow, W. W. *The Stages of Economic Growth: A Non-Communist Manifesto*. Cambridge University Press, 1960.

Yondashuv nomi	Asosiy xususiyatlari	Asosiy tanqidlar / Cheklovlar
		mumkin
Eksportga yo'naltirilgan strategiya	Mahsulot ishlab chiqarib chet elga sotish orqali valuta tushumini oshirish	Mahalliy ehtiyojlardan uzoqlashadi; tashqi bozorga qaramlikni kuchaytiradi
Tashqi investitsiyalarga tayanuvchi model	Chet eldan sarmoya jalb qilish orqali tez o'sish	Tashqi qarz ortadi; iqtisodiy mustaqillikka xavf tug'diradi

An'anaviy rivojlanish yondashuvlari: Tuzilishi mustahkam, ammo ruhsiz bino singari

An'anaviy rivojlanish yondashuvlari o'z vaqtida muhim rol o'ynagan, hatto ba'zilarining yutuqlari tarixda porlab qolgan. Ammo ular — endi eskirgan kostyumdek — zamonaviy ehtiyojlarga mos kelmay qolgan. Har bir yondashuvning ichki logikasini va uning hayotdagi real aks-sadosini tahlil qilib chiqaylik.

1.Modernizatsiya nazariyasi¹⁵¹

Bu yondashuvning ildizi G'arb tajribasiga borib taqaladi. G'oya oddiy: har bir jamiyat rivojlanishning klassik yo'lini bosib o'tishi kerak — ya'ni qishloq xo'jaligidan sanoatga, undan esa xizmatlar sektoriga. Ammo bu model **yagona haqiqat** sifatida taqdim etilishi jiddiy savollarni tug'diradi. Har bir jamiyatning o'z tarixi, qadriyatlari bor. Shu sababli bu nazariya ko'pincha **mahalliy kontekstni e'tiborsiz qoldirgan holda**, "import qilingan" tizimlar yaratishga urinadi. Natijada, ko'pincha ildizi yo'q, yuza sivilizatsiya hosil bo'ladi.

2.Sanoatlashtirish yondashuvi¹⁵²

Sanoat — bu rivojlanish ramzi, ammo u **yaxshi boshqaruvsiz** — axlatxonaga aylanishi mumkin. Bu model ishlab chiqarishning jadallashuviga, infratuzilmaning kengayishiga sabab bo'ladi. Ammo u bilan birga ekologik muammolar, resurslarning haddan tashqari ekspluatatsiyasi va qishloq joylarning chetda qolishi ham keladi. Bu yondashuvni "yig'ishtiradigan" mexanizmlar bo'lmasa, u faqat shaharlarni boyitib, chekka hududlarni yana ham ortda qoldiradi.

¹⁵¹Escobar, A. (1995). *Encountering Development: The Making and Unmaking of the Third World*. Princeton University Press.

¹⁵² Prebisch, R. (1950). *The Economic Development of Latin America and Its Principal Problems*.

3. Bozor islohotlari¹⁵³

“Bozor barchasini tartibga soladi” degan shior ko‘p eshitilgan. Bozor islohotlari orqali xususiy sektor faollashadi, raqobat kuchayadi, lekin nazoratsiz bozor — bu **kuchlilar uchun maydon**, zaiflar uchun esa tuzoqdir. Ijtimoiy tengsizlik keskin ortadi, aholining muhim qatlamlari bozorning o‘zgaruvchan tabiati qarshisida ojiz qoladi. Natijada jamiyatning faqat ma’lum bir qatlami foyda ko‘radi, qolganlar esa ijtimoiy xavf ostida qoladi.

4. Eksportga yo‘naltirilgan strategiya¹⁵⁴

Chet el bozorlariga kirish — valyuta oqimi, texnologiya transferi, ishlab chiqarishni kengaytirish. Bularning bari yaxshi. Lekin bu yo‘lning soyasida bir haqiqat bor: **ichki ehtiyojlar, mahalliy aholining real hayoti** — bu modelda orqa fonda qoladi. Butun e’tibor eksportga qaratilgan bo‘lsa, milliy oziq-ovqat xavfsizligi, ichki iqtisodiyot mustahkamligi zaiflashadi. Qisqacha aytganda, **tashqi bozorlarga bog‘lanish — iqtisodiy tavakkalni oshiradi.**

5. Tashqi investitsiyalarga tayanuvchi model¹⁵⁵

Sarmoya — kerak. Innovatsiya — shart. Ammo bu modelda muammo bor: agar investitsiya mahalliy manfaatni emas, **faqat xorijiy kapitalning foydasini ko‘zlasa**, u holda biz o‘z iqtisodiy mustaqilligimizni yo‘qotamiz. Davlat asta-sekin o‘z erkinligini moliyaviy qarzarlar ostida topshirib qo‘yadi. Bu — **zamonaviy mustamlakachilikning yumshoq shakli** desak ham bo‘ladi.

Xulosa: Eski yo‘ldan yurib, yangi manzilga borib bo‘lmaydi

An’anaviy rivojlanish yondashuvlari — strukturaviy jihatdan kuchli, lekin ruhsizlikdan aziyat chekadi. Ular natijaga qaratilgan, lekin yo‘lning o‘zi — odamlar, jamiyat, tabiat haqida unchalik o‘ylamaydi. Ular o‘tmishdagi sharoitda ishlagan, lekin bugungi kun — murakkab, o‘zgaruvchan va bir yoqlama qarashlarni qabul qilmaydigan dunyo.

2.2. Yashil iqtisodiyotga o‘tish zarurati va tamoyillari

Insoniyat bugun uch asosiy bosim ostida: **iqlim changallari**,

¹⁵³ Stiglitz, J. E. (2002). *Globalization and Its Discontents*. W. W. Norton & Company.

¹⁵⁴ Rodrik, D. (2001). *The Global Governance of Trade as if Development Really Mattered*. UNDP.

¹⁵⁵ Chang, H. J. (2003). *Kicking Away the Ladder: Development Strategy in Historical Perspective*. Anthem Press.

resurs tanqisligi va geosiyosiy energiya havfsizligi. Havodagi CO₂ 423 ppm pog‘onasini bosib, bo‘ron-sel va o‘rmon yong‘inlarini yozning “majburiy repertuari”ga aylantirdi¹⁵⁶ — falokatlar yiliga qariyb 300 mlrd dollarlik zarar keltiradi¹⁵⁷. Shu fonda Parij bitimi, Yevroititfoqning karbon bojlari (CBAM) va korporativ ESG-hisobot talablari iflos biznesni qimmat, toza texnologiyani arzon qilib qo‘ydi: 2024-yilda yashil obligatsiyalar bozori 1,6 trln dollarga yetdi¹⁵⁸, quyosh va shamol elektrining o‘rtacha narxi esa neft-gazdan pastga tushdi. Investor pulining qayerga ketayotgani aniq — kapital “yashil”ga ovoz bermoqda.

Texnika tejamkorlash jarayoni bu burilishni jadallashtirdi: fotovoltaikaning ishlab-chiqarish qiymati so‘nggi o‘n yilda 89 foiz, shamol turbinalarini 70 foiz arzonlashdi¹⁵⁹; litiy-ion batareyalari 100 \$/kVt·soat chegarasidan past¹⁶⁰, aqlli tarmoqlar elektrda 15–25 foiz isrofn kesib tashlaydi¹⁶¹. Geopolitik reallik ham shu yo‘lga undaydi: 2022-yilgi gaz inqirozi Yevropaga importga haddan oshiq tayanish qanchalik zaif poydevor ekanini ko‘rsatdi, shundan beri blok mahalliy quyosh-shamol ulushini 18 foizga ko‘tardi va tarif beqarorligini yarmiga kamaytirdi¹⁶².

Yashil iqtisodiyot shu tariqa bir nechta tugunli muammoni bitta to‘plam yechimga bog‘laydi. Dekarbonizatsiya va tayyor o‘rmon-biochar yutkichlari iqlim xavfini yumshatadi; distribyutilgan “toza” quvvat, energiya saqlash va demand-response tariflarni barqaror qiladi va importga qaramlikni qisqartiradi; qayta ishlash va aylanish modeli xomashyo defitsitini kamaytiradi; nol-emissiya transport va ko‘mirdan bosqichma-bosqich chiqish havo sifatini yaxshilab, sog‘liq xarajatlarini tushiradi; yashil infratuzilma va re-skilling esa millionlab yangi ish o‘rni

¹⁵⁶ IEA (2024). *World Energy Outlook*; IPCC (2023). *AR6 Synthesis Report*; WEF (2024). *Global Risks Report*.

¹⁵⁷ NOAA (National Oceanic and Atmospheric Administration). (2024). *Global Monitoring Laboratory - Carbon Cycle Greenhouse Gases*. <https://gml.noaa.gov/ccgg/>

¹⁵⁸ World Economic Forum (WEF). (2024). *Global Risks Report 2024: ESG Metrics and Capital Flow*. Geneva: WEF.

¹⁵⁹ World Economic Forum (WEF). (2024). *Global Risks Report 2024: ESG Metrics and Capital Flow*. Geneva: WEF.

¹⁶⁰ European Commission – REPowerEU. (2023). *EU Energy Security and Renewable Expansion*. Brussels: European Union Publications Office.

¹⁶¹ IRENA (International Renewable Energy Agency). (2023). *Renewable Power Generation Costs in 2022*. Abu Dhabi: IRENA.

¹⁶² International Renewable Energy Agency (IRENA) — <https://www.irena.org>

yaratadi. Buning ustiga ESG-xolis moliya riskni diversifikatsiya qiladi, “qizil” aktivlarga esa **“brown disCO2unt”** bosimini kuchaytiradi¹⁶³.

Yashil iqtisodiyot—iqtisodiy barqarorlik, energetik suverenitet va iqlim xavfsizligining **yagona pragmatik yo‘li**. Bugun “yashil reja”ga sarmoya kiritmagan aktor, ertasiga bozordan chiqish rejasini tuzishiga to‘g‘ri keladi. Shu sababli ham hozirgi kunda ko‘plab mamlakatlar yashil iqtisodiyotga o‘tmoqda¹⁶⁴.

Bundan tashqari yashil iqtisodiyot ko‘plab global muammolarga yechim bo‘la oladi.

2.2.1-jadval

Muammolar¹⁶⁵

Muammo	Yashil yechim	Natija (oddiy so‘z bilan)
Iqlim o‘zgarishi	Kamroq CO2, ko‘proq o‘rmon	Ob-havo haddan oshib ketmaydi
Qimmat va beqaror yoqilg‘i	Quyosh, shamol, batareya, aqlli tarmoq	Ejektiv arzon va barqaror
Xomashyo defitsiti, chiqindi	Qayta ishlash, aylanish (recycling)	“Olib-tashla” o‘rniga “olib-aylantir”
Smog, sog‘liq xarajati	Nol-emissiya transport, ko‘mirdan chiqish	Toza havu, kamroq kasallik
Ishsizlik	Yashil infratuzilma va servis	Millionlab yangi ish o‘rni
Investitsiya riski	ESG-hisobot, yashil obligatsiya	Sarmoya barqaror, risk kamayadi

Bugungi kunning eng og‘riqli oltita masalasi – iqlim xavfi, energiya beqarorligi, xomashyo tanqisligi, smog, ishsizlik va sarmoya xatarlari – bir-biridan mustaqil ko‘rinadi. Yashil iqtisodiyot ularni bitta “ko‘prik” orqali bog‘lab, har bir muammoni negizidan yengillashtiradi.

Butun dunyo mamlakatlari yuzlashayotgan global muammolardan biri ekologiyaning buzulishidir. **Sanoat rivojlangani sari ekologiyaga kelayotgan zararlar ko‘paymoqda**. Dekarbonizatsiya va o‘rmonlarni kengaytirish atmosferaga “ko‘tarma” bosimni pasaytiradi. CO2oqimi

¹⁶³ IRENA (International Renewable Energy Agency). (2023). *Renewable Power Generation Costs in 2022*. Abu Dhabi: IRENA.

¹⁶⁴ NOAA (National Oceanic and Atmospheric Administration). (2024). *Global Monitoring Laboratory - Carbon Cycle Greenhouse Gases*. <https://gml.noaa.gov/ccgg/>

¹⁶⁵ Parij bitimi (UNFCCC, 12.12.2015; O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan 2021 y.).

sekinlashgani sari ekstremal qor-sel va qurg‘oqchilik kamroq uchraydi, ob-havo “haddan oshmay” turadi¹⁶⁶.

1. **Energiya narxi qimmat va o‘zgaruvchan.**

Mahalliy quyosh, shamol va batareya parklarining aqlli tarmoqqa ulangan ekotizimi importga tayanchni keskin qisqartiradi. Natija: tok zanjiri bozor tebranishiga bog‘lanmaydi – elektr barqaror, hamyonbop bo‘ladi¹⁶⁷.

2. **Xomashyo defitsiti va chiqindi bosimi.**

“Olib-aylantir” (recycling) modeli materialni zanjirga qaytarib, “olib-tashla” odatini yo‘qqa chiqaradi. Shu tariqa poligonlar bo‘shab, resurs importiga sarflanadigan valuta ichki iqtisodda qoladi¹⁶⁸.

3. **Smog va sog‘liq xarajatlari.**

Nol-emissiya transport va ko‘mirdan chiqish havodan PM_{2.5} va NO_x ni “yuvib tashlaydi”. Shahar aholisi toza havo yutadi, astma va yurak-qon kasalliklari kamayib, sog‘liq uchun xarajatlar milliardlab so‘m tejaydi¹⁶⁹.

4. **Ishsizlik.**

Yashil infratuzilma qurilishi va servis xo‘jaligi – montajchidan ma‘lumot tahlilchisigacha – butunlay yangi “yashil kasblar”ni yaratadi. Har bir quyosh panellari maydoni yoki chiqindi saralash klasteri – o‘nlab barqaror ish o‘rinlari demak¹⁷⁰.

5. **Investitsiya riski.**

ESG-hisobot va yashil obligatsiyalar moliya sektoriga aniq ko‘rinish beradi: toza loyiha – past foiz, iflos loyiha – yuqori risk.

¹⁶⁶ European Commission. (2023). *Carbon Border Adjustment Mechanism (CBAM): EU Climate Policy Package*. <https://ec.europa.eu>

¹⁶⁷ International Energy Agency (IEA). (2024). *Renewables 2024 – Global Market Outlook*. Paris: IEA. <https://www.iea.org>

¹⁶⁸ Ellen MacArthur Foundation. (2023). *Completing the Picture: How the Circular Economy Tackles Climate Change*. <https://ellenmacarthurfoundation.org>

¹⁶⁹ World Health Organization (WHO). (2023). *Air pollution*. Geneva: WHO. <https://www.who.int>

¹⁷⁰ International Labour Organization (ILO). (2023). *World Employment and Social Outlook 2023: The role of green jobs in a just transition*. Geneva: ILO.

Shunday qilib kapital xavfsiz joyga oqadi, iqtisod esa chambarchas barqarorlashadi¹⁷¹.

Qisqa aytganda, yashil yechimlar bitta zarba bilan turli frontlardagi zararni yumshatadi: iqlimni tinchitadi, energiyani arzonlashtiradi, resurs va sog'liq bosimini yengillashtiradi, yangi ish o'rinlari va xatarni past moliya oqimini keltiradi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish – bu “hamyonni” kamsitmagan holda tabiatga qarzdorlikni yopish san'ati. Asosiy tamoyillar: tabiat chegaralarini tan olish, ijtimoiy adolatni markazga qo'yish, uglerodni pasaytirish, resurslarni aylantirish va boshqaruvni shaffof qilish. O'zbekiston bu tamoyillarni 2030 yilgacha bo'lgan “Yashil iqtisodiyot” strategiyasida mahalliy sharoitga moslab joylashtirdi. Quyida – eng muhim besh-o'n “golden rule” va ular qanday ishlashini ko'rsatadigan real misollar.

Yashil iqtisodiyot — kelajakni bugun qurish san'ati

Iqtisodiyot doim «ko'paytirish» san'ati edi: ko'proq xomashyo qazib olish, ko'proq mahsulot chiqarish, ko'proq daromad yig'ish. XXI asr esa bu formulaga yangi o'lcham qo'shdi — **chegaralangan sayyora**. Yer bizga havoni, suvni, tuproqni va turlar xilma-xilligini zaxira sifatida beradi, ammo bu zaxira «cheksiz ombor» emas; olimlar “planetar chegaralar” deb ataydigan qizil chiziqlar bor. Bu chiziqlardan oshish — o'z uyini bo'ronga tutgan dengizchi kabidir¹⁷².

Shu manzarada **yashil iqtisodiyot** — faqat “ekologiya bo'yicha ixtiyoriy xayriya” emas, balki raqobatbardosh, barqaror va ijtimoiy adolatli rivojlanishning yangi matritsasi. Bu konsepsiya resursdan nafaqat «qancha olamiz», balki «qachon va qanday qaytarib to'laymiz» degan savolni ham so'raydi. Eng muhimi, yashil iqtisodiyot tabiatni iqtisodiy qarz emas, balki sarmoya deb ko'rishni taklif qiladi: iqlim-barqaror energiya, suv-aqlli qishloq xo'jaligi, chiqindi-aylanma xomashyo degan yangi lotincha-o'zbekcha “lug'at”ni ochadi.

¹⁷¹ UN Principles for Responsible Investment (PRI). (2023). *ESG Integration: Market Trends and Regulatory Landscape*. <https://www.unpri.org>

¹⁷² Rockström, J. et al. (2009). *A safe operating space for humanity*. *Nature*, 461(7263), 472–475. (Planetar chegaralar nazariyasi asoschisi)

Demak, quyida ko‘rib chiqiladigan **“yashil iqtisodiyotga o‘tish tamoyillari”** — korxonadan tortib markaziy bankka, talabdan tortib deputatgacha bo‘lgan har bir qaror qabul qiluvchi uchun aniq kompas. Kompas ko‘rsatadigan shimol esa bitta: iqtisodiy o‘sish Yerning ekologik «kredit limitini» buzmasdan ham mumkin. Endi tamoyillarning o‘ziga o‘tamiz.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish — bu faqat ekologik yangilanish emas; bu, avvalo, jamiyatning barcha qatlamlari uchun adolatli, barqaror va farovon kelajak sari yo‘l xaritasi. Bu tamoyillarni anglash, ularga amal qilish esa har birimizning mas‘uliyatimizdir.

2.2.1-chizma

Yashil iqtisodiyotga o‘tish tamoyillari¹⁷³



1. Barqarorlik tamoyili (Sustainable Principle)

Barqarorlik tamoyili— bu tabiiy resurslarni kelajak avlodlar uchun saqlab qolishdir. Bu tamoyil iqtisodiy faoliyatni ekologik chegaralarda amalga oshirishni taqozo etadi. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya

¹⁷³ Muallif ishlanmasi.

manbalariga o‘tish, chiqindilarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish orqali barqaror rivojlanish ta’minlanadi¹⁷⁴.

Qoidalar oddiy:

1. **Chegaralangan resurs.** Suv, tuproq, biosfera – “tubsiz ombor” emas¹⁷⁵.
2. **Aylanma iqtisod.** “Ol-ishlat-tashla” emas, “ol-ishlat-qaytar” modeli¹⁷⁶.
3. **Audit & KPI.** Har qaror CO2, suv va chiqindi raqamlari bilan tekshiriladi¹⁷⁷.
4. **Net-zero kompas.** So‘nggi manzil – iqlim neytralligi; sanasi aniqlanmagan maqsad – shunchaki banner¹⁷⁸.
5. **Ijtimoiy inklyuziya.** Zaif guruhlar ham o‘shidan bahra olmasa, barqarorlik “qog‘oz” bo‘lib qoladi¹⁷⁹.

2.2.2-jadval

Barqarorlik tamoyili: afzalliklar va kamchiliklarining “musbat–manfiy” tarozisi

Taroziining musbat kosasi (Afzalliklar)	Taroziining manfiy kosasi (Kamchiliklar)
1. Xatarni kamaytiradi – Iqlim, resurs va bozor tebranishlarini nazoratga oladi; uzoq muddatli investitsiya xavfsizroq.	1. Katta boshlang‘ich xarajat – Qayta tiklanuvchi energiya, LCA auditi, izolyatsiya va boshqa “yashil” modernizatsiya qimmat turadi.
2. Raqobat ustunligini beradi – Uglitod izini past mahsulotlar eksport bozorida ko‘proq qabul qilinadi, “yashil” brend qo‘shimcha qiymat yaratadi.	2. Murakkab boshqaruv – KPI, audit va izchil monitoring bo‘lmasa, barqarorlik chora-tadbirlari “qog‘oz”ga aylanadi.
3. Resurs samaradorligini oshiradi – Energiya va xomashyo tejaladi, operatsion xarajat	3. Texnologik asoratlar – Zarur texnologiya mahalliy bozorda yetarli bo‘lmasa, importga

¹⁷⁴ Brundtland Commission. (1987). *Our Common Future*. United Nations World Commission on Environment and Development (WCED). (Barqarorlik tamoyilining ilk ta’rifi: “kelajak avlodlar ehtiyojlarini xavf ostiga qo‘ymagan holda hozirgi ehtiyojlarni qondirish”).

¹⁷⁵ Brundtland Commission. (1987). *Our Common Future*. United Nations World Commission on Environment and Development (WCED). (Barqarorlik tamoyilining ilk ta’rifi: “kelajak avlodlar ehtiyojlarini xavf ostiga qo‘ymagan holda hozirgi ehtiyojlarni qondirish”).

¹⁷⁶ United Nations Environment Programme (UNEP). (2022). *Sustainability and Circular Economy Practices*. Nairobi: UNEP. (Aylanma iqtisod konsepsiyasi: ol–ishlat–qaytar modelining konseptual asoslari).

¹⁷⁷ International Energy Agency (IEA). (2024). *Net Zero by 2050: A Roadmap for the Global Energy Sector*. Paris: IEA. (Net-zero maqsadining muhimligi va sanasini aniqlashtirishga doir global yo‘nalishlar).

¹⁷⁸ Global Reporting Initiative (GRI). (2023). *Sustainability Reporting Standards*. <https://www.globalreporting.org> (Audit, KPI va barqarorlik bo‘yicha hisobdorlikning xalqaro standartlari).

¹⁷⁹ United Nations Development Programme (UNDP). (2023). *Human Development Report 2023: Leaving No One Behind*. New York: UNDP. (Ijtimoiy inklyuziya tamoyili va zaif guruhlar uchun inklyuziv iqtisodiyot).

Tarozi ning musbat kosasi (Afzalliklar)	Tarozi ning manfiy kosasi (Kamchiliklar)
pasayadi.	qaramlik kuchayadi.
4. Yangi ish o‘rinlari – “Yashil” sektor (quyosh, shamol, chiqindi qayta ishlash)da mehnat bozoriga yangi imkoniyatlar.	4. Ijtimoiy qarshilik – An’anaviy tarmoqlarda ishlovchi xodimlar o‘z malakasi eskirganini sezib, o‘tish jarayoniga norozilik bildirishlari mumkin.
5. Sog‘liq va sifatiy hayot – PM2.5 va CO2 pasayishi tufayli sog‘liqni saqlash xarajatlari kamayadi, hayot sifati ko‘tariladi.	5. Qonunchilik va standartlar – Barqarorlikka oid aniq huquq iy mezonlar bo‘lmasa, investor ham, tadbirkor ham noaniq vaziyatda qoladi.
6. Moliyaviy rag‘batlar – Yashil obligatsiya va grantlar orqali foiz stavkalari past, risk sug‘urtasi yuqori.	6. Qisqa muddatli rentabellik bosimi – Tez daromad xohlovchi aksiyador va banklar “uzoq muddat”ga pul berishga sust bo‘lishi mumkin.

Barqarorlik tamoyilini tasavvur qiling — ikki qanotli qushga o‘xshaydi: chap qanotida afzallik, o‘ng qanotida kamchilik. Uchish uchun ikkalasi ham zarur; birini kesib tashlasak, qush yiqiladi. Shuning uchun quyidagi izchil hikoya ichida musbat va manfiy jihatlar bir ipga tizilgan marjondek navbatma-navbat charaqlaydi.

Iqlim xavfi va resurs tanqisligi bosimida korxono o‘zini parashyut bilan himoyaga olmoqchi bo‘lsa, barqarorlik dastlab qimmat “bilet”ni talab qiladi: quyosh paneli, izolyatsiya, LCA auditi¹⁸⁰. Shu boshlang‘ich xarajat eskirgan texnologiyani yangilaydi, energiya va xomashyoni tejaydi, demak operatsion xarajatni pasaytiradi. Xarajat kamayishi esa kapitallashgan daromadni oshiradi — risk kamaygan sohada investorlar bemalol nafas oladi.

Murakkab KPI va audit tizimi boshida byurokratikdek tuyuladi, lekin aynan shu raqamlar barqarorlikni “qog‘oz shior”dan haqiqiy boshqaruv vositasiga aylantiradi. Korxono CO2, suv va chiqindi indikatorini ochiq e‘lon qilgani sayin, bozor ko‘zida ishonchlilik indeksi ko‘tariladi¹⁸¹; bu esa past uglerodli mahsulot uchun chegara boji yengilligi va “yashil” grantlarga keng yo‘l ochadi¹⁸².

¹⁸⁰ International Energy Agency (IEA). (2022). *Renewables 2022 – Analysis and forecast to 2027*. Paris: IEA.

¹⁸¹ World Health Organization (WHO). (2023). *Air pollution*. Geneva: WHO. <https://www.who.int>

¹⁸² UN Principles for Responsible Investment (PRI). (2023). *ESG Integration: Market Trends and Regulatory Landscape*. <https://www.unpri.org>

Texnologik qaramlik – import asbob-uskunaga tobe bo‘lish xavfi – dastlab manfiy ko‘rinadi. Ammo o‘sha import orqali kirgan bilim lokal reskilling dasturlari bilan mahalliy malakaga aylanadi. Ko‘mir konchisining shamol turbinasi ustasiga aylanishi nafaqat ijtimoiy qarshilikni yumshatadi, balki mehnat bozorida yangi, ko‘proq haq to‘lanadigan ish o‘rni yaratadi. Bunda jamiyat sog‘lig‘i ham yutadi: PM2.5 va CO2₂ kamaygan sari poliklinika navbatlari qisqaradi, ish kuni samarasi oshadi¹⁸³.

Huquqiy noaniqlik va qisqa muddatli rentabellik bosimi esa davlatning “o‘yin qoidasini” qat‘iy belgilashini talab qiladi. Aniqlik kiritilgach, investor tuman ichida emas, charog‘on yo‘lakda yurar — shunda kapital uzoq muddatli marra tomon qo‘rquvsiz oqadi.

Natijada, afzalliklar — xatarni pasaytirish, tejamkorlik, raqobat, sog‘liq va yangi ish o‘rinlari — yildan-yilga og‘irlashib, barqarorlik qushining chap qanotini mustahkamlaydi. Kamchiliklar — boshlang‘ich CAPEX, boshqaruv murakkabligi, texnologik qaramlik, ijtimoiy qarshilik va huquqiy bo‘shliq — reskilling, grant, aniq standart va shaffof audit vositalari bilan sekin-asta engillashadi, o‘ng qanot hushyorlikni eslatib turadi¹⁸⁴.

Shunday qilib, barqarorlik tamoyili — ekologik yondashuv emas, balki riskni bo‘g‘uvchi va daromadni uzoqqa uloqtiruvchi strategik gibrid. Qanotlar muvozanatda bo‘lsa, qush baland parvoz qiladi; tafovutga yo‘l qo‘yilsa, u pastga qulashi tayin. Demak, tanlov — sizning qaroringiz: bugun **“qimmat билет”** ni olib, ertaga xavfsiz osmonu-falakka chiqishmi, yoki qushsiz qolishmi?

Adolat tamoyili: yashil kelajakning tenglikka yozilgan manifesti

Adolat tamoyili – bu yashil inqilobning yurak urishi, hammaning nafasi bir xilda ochiladigan tabiat simfoniyasi. U deydi: “Iqlimni tuzatish — faqat ko‘p puli borlarning xobbiysi emas, kambag‘al mahallaning ham haqi, cho‘l bag‘ridagi qishloqning ham orzusi.”

¹⁸³ Ellen MacArthur Foundation. (2023). *Completing the Picture: How the Circular Economy Tackles Climate Change*. <https://ellenmacarthurfoundation.org>.

¹⁸⁴ International Labour Organization (ILO). (2023). *World Employment and Social Outlook 2023: The role of green jobs in a just transition*. Geneva: ILO.

Shuning uchun xarajat va foyda bir tarozida tortiladi: karbon solig‘idan tushgan so‘m shamol turbinasini o‘rnatgan ishlab chiqaruvchiga emas, birinchi navbatda suv toshqinidan eng ko‘p aziyat chekkan hudud maktabiga quvvati tejevchi isitish tizimi o‘rnatishga sarflanadi.

Bu tamoyil o‘zini uchta oltin qoidada namoyon qiladi. **Birinchi** — **teng imkoniyat**¹⁸⁵. Yashil grantlar nafaqat yirik korporatsiyaning vitrinasi, balki kichik fermerning organik bog‘i, tog‘ etagidagi startapning chiqindi-gaz biogaz qurilmalariga ham yetib boradi. **Ikkinchi** — **xatar va foydani teng taqsimlash**. “Ifloslantiruvchi to‘laydi” prinsipida to‘plangan mablag‘ “Just Transition Fund”ga quyiladi; ko‘mir konchisining yangi kasbi shamol turbinasiga servis ko‘rsatish bo‘lsa, uning o‘qish puli ham shu jamg‘armadan qoplanadi. **Uchinchi** — **shaffoflik va ishtirok**. Har bir yashil loyihaning budjeti, kamaygan CO22 miqdori va yaratilgan ish o‘rinlari onlayn portallarda jamoa nazariga oshkora. Mahalla kul qilmasa, loyiha boshlanmaydi — demokratiya tabiatga ham taalluqli.

Natija nima? Toza havo, tejab qolingan megavatt-soatlar va ish topgan mutaxassislar birday tarqaladi. Shundagina yashil o‘zgarish boylarning balkonida gullagan pion emas, hammani soyasiga chorlaydigan manzarali daraxtga aylanadi. Adolat tamoyili — ekologiya va tengsizlik o‘rtasiga tortilgan ko‘prik; bu ko‘prikni mustahkamlab olsak, kelajak tomonga o‘tishda hech kim pastga qulamaydi.

2.2.3-jadval

Adolat tamoyilining afzallik-kamchilik “yo‘l xaritasi”¹⁸⁶

	Afzallik (pluses)	Kamchilik (minuses)	Bog‘lovchi izoh
1	Ijtimoiy barqarorlik — norozilikni kamaytiradi	Boshqaruv-audit yuklamasi oshadi	Norozilik bosimi pasayishi uchun shaffof nazorat majburiy; demak, birinchi plus ikkinchi minusni avtomatik chaqiradi.
2	Inson kapitali o‘sadi (reskilling, yuqori ish haqi)	Mablag‘ taqchilligi xavfi	Malaka oshirish dasturi pulga bog‘liq; agar zaxira yetarli bo‘lmasa, afzallik natija bermaydi.
3	Bozorga kirish kengayadi (KOB,	Selektiv lobbizm xavfi	Keng kirish uchun qoidalar oddiy bo‘lishi shart; murakkablashsa, yirik lobbi ustun

¹⁸⁵ UNDP. (2023). *Climate Justice: The Human Dimension of Green Growth*. New York.

(*Yashil o‘zgarishlar ijtimoiy tenglik va zaif guruhlar ishtirokini qanday talab etishini tushuntiradi.*)

¹⁸⁶ Young, I. M. (2024). *Justice and the Politics of Difference: 30th Anniversary Edition*. Princeton University Press.

	Afzallik (pluses)	Kamchilik (minuses)	Bog'lovchi izoh
	fermer)		kelib, "keng kirish" qisqaradi.
4	Sog'liqni saqlash xarajatlari kamayadi	Imkoniyatlar paradoksi (zaif hudud ariza topshira olmaydi)	Eng iflos hududga investitsiya borsagina sog'liq yutug'i ro'yobga chiqadi; biroq aynan shu hudud hujjat topshirishga qiynaladi.
5	Tengsizlik qisqaradi	Qisqa muddatli narx bosimi	Karbon solig'i qayta taqsimlansa tengsizlik kamayadi; ammo kompensatsiya kechiksa, narx bosimi teskarisini keltiradi.

Adolat tamoyili **ixtiyoriy bonus** emas, balki yashil o'zgarishning sug'urtasi. Jadvalda ko'rinib turibdiki, har bir afzallik o'ziga "soya" — mos kamchilikni tortib keladi. Demak, siyosat-dizaynerning vazifasi: plussiz minusni ochiq tan olish va uni boshqaruv, moliyalashtirish hamda oddiy qoidalar orqali jilovlash.

1-bandda ijtimoiy barqarorlikka erishish uchun shaffof portal va audit zarur → bu esa byurokratik yuklamani oshiradi. Shunday ekan, raqamli texnologiya va "bir oyna" tartibi kabi yechimlar **plussi tutib turib, minusni yengillashtiradi**.

2-bandda malaka oshirish dasturlari odamni ish bilan ta'minlaydi, lekin bunga pul kerak. Demak, karbon solig'i va yashil obligatsiya daromadining muayyan foizi "**Just Transition Fund**"ga **majburiy o'tkazilishi** minusni qoplaydi.

3-band bozorga kirishni kengaytiradi, lekin lobbi xavfi kuchli. Qoidalarni soddalashtirib, grant limiti katta korporatsiyaga emas, KOBga ustuvor bersak, lobbi "sig'ishi" uchun joy qolmaydi → afzallikni saqlaymiz, kamchilikni yengamiz.

4-bandda sog'liq yutug'i eng iflos hududlarga borishi kerak, biroq aynan ular granthujjat tayyorlashda qiynaladi. Bu paradoksni hududiy koordinatorlar va tayyor "shablon-paket" hujjatlar bilan yechsak, **afzallik realizatsiya, minus esa qisqaradi**¹⁸⁷.

5-band: karbon solig'i qayta taqsimlansa tengsizlik kamayadi, ammo kompensatsiya kechiksa inflyatsion bosim ortadi. "Pul avval –

¹⁸⁷ Raworth, K. (2017). *Doughnut Economics: Seven Ways to Think Like a 21st Century Economist*. Chelsea Green Publishing.

solliq keyin” tamoyilini tatbiq etib, kompensatsiyani oldindan yetkazsak, minusni zararsizlantiramiz.

Farovonlik tamoyili (Dignity Principle)¹⁸⁸

Farovonlik tamoyili – bu yashil iqtisodiyot orkestrida eng nozik, ammo asab tolalaridek zarur bo‘lgan skripka partiyasi. Agar karbonni keskin pasaytirish barqarorlik bubini urib berayotgan bo‘lsa, adolat tamoyili esa zarbli baraban kabi notalarni aniqlashtirayotgan bo‘lsa, farovonlik – inson sha’ni va ruhiy osoyishtalikni kuyga birlashtirib, umurtqa pog‘onadagi mayda mushaklar kabi butun kompozitsiyani tirik saqlaydi.

Avvalo toza havo va suv haqidagi band bilan boshlaymiz: bu ko‘zga ko‘rinmas, ammo har bir nafasda eslatib turadigan ne‘mat. Aynan shu “ko‘rinmas ne‘mat” farovonlik tamoyilining poydevoridir — bolalar maydonchasidagi kulgi, maktabdagi diqqatni jamlash, klinikadagi qisqargan navbat hammasi shu poydevordan unadi. Shuning uchun har bir yashil loyiha avval PM2.5 va suvda nitrat miqdorini kamaytirish bo‘yicha aniq mezon bilan tug‘iladi¹⁸⁹.

Keyingi pog‘onada mehnatga munosib sharoit turadi. Ko‘mir qazib oluvchi ustaning qo‘li kuyosh panelini o‘rnatishga o‘rgatilar ekan, u nafaqat xavfsiz va barqaror daromad topadi, balki o‘z kasbiy “sha’nini” yo‘qotmaydi. Reskilling dasturi ishchilarga “siz kerakli ekansiz” degan chinakam xabarni yuboradi — bu xabar esa ijtimoiy birdamlikning eng kuchli rag‘batidir.

Farovonlik tamoyilining uchinchi ipi — madaniy meros va mahalla roziligi. Elektr stansiyasi qurilishi kerakmi? Demak, mahalliy ziyoratgoh, qadimiy chinor yoki asrlar davomida yaratilgan suv-me‘yor tizimiga zarra zarar yetkazilmasin. Jamoaning roziligi oddiy imzo emas, balki loyiha dizayniga shunchaki hujjat emas – jarayonning o‘zi bo‘lishi kerak.

Bu uch ip — sog‘liq, mehnat, meros — to‘rtta tugun bilan bog‘lanadi: axborotdagi tenglik. Har chorakda mustaqil “Farovonlik paneli” onlayn e‘lon qilinadi: toza havo indeksi qanchaga tushdi, nechta inson yangi malakaga ega bo‘ldi, qaysi madaniy obyekt saqlab qolindi.

¹⁸⁸ UNDP. (2023). *Climate Justice: The Human Dimension of Green Growth*. New York.

¹⁸⁹ World Resources Institute (WRI). (2022). *Green Infrastructure and Equity in Climate Resilience*.

Axborot ochiqligi esa fuqaroni passiv tomoshabindan faol nazoratchiga aylantiradi¹⁹⁰.

Shunda natija quyidagicha bir-biriga ulanishni boshlaydi: toza havo → sogʻlom ishchi → yuqori unumdorlik → koʻproq byudjet daromadi → yana ijtimoiy investitsiya → kuchli kreativ muhit. Xuddi tabiiy ekotizim kabi, farovonlik tamoyili ham mazkur “ovqat zanjiri”ni yopiq, barqaror siklga aylantiradi.

Albatta, bu yoʻl tekin emas: umumiy byudjetga qoʻshimcha bosim, koʻp sektorli koordinatsiyaning bosh ogʻrigʻi, hamma uchun yagona “farovonlik oʻlchovini” topish qiyinligi bor. Ammo uzoq masofada bu tamoyil ulkan dividend qaytaradi: sogʻlom, ijodkor, turli qatlamlari hamjihat jamiyat. Aynan shunday jamiyatda yashil texnologiyalar ildiz otadi, nafaqat qogʻozda, balki odamlarning kundalik ehtiyoji va orzusida ham¹⁹¹.

Shunday qilib, farovonlik tamoyili — yashil tranzitsiyaning yurak ritmini ushlab turadigan metronom. Agar biz karbonni kesish va iqtisodni koʻkargan barg misoli yashil qilishni istasak, shu metronomni eshitishni, uning tekis urishiga eʼtibor berishni unutmaylik. Zero, inson shaʼnisiz hech bir progress uzoqqa bormaydi.

2.2.4-jadval

“Farovonlik tamoyili boʻyicha afzallik-kamchiliklar va global amaliyotlar matritsasi”¹⁹²

Kategoriya	Band	Mazmuni	Farovonlik tamoyiliga bogʻliqligi	Misol (joy/dastur)
Afzallik	A1	Toza havo/suv → sogʻlom aholi → kamroq tibbiy xarajat → koʻproq byudjet	“Sogʻliq spiralini” ishga tushiradi	Yangi Zelandiya Well-being Budget
	A2	Jamoa roziligi va adolatli mehnat odamlarni yashil oʻzgarish tarafdoriga aylantiradi	Ijtimoiy birdamlik	YeI Just Transition Fund
	A3	Aholi oʻzini qadrlangan sezsa, innovatsiya va startaplar oʻsadi	“Yumshoq infratuzilma”	Hindiston Inclusive RE Auctions
	A4	Madaniy merosni asragan hudud	Hudud brendi	Ekvador Buen Vivir

¹⁹⁰ United Nations Environment Programme (UNEP). (2022). *Making Finance Work for Nature: Adapting ESG Frameworks*.

¹⁹¹ UNDP. (2023). *Climate Justice: The Human Dimension of Green Growth*. New York.

¹⁹² OECD. (2024). *Green Transition Indicators: Policy Tools for a Low-Carbon Economy*. OECD Publishing.

Kategoriya	Band	Mazmuni	Farovonlik tamoyiliga bog'liqligi	Misol (joy/dastur)
		turizm va "eko-brend"ni kuchaytiradi		prinsipi
Kamchilik	K1	Sog'liq, reskilling va merosni integratsiya qilish boshlang'ich xarajatni oshiradi	Byudjet bosimi	(Umumiy)
	K2	Ekologiya, mehnat va madaniyatni bir vaqtda muvofiqlashtirish qiyin	Ko'p sektorli boshqaruv	(Umumiy)
	K3	Ruhiiy sog'liq kabi indikatorlar yillab o'lchanadi	Natija kech ko'rinadi	(Umumiy)
	K4	"Farovonlik" tushunchasi hududdan-hududga o'zgaradi	Universal standart yo'q	(Umumiy)
Global islohot	G1	Ko'mir mintaqalarini qayta tayyorlash, ijtimoiy himoya	Reskilling, mehnat sha'ni	Yel Just Transition Fund
	G2	Energiya tejamkor, sog'lom va arzon ijtimoiy uylar (taklif)	Sog'liq + adolat	AQSh Green New Deal for Public Housing
	G3	Byudjet sarfini YaIM emas, farovonlik indikatoriga bog'lash	Axborot ochiqligi, sog'liq	New Zealand Well-being Budget
	G4	Tabiat va inson sha'ni konstitutsion darajada teng	Madaniy-huquqiy bazis	Ekvador Buen Vivir
	G5	Quyosh/shamol tenderlarida mahalliy bandlik va jamoa konsensus talabi	Mehnat va jamoa roziligi	Hindiston RE Auctions

Afzalliklar jadvaldagi **A-bandlar** orqali "qisqa muddatli xarajat ↔ uzoq muddatli dividend" mexanizmini ko'rsatadi. Xuddi shu jarayonda **K-bandlar** negadir to'siq bo'lib turadi: byudjet bosimi (K1) va boshqaruv murakkabligi (K2) sababli siyosatchi sabrini K3 sinaydi. Shu nuqtada **G-bandlar** amaliy yechim rolini o'ynaydi: masalan, Yelning G1 dasturi K1 va K2 muammosini reskilling grantlari va mintaqaviy koordinatsiya markazlari orqali yumshatadi. Natijada **A1** spiralini hayotga tatbiq etish osonlashadi.

Demak, farovonlik tamoyili bo'yicha muvaffaqiyat formulasi quyidagicha:

(A1 + A2 + A3 + A4) – (K1 + K2 + K3 + K4) → G-yechimlar bilan balanslanadi

Shunday qilib, afzallik va kamchiliklar bir sahifada ko'rinib turishi nafaqat o'quvchiga, balki siyosat dizayneriga ham muhim signallar

beradi: **kamchilikni bosib ketish uchun aniq global precedenti bor loyiha tanlang.** Shu tarzda farovonlik tamoyili “qog‘ozdagi shior”dan “amaliy orkestr”ga aylanadi.

Sog‘lom sayyora tamoyili

Sog‘lom sayyora tamoyili — bu atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta’minlashda asosiy printsiplardan biri bo‘lib, insoniyat faoliyati natijasida sayyoramizning tabiiy tizimlari va resurslari buzilmasligi, ularning funkcionalligi saqlanishi kerakligini bildiradi¹⁹³.

Bu tamoyilning mohiyati shundaki, sayyora — bu murakkab va o‘zaro bog‘langan ekosistemalar majmuasi, unda har bir jonli organizm va tabiat elementining o‘z roli bor. Agar biz bu tizimlarni buzsak, natijada global miqyosda iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, resurslarning kamayishi va insoniyat uchun noqulay sharoitlarning yuzaga kelishi yuz beradi¹⁹⁴.

Sog‘lom sayyora tamoyilining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

1. **Ekologik barqarorlikni ta’minlash** — tabiiy resurslarni shunday boshqarish, ular o‘z tabiiy qobiliyatlari doirasida yangilanib borishi uchun sharoit yaratish¹⁹⁵;
2. **Biologik xilma-xillikni saqlash** — o‘simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlarning turlari va genetik resurslarini asrash¹⁹⁶;
3. **Iqlim va atmosferani muhofaza qilish** — ifloslanishni kamaytirish va iqlim o‘zgarishining oldini olish¹⁹⁷;
4. **Atrof-muhitning sog‘lom holatini saqlash** — suv, havo, tuproqning ifloslanishidan himoya qilish.

Bu tamoyil xalqaro ekologik hujjatlarda, masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarida ham o‘z

¹⁹³ Rockström, J. et al. (2009). *Planetary Boundaries: Exploring the Safe Operating Space for Humanity*. Ecology and Society, 14(2).

¹⁹⁴ Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC). (2023). *Climate Change 2023: Synthesis Report*. Geneva: IPCC.

¹⁹⁵ UN Convention on Biological Diversity. (2022). *Global Biodiversity Framework*.

¹⁹⁶ UN General Assembly. (2015). *Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development*. A/RES/70/1.

¹⁹⁷ United Nations Environment Programme (UNEP). (2021). *Making Peace with Nature: A Scientific Blueprint*. Nairobi.

aksini topgan. Shuningdek, ko‘plab mamlakatlar ekologik qonunlarida asosiy tamoyil sifatida qabul qilingan.

2.2.5-jadval

Sog‘lom Sayyora Tamoyilining Afzalliklari, Kamchiliklari va Dunyo Bo‘ylab Amalga Oshirilayotgan Islohotlar Jadvali¹⁹⁸

Bo‘lim	Tavsifi	Misollar / Izohlar
Afzalliklari	<ul style="list-style-type: none"> - Barqaror rivojlanishni ta‘minlash - Iqlim o‘zgarishini kamaytirish - Biologik xilma-xillikni saqlash - Sog‘lom jamiyat barpo etish - Iqtisodiy samaradorlik va innovatsiyalar 	<ul style="list-style-type: none"> - Kelajak avlodlar uchun resurslarni saqlash - Karbon chiqindilarini kamaytirish - Tabiatning sog‘lomligi inson salomatligini ta‘minlaydi - Yashil texnologiyalar rivoji
Kamchiliklari	<ul style="list-style-type: none"> - Yuqori moliyaviy xarajatlar - Siyosiy va iqtisodiy manfaatlar to‘qnashuvi - Texnologik cheklovlar - Ijtimoiy ongning sekin o‘zgarishi 	<ul style="list-style-type: none"> - Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qimmat - Neft, gaz sanoati manfaatlari - Yashil texnologiyalarni joriy etishda muammolar - Odamlarning odatlarini o‘zgartirishdagi qiyinchiliklar
Dunyo bo‘ylab islohotlar	<ul style="list-style-type: none"> - Yevropa Ittifoqining Yashil kelishuvi - BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) - Parij iqlim kelishuvi - Yashil energiya loyihalari - Mahalliy tabiatni muhofaza qilish tashabbuslari 	<ul style="list-style-type: none"> - Karbon neytral iqtisodiyotga o‘tish - 17 ta global maqsad - Global harorat ko‘tarilishini cheklash - Quyosh, shamol energetikasi rivoji - Hududiy ekologik loyihalar

Sog‘lom sayyora tamoyili insoniyat va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga qaratilgan muhim tamoyil bo‘lib, u atrof-muhitni barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan himoya qilishga xizmat qiladi. Ushbu printsipning eng asosiy afzalliklaridan biri — tabiiy resurslar va ekologik tizimlarning uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlashidir. Bu, o‘z navbatida, kelajak avlodlarga toza havo, suv, oziq-ovqat va sog‘lom muhitni meros qilib qoldirish imkonini beradi. Bundan tashqari, sog‘lom sayyora tamoyili iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirishda

¹⁹⁸ UNEP. (2024). *Green Economy Progress Report 2024: Accelerating the Transition Towards Sustainability*. United Nations Environment Programme.

muhim rol o'ynaydi¹⁹⁹. Atrof-muhitni ifloslantirishni kamaytirish va yashil energiyaga o'tish orqali global haroratning oshishini cheklashga erishiladi. Shu bilan birga, bu tamoyil biologik xilma-xillikni himoya qilishga ham xizmat qiladi, chunki turli o'simlik va hayvon turlarining saqlanishi ekosistemalarning o'zaro bog'liqligini va barqarorligini kafolatlaydi. Sog'lom atrof-muhit esa, albatta, inson salomatligi va farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa barqaror va sog'lom jamiyat qurishga yordam beradi. Bundan tashqari, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan resurslarni oqilona boshqarish iqtisodiyotda yangi innovatsiyalarni rag'batlantiradi va samaradorlikni oshiradi²⁰⁰.

Biroq, bu tamoyilni amalga oshirish jarayonida ayrim qiyinchiliklar ham mavjud. Eng birinchisi — ekologik loyihalar va chora-tadbirlarning moliyaviy xarajatlari ko'pincha yuqori bo'ladi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu katta yuk hisoblanadi. Shuningdek, siyosiy va iqtisodiy manfaatlar ko'pincha ekologik barqarorlik yo'lida to'siq bo'lib qoladi. Masalan, neft, gaz yoki ko'mir sanoati davlat va korporatsiyalarga katta daromad keltirishi sababli, ularni ekologik talablar bilan to'liq moslashtirish oson emas. Yana bir muammo — yashil texnologiyalar va infratuzilmaning ba'zi joylarda yetarli darajada rivojlanmaganligi. Natijada, ekologik yechimlarni keng joriy etish sekinlashadi. Bundan tashqari, ko'plab jamiyatlarda ekologik ongning pastligi va odatlarni o'zgartirishga tayyor emasligi muammolarni yanada kuchaytiradi.

Shunga qaramay, dunyo bo'ylab sog'lom sayyora tamoyilini amalga oshirish uchun katta qadamlar tashlanmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqining "Yashil kelishuv" siyosati iqtisodiyotning karbon neytral holatga o'tishini maqsad qilgan. Bu loyiha energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va tabiiy muhitni tiklashga qaratilgan keng ko'lamlı choralardan iborat. Shuningdek, BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun global standart sifatida xizmat qiladi. Parij iqlim kelishuvi esa

¹⁹⁹ World Health Organization (WHO). (2018). *Air Pollution and Child Health: Prescribing Clean Air*. Geneva: WHO.

²⁰⁰ OECD. (2020). *Biodiversity and the Economic Response to COVID-19: Ensuring a Green and Resilient Recovery*.

mamlakatlarni global harorat ko‘tarilishini 1,5–2°C oralig‘ida ushlab turishga majbur qiladi va bu iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashning markaziy instrumenti hisoblanadi²⁰¹. Shu bilan birga, dunyo bo‘ylab quyosh va shamol energetikasi kabi toza energiya manbalariga katta investitsiyalar amalga oshirilmoqda, ayniqsa Xitoy va AQSh kabi yirik davlatlarda. Bundan tashqari, mahalliy darajada ham tabiatni saqlash, o‘rmonlarni tiklash va suv resurslarini muhofaza qilish bo‘yicha turli loyihalar faol ravishda amalga oshirilmoqda.

Inkluzivlik tamoyili

Inkluzivlik tamoyili — bu jamiyat, tashkilot yoki har qanday ijtimoiy muhitda har bir insonning teng huquqlilik va ishtirokini ta‘minlash printsipidir. Bu tamoyil har qanday farq — jinsi, yoshi, irqiy, etnik, diniy, ijtimoiy holati, imkoniyati yoki fikriga qaramay, barcha odamlarni o‘zaro hurmat va qadrlash asosida jamlashga xizmat qiladi²⁰².

Zamonaviy dunyo tez o‘zgarib bormoqda, shuning uchun har birimizni o‘z o‘rnida, qadr-qimmatini bilan qabul qilish — barqaror va sog‘lom jamiyat qurishning poydevoridir. Inkluzivlik tamoyili shuni ko‘rsatadiki, nafaqat “ko‘pchilik”ning ovozi eshutilishi kerak, balki “kamchilik”dagi, e‘tibor yetishmayotgan va chetga surilgan guruhlar ham teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishi shart²⁰³.

Bu tamoyil ijtimoiy adolat va tenglikning amaliy ifodasi bo‘lib, u insonlarning o‘zini hurmat qilishiga, o‘z imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirishiga sharoit yaratadi. Shu yo‘l bilan jamiyatda ijtimoiy integratsiya kuchayadi, ijtimoiy keskinliklar kamayadi va umumiy taraqqiyot tezlashadi.

2.2.6-chizma

Inkluzivlik tamoyilining afzalliklari, kamchiliklari va dunyo bo‘ylab amalga oshirilayotgan islohotlar jadvali²⁰⁴

Bo‘lim	Tavsifi	Misollar / Izohlar
Afzalliklari	- Har bir insonning huquqlari himoyalanaadi	- Insonparvarlik asoslari mustahkamlanaadi

²⁰¹ OECD. (2020). *Biodiversity and the Economic Response to COVID-19: Ensuring a Green and Resilient Recovery*.

²⁰² United Nations. (2015). *Transforming our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. A/RES/70/1.

²⁰³ UNESCO. (2020). *Inclusion and Education: All Means All. Global Education Monitoring Report*. Paris: UNESCO.

²⁰⁴ Georgescu-Roegen, N. & Martinez-Alier, J. (2024). *Ecological Economics and the Green Transition*. Earthscan Press.

Bo'lim	Tavsifi	Misollar / Izohlar
	<ul style="list-style-type: none"> - Turli fikr va tajribalar jamiyatni boyitadi - Ijtimoiy birdamlik oshadi - Mehnat va ta'limda teng imkoniyatlar yaratiladi 	<ul style="list-style-type: none"> - Innovatsiya va ijodkorlik kuchayadi - Diskriminatsiya kamayadi - Adolatli iqtisodiy rivojlanish
Kamchiliklari	<ul style="list-style-type: none"> - Implementatsiya murakkabligi - Madaniy qarshiliklar - Noto'g'ri talqinlar - Qonunchilik va siyosiy to'siqlar 	<ul style="list-style-type: none"> - Resurs va vaqt talab qiladi - An'anaviy stereotiplar mavjud - Samaradorlikka salbiy ta'sir qilishi mumkin - Yetarli qonunlar yo'q
Dunyo bo'ylab islohotlar	<ul style="list-style-type: none"> - BMT inson huquqlari tashabbuslari - Korporativ inklyuzivlik dasturlari - Ta'limda integratsiya - Ijtimoiy tenglik qonunlari 	<ul style="list-style-type: none"> - Umumjahon deklaratsiya - Kadrlarni xilma-xil jalb qilish - Maxsus ehtiyojlar uchun imkoniyatlar yaratish - Kamsitishni taqiqlovchi qonunlar

Inkluzivlik tamoyili jamiyatda har bir shaxsning teng huquqlilik va ishtirokini ta'minlashga qaratilgan printsip bo'lib, bu tamoyil inson huquqlarining asosi sifatida tan olingan. Uning afzalliklari shundaki, u jamiyatni yanada adolatli, barqaror va hamjihat qiladi. Turli xil fikrlar va tajribalar jamiyatning intellektual va madaniy boyligini oshiradi, innovatsiya va ijodkorlikka turtki beradi²⁰⁵. Ijtimoiy birdamlikning kuchayishi esa diskriminatsiya va ajratilishni kamaytiradi, bu esa barqaror taraqqiyot uchun muhim.

Biroq, bu tamoyilni to'liq amalga oshirish murakkab va ko'p vaqt talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Madaniy stereotiplar va an'anaviy qadriyatlar ko'pincha o'zgarishga to'sqinlik qiladi, siyosiy va qonuniy muhit esa har doim ham inklyuzivlikka mos emas. Ba'zan inklyuzivlikni noto'g'ri tushunish (hammasiga joy berish — samaradorlikni pasaytirish ma'nosida) ham yuzaga keladi²⁰⁶. Shu sababli, inklyuzivlikka erishish uchun nafaqat siyosiy iroda, balki keng jamiyatning ongini o'zgartirish zarur²⁰⁷.

Dunyo bo'ylab amalga oshirilayotgan islohotlar bu borada muhim ahamiyatga ega. BMT inson huquqlari bo'yicha tashabbuslari global standartlar yaratgan bo'lsa, ko'plab korporatsiyalar va tashkilotlar ham

²⁰⁵ World Health Organization (WHO). (2011). *World Report on Disability*. Geneva: WHO.

²⁰⁶ International Labour Organization (ILO). (2019). *Inclusion of People with Disabilities in National Employment Policies: A Review*. Geneva: ILO.

²⁰⁷ N Human Rights Council. (2021). *Report of the United Nations High Commissioner for Human Rights: Promoting inclusion, equality and non-discrimination*.

o‘z ishchi kuchini xilma-xil qilish, diskriminatsiyani yo‘q qilishga intilmoqda²⁰⁸. Ta‘lim tizimlarida esa maxsus ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun teng sharoit yaratish, integratsion ta‘lim metodlarini joriy etish orqali inklyuzivlik kuchaymoqda. Ko‘plab mamlakatlar qonunchilikda kamsitishni taqiqlash va ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga oid qoidalarni qabul qilmoqda, bu esa inklyuzivlik tamoyilining amaliyotga tatbiq etilishiga yordam beradi.

Yaxshi boshqaruv va mas‘uliyat tamoyili

Yaxshi boshqaruv va mas‘uliyat tamoyili — bu jamiyat yoki tashkilotlarning samarali, shaffof va adolatli boshqaruvni ta‘minlashga qaratilgan printsip bo‘lib, unda har bir qaror va harakat uchun javobgarlik mavjud bo‘ladi. Ushbu tamoyil xalq, davlat va biznes sektorlarida ishonchni mustahkamlash, resurslarni oqilona boshqarish va ijtimoiy manfaatlarni himoya qilishni ta‘minlaydi²⁰⁹.

2.2.7-chizma

Yaxshi boshqaruv va mas‘uliyat tamoyilining afzalliklari²¹⁰

Bo‘lim	Tavsifi	Misollar / Izohlar
Afzalliklari	<ul style="list-style-type: none"> - Qarorlar shaffof va ochiq bo‘ladi - Fuqarolar va manfaatdor tomonlar ishtirok etadi - Resurslar samarali taqsimlanadi - Korrupsiyaga qarshi kurash kuchayadi 	<ul style="list-style-type: none"> - Ishonch ortadi, siyosiy barqarorlik kuchayadi - Ijtimoiy adolat ta‘minlanadi - Byudjet oqilona boshqariladi - Korrupsiya darajasi pasayadi
Kamchiliklari	<ul style="list-style-type: none"> - Amalga oshirish murakkab va vaqt talab qiluvchi jarayon - Siyosiy manfaatlar qarama-qarshiligi - Har doim ham barcha tomonlarning qoniqishi bo‘lmaydi 	<ul style="list-style-type: none"> - Ma‘muriy to‘siqlar va byurokratiya - Siyosiy kuchlar orasida kelishmovchiliklar - Ba‘zi guruhlar o‘z manfaatlarini ilgari suradi
Dunyo bo‘ylab islohotlar	<ul style="list-style-type: none"> - BMTning Yaxshi boshqaruv standartlari - Davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish dasturlari - Fuqarolik jamiyati ishtirokini kengaytirish - Anti-korrupsiya tashabbuslari 	<ul style="list-style-type: none"> - Open Government Partnership (Ochiq Hukumat Hamkorligi) - Onlayn byudjet monitoring tizimlari - Fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonidagi roli - Korrupsiyaga qarshi xalqaro tashkilotlar faoliyati

²⁰⁸ N Human Rights Council. (2021). *Report of the United Nations High Commissioner for Human Rights: Promoting inclusion, equality and non-discrimination.*

²⁰⁹ United Nations Economic and Social Council. (2006). *Definition of basic concepts and terminologies in governance and public administration.*

²¹⁰ ILO. (2024). *Skills for a Green Future: Education and Labour Market Alignment.* International Labour Organization.

Yaxshi boshqaruv va mas'uliyat tamoyili samarali davlat va jamiyatni shakllantirishning poydevoridir. Ushbu tamoyil asosida qabul qilingan qarorlar shaffoflik, adolat va javobgarlik tamoyillariga asoslanadi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatdagi ishonchni oshiradi va siyosiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Resurslarning oqilona taqsimlanishi va ishlatilishi iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, korrupsiyaning kamayishi esa ijtimoiy adolatga xizmat qiladi²¹¹.

Ammo, bunday tamoyilni amalga oshirish oson emas. Siyosiy manfaatlar to'qnashuvi, ma'muriy to'siqlar, byurokratiya va ba'zan fuqarolarning siyosiy jarayonlarga yetarlicha jalb etilmasligi bu yo'ldagi asosiy muammolardir. Shuningdek, barcha manfaatdor tomonlarning qoniqishini ta'minlash ham doimo mumkin bo'lmaydi, chunki qarorlar ko'pincha turli kuchlar orasida muvozanatni talab qiladi.

Dunyo bo'ylab bu tamoyilni mustahkamlash uchun ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, BMT tomonidan ishlab chiqilgan yaxshi boshqaruv standartlari davlat boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga yordam bermoqda²¹². Open Government Partnership kabi xalqaro tashabbuslar shaffoflikni oshirish va fuqarolar ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan. Onlayn byudjet monitoringi va fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlariga jalb qilinishi davlat boshqaruvining ochiqligini ta'minlaydi²¹³. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi xalqaro tashkilotlar faoliyati ham muhim rol o'ynaydi.

Barqarorlik va yetarlilik tamoyili

Barqarorlik – bu “zarba yeb yiqilmay, qayta o'rnidan turish” fazilati. Ekotizimlar uchun – qurg'ochchilik bo'lsa ham, o'simlik va hayvonot tarkibi tiklana olishi; iqtisodiyot uchun – global bozor silkinishi bo'lsa, ishlab chiqarish va bandlik qulamasligi.

Yetarlilik esa “minimalizm 2.0”: “keragidan ortiq emas, lekin kam ham emas”. Uy xo'jaligidan boshlab, milliy energetika balansigacha – iste'molni talafot qilmaydigan darajaga tushirish.

²¹¹ OECD. (2015). *Public Governance for Inclusive Growth: Towards a New Policy Framework*. Paris: OECD Publishing.

²¹² **World Health Organization (WHO). (2018).** *Air Pollution and Child Health: Prescribing Clean Air*. Geneva: WHO.

²¹³ **OECD. (2020).** *Biodiversity and the Economic Response to COVID-19: Ensuring a Green and Resilient Recovery*.

2.2.8-chizma

Barqarorlik va yetarlilik tamoyili — global islohotlar jadvali (2024-2025)²¹⁴

Mamlakat / Mintaqa	Dastur yoki siyosat	Asosiy yo‘nalishlar	Ma‘lum natijalar (2025 boshi holatiga)
Yevropa Ittifoqi	<i>Fit for 55</i> paketi; Yashil kelishuv	- Energiya samaradorligi +36 % ga oshirish - 2030 gacha CO ₂ ni -55 % - Binolarni “energiya noli”ga renovatsiya	- 2024-yil oxirida umumiy CO ₂ -21 % (1990 bazasidan) - Issiqxona gazlari savdo bozori (ETS) kengaytirildi
Germaniya	<i>Klimaschutzgesetz</i> (2024 yangiligi)	- 2030 gacha elektrning ≥80 % ni qayta tiklanadigan manbalardan - Oliy axborot infratuzilmasida “Digital Twin” tarmoqlari	- 2024-yilda qayta tiklanuvchi ulushi 63 % ga chiqdi - 400+ shaharda real-vaqt energiya & iqlim paneli
Shvetsiya	<i>Cirkulyar iqtisod yo‘l xaritasi 2.0</i>	- Material aylanish koeffitsienti ≥30 % (2025) - “Repair-voucher” tizimi: ta‘mirlash uchun subsidiyalar	- 2024-yil oxirida chiqindi yo‘qotish -14 % (2019 bazasidan)
Fransiya	<i>Loi Climat et Résilience</i>	- Shaharlar atrofidagi 15 daqiqalik-shahar konsepti - Aviapoyezd substitutsiyasi (2,5 soatgacha parvozlar o‘rniga tez poezd)	- Parij, Lion, Bordoda avtomobil ulushi -9 % - 5 ta ichki avialiniya yopildi
AQSh	<i>Inflation Reduction Act</i> (IRA) yashil bloki	- \$369 mlrd yashil & iqlim investitsiyalari - Uy-quyosh, issiqlik nasosi uchun soliq krediti	- 2024-yilda quyosh quvvati +32 GW - 250 000 dan ortiq uyga issiqlik nasosi o‘rnatildi
Kanada	<i>2030 Emissions Reduction Plan</i>	- Neft-gaz metan chiqindisini -75 % (2030) - “Climate-resilient infrastructure bank”	- Alberta va Saskatchewan konlarida metan -27 % (2022 bazasidan)
Xitoy	14-beshlik reja: “Ikki karbon” maqsadi	- 2030 pik, 2060 karbon neytrallik - Ultra-yuqori kuchlanishli HVDC tarmoqlari	- 2024-yilda shamol + quyosh quvvati 1 TW yorib o‘tdi
Yaponiya	<i>Green Transformation (GX) strategiyasi</i>	- “Society 5.0” — raqamiy resiliency	- Kobe portida 20 % ammoniyak aralash yonish

²¹⁴ OECD. (2024). *Green Transition Indicators: Policy Tools for a Low-Carbon Economy*. OECD Publishing.

Mamlakat / Mintaqa	Dastur yoki siyosat	Asosiy yo‘nalishlar	Ma’lum natijalar (2025 boshi holatiga)
		- Ammoniyak-ko-yoqilg‘i elektr stansiyalari	sinovi muvaffaqiyatli
Avstraliya	<i>National Resilience Framework</i>	- Qurg‘oqchilikka chidamli agrotexnika - Mahalliy mikrotarmoq (micro-grid) grantlari	- Yangi Janubiy Uelsda 120 + mikrotarmoq ishga tushdi
Braziliya	<i>Plano Amazônia 2025</i>	- O‘rmonni kesishni 80 % ga qisqartirish - Bio-iqtisod klasterlari (kauchuk, yong‘oq)	- 2024-yilda Amazonka deforestatsiyasi –55 % (2022 bazasidan)
Hindiston	<i>LiFE (Lifestyle for Environment)</i>	- Yetarlilikka asoslangan iste’mol kampaniyasi - Mahalliy rainwater harvesting normativ bo‘ldi	- 15 shtatda 4 mln xonadon yomg‘ir suvi tizimiga ega

1. Yevropa – “energiya dietasida” yetakchi

Brusselning **Fit for 55** paketi va Yashil kelishuvi 2030 gacha CO₂ ni 55 % ga tushirishni buyurdi²¹⁵. Germaniya esa Klimaschutzgesetz’ni yangilab, elektr energiyasida qayta tiklanuvchilarning ulushini bir yilda 63 % ga chiqarib, 400 dan ziyod shaharda **Digital Twin** panellarini ishga tushirdi²¹⁶. Shvetsiya “ta’mirlash–vaucheri” bilan uy ham, gadjet ham axlat bo‘lishidan oldin ta’mirlanishini rag‘batlantirib, yiliga chiqindini 14 % ga qisqartirdi²¹⁷. Energiyaga isrof solig‘i + renovatsiya subsidiyasi — Yevropaning “push & pull” retsepti.

2. Shimoliy Amerika – dollar kuchi bilan zarba-bardoshlik

Vashingtonning **Inflation Reduction Act (IRA)** 369 mlrd \$ yashil investitsiyani qo‘lga berdi²¹⁸: 2024 yilda qo‘shimcha 32 GW quyosh stansiyalari va 250 ming issiqlik nasosi o‘rnatildi. Kanada metan chiqindisini 75 % ga kesishga zo‘r berdi²¹⁹; Alberta konlaridan 2024-yil

²¹⁵ European Commission. (2021). *Fit for 55 Package – Delivering the EU Green Deal*. Brussels: EU Publications Office.

²¹⁶ Bundesregierung Deutschland. (2023). *Klimaschutzgesetz: Das neue Ziel 2030*.

²¹⁷ Swedish Environmental Protection Agency. (2022). *Incentives for Repair: The Swedish Voucher Program*.

²¹⁸ United States Congress. (2022). *Inflation Reduction Act (IRA) Summary*.

²¹⁹ Government of Canada. (2023). *Methane Emissions Reduction Plan*.

yakunida allaqachon 27 % pasayish qayd etildi²²⁰. Pul rag‘bati orqali barqarorlikni sotib olish — Amerika uslubi.

3. Osiyo – texnologik resiliency laboratoriyasi

Xitoy 14-beshlik rejada “ikkinchi karbon” maqsadini qo‘yib, shamol-quyosh quvvatini fantastik 1 teravatt ($\text{GW} \times 1\,000$) chegarasidan oshirdi va HVDC mega-uzatkichlar bilan mamlakatni “energiyaviy internet”ga aylantirmoqda. Yaponiya **GX strategiyasi** doirasida port-shaharlarda 20 % ammoniyak aralash yoqilg‘ini sinovdan o‘tkazib, og‘ir sanoatni de-karbonizatsiyalashning yangi formulasini topyapti. Hindiston esa LiFE kampaniyasi orqali millionlab xonadonni yomg‘ir suvi tizimiga ulab, yetarlilikni “turmush tarzi”ga aylantirdi.

4. Janubiy global – resurs xavfsizligi & ekotizimlarni saqlash

Avstraliya qurg‘oqchilikni micro-grid va qishloq xo‘jaligi innovatsiyalari bilan “qopib” boryapti: Yangi Janubiy Uelsda 120 dan ortiq mahalliy tarmoqlar ishga tushdi. Braziliyaning **Plano Amazônia 2025** o‘rmon kesishni ikki yilda 55 % ga pasaytirdi va bio-iqtisod klasterlari (kauchuk, yong‘oq) orqali daromadni “yashil” asosga ko‘chiryapti. Bu mintaqalarda barqarorlik – ekotizimni tirik saqlash bilan teng.

Tendensiya va to‘siqlar

- **Regulyator + raqamli nazorat** — Germaniyadagi real-vaqt panellar, Yevropa ETS kengayishi, Xitoy HVDC’lari barqarorlikni son-raqamda o‘lchashni odat qilyapti²²¹.
- **Soliq vs subsidiyalar** — Fransiyaning qisqa reyslarni poezdga almashtirishi “jarima-push”, Shvetsiyaning repair-voucheri “mukofot-pull”.
- **Investitsiya bo‘shlig‘i** — rivojlanayotgan mamlakatlar GCF grantlari va “yashil obligatsiya”larga suyanmoqda; global barqarorlik halqasi eng zaif joyida uzilishi mumkin²²².

²²⁰ National Development and Reform Commission of China. (2021). *China’s 14th Five-Year Plan for Ecological and Environmental Protection*.

²²¹ National Development and Reform Commission of China. (2021). *China’s 14th Five-Year Plan for Ecological and Environmental Protection*.

²²² Ministry of Economy, Trade and Industry of Japan (METI). (2023). *Green Transformation*

- **Standartlashtirish** — hali “material circularity indicator” yoki “resilience CO₂” bo‘yicha yagona til yo‘q; metrik bo‘lmasa, siyosat siljishining ham miqyosi ko‘rinmaydi.

8. Kelajak avlodlar uchun mas’uliyat tamoyili (Generations Principle)

Kelajak avlodlar uchun mas’uliyat tamoyili — bu shunchaki tabiatni saqlash emas. Bu tarixiy yondashuv, axloqiy burch va uzoqni ko‘zlovchi strategiyaning uyg‘un shakli. Tamoyil asosida quyidagi savol yotadi: **biz hozir qilayotgan harakatlar — kelajak avlodlarga qanday hayot meros qoldiradi?**

Bu prinsip ekologik barqarorlik, tabiiy resurslarni tejash, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash, inson salomatligi, hamda genetik va madaniy xilma-xillikni asrash bilan bevosita bog‘liq. U iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy qarorlar qabul qilishda “kelajak ovozini” eshitishga undaydi — go‘yoki hali tug‘ilmagan bolalar nomidan bugungi siyosatchilar bilan muzokara olib borayotgandek.

2.2.9-chizma

Kelajak avlodlar uchun mas’uliyat tamoyilini afzalliklari, kamchiliklari va amaliyotlari²²³

Bo‘lim	Tavsif	Hozirgi amaliy misollar (2024–25)
Afzalliklari	<ul style="list-style-type: none"> • Uzoq muddatli barqarorlikni kafolatlaydi • Resurslarni adolatli taqsimlaydi • Ijtimoiy ishonch va legimitimlikni oshiradi 	<ul style="list-style-type: none"> • Norvegiya Neft fondining 1,6 trln \$ kapitali – faqat kelajak pensiyadorlar uchun • Yangi Zelandiyaning “Well-being Budget” modeli – byudjet qarorlarida “bolalar yili 2070” metrikasi
Kamchiliklari	<ul style="list-style-type: none"> • Qisqa siyosiy sikllar uzoq rejalariga zid keladi • Foydani “bugun”dan “ertaga”ga ko‘chirish populizmga to‘qnashadi • Kelajak riskini baholashdagi noaniqlik 	<ul style="list-style-type: none"> • Ko‘plab parlamentlarda 4–5 yillik muddat uzog‘ini ko‘rmaydi • Qisman “greenwashing” xavfi: uzoq muddat shior, amalda ozgarish kam
Global yondashuvlar	<ul style="list-style-type: none"> • Konstitutsiyaviy “kelajak avlod huquqlari” bndlari • Davlat investitsiya fondlari (sovereign wealth)ni inter- 	<ul style="list-style-type: none"> • Finlyandiya, Gana va Portugaliyada “ombudsman for future generations” lavozimi • EU Climate Law – 2050 karbon-neytral

²²³ OECD. (2024). *Green Transition Indicators: Policy Tools for a Low-Carbon Economy*. OECD Publishing.

Bo'lim	Tavsif	Hozirgi amaliy misollar (2024–25)
	generatsion modelga o'tkazish • “Net-zero 2050/2070” strategiyalari	huquqiy majburiyat • Koreyaning Kids-Impact Assessment – har yangi qonunda “bolalar 2045” bandi

Kelajak avlodlar tamoyili **bugun qilgan ishimiz ertangi kunni qanday belgilashini siyosiy va iqtisodiy tizimga “qattiq kod” qilib tikadi**. Afzalliklar aniq: resursni meros sifatida saqlash, ekologik-iqtisodiy riskni kamaytirish, jamiyatda ishonchni oshirish. Biroq, qisqa saylov sikli, populistik bosim va noaniq metrikalar sabab mas’uliyatni avlodlar bo‘ylab “teng taqsimlash” oson emas²²⁴.

Norvegiya, Yangi Zelandiya va Uels kabi ilg‘or modellar ko‘rsatadiki, **institutsionallashuv** (ombudsman, konstitutsiya bandi) va **kapitalni kelajak nomiga “muzlatib qo‘yish”** (suveren fond) mas’uliyatni real siyosatga aylantiradi. Yagona “generational equity index” hali yo‘q, biroq EU Climate Law kabi normativlar global standartga o‘n yilliklar mezonini qo‘shyapti²²⁵.

9. Tizimli yondashuv tamoyili (Systems Thinking Principle)

Tizimli yondashuv — bu biror hodisani “bo‘lak-bo‘lak” emas, balki o‘zaro ulanib turgan butun ekotizim sifatida ko‘rish san‘ati. Masalaga shunday qaralsa, sabab-natija zanjiri uzilmaydi, “yamoq” siyosat o‘rniga o‘z-o‘zini tenglashtiruvchi mexanizmlar barpo etiladi.

2.2.10-chizma

Tizimli yondashuv tamoyilni afzalliklari, kamchiliklari va amaliyotni ko‘rsatuvchi misollar (2024-2025)²²⁶

Bo'lim	Tavsifi	Tirik misollar
Afzalliklari	<ul style="list-style-type: none"> • “Silos”larni buzib, sektorlararo hamkorlikni kuchaytiradi • Murakkab muammolarni ildizidan hal qiladi • Salbiy kutilmagan oqibatlarni kamaytiradi • Resurs va vaqtni tejaydi — takror-takror tuzatishga ehtiyoj 	<ul style="list-style-type: none"> • Singapur “Whole-of-Nation” modeli: suv, oziq-ovqat, energiya birlashtirilgan boshqaruv • Niderlandiyanning “Room for the River” – suv toshqinini damba bilan emas, landshaftni o‘zgartirib bartaraf etish

²²⁴ United Nations. (1987). *Our Common Future (Brundtland Report)*. World Commission on Environment and Development.

²²⁵ Well-being of Future Generations (Wales) Act. (2015). *National Assembly for Wales*.

²²⁶ United Nations. *Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development*. UN General Assembly, 2015.

Bo'lim	Tavsifi	Tirik misollar
	qolmaydi	
Kamchiliklari	<ul style="list-style-type: none"> • Tahlil va boshqaruv murakkabligi oshadi • Ma'lumot integratsiyasi uchun katta IT-infratuzilma talab qiladi • An'anaviy bo'limlar o'rtasida "hokimiyat bahsi" kuchayadi • Tez natija kutgan siyosatchi yoki investorni toqatdan chiqarishi mumkin 	<ul style="list-style-type: none"> • London "Ultra-Low Emission Zone"ni kengaytirishda transport + salomatlik + iqtisod bo'yicha 3 vazirlik tortishuvga kirdi • Ko'p davlatlarda real-vaqt ma'lumot platformasi (digital twin) hali tayyor emas
Global amaliyotlar	<ul style="list-style-type: none"> • Raqamli egizak (Digital Twin) megashaharlar: Dubay, Seul • "One Health" yondashuvi: sog'liqni ekologiya va hayvonot bilan bir ramkaga qo'yish • BMT-ning "Food-Energy-Water Nexus" dasturi 	<ul style="list-style-type: none"> • Seul Smart-Twin – 3D shahar modeli bilan suv-transport-havoni bir sistemada optimallashtiradi • Ruanda malyariyaga qarshi kurashni One Health modeli orqali, botqoqlarni ekologik rehabilitatsiya qilib amalga oshirdi

Tizimli yondashuv – bu murakkab olamga mos keladigan murakkab ko'zoynak. Dunyodagi har bir muammo bo'lak-bo'lak emas, o'zaro bog'langan "tarmoq" sifatida harakat qiladi: transport havoga, havo sog'liqqa, sog'liq iqtisodga ulanadi²²⁷. Singapurning **Whole-of-Nation** modeli ana shunday ko'zoynakni taqdi: suv, oziq-ovqat va energiyani bitta boshqaruv stoliga qo'yib, xatarni ildizidan jilovladi²²⁸. Niderlandiya esa toshqinlarga damba qo'yish o'rniga **Room for the River** rejasi bilan daryoga joy ochdi – landshaftni o'zgartirib, tabiatga ham, xo'jalikka ham nafas berdi²²⁹.

Ammo bu uslubning narxi ham bor: ma'lumot integratsiyasi uchun yirik IT-infratuzilma, bo'limlar orasida "hokimiyat bahsi", siyosatchilar kutgan tez natijaning kechikishi. Londonning kengaytirilgan ULEZ hududi shuni ko'rsatdi: transport, sog'liq va iqtisod vazirliklari bir-biriga sinchkov qarashdi, lekin hamkorlik bo'lmasa, salbiy natijani hech kim bo'yniga olmaydi²³⁰.

²²⁷ Meadows, D. H. (2008). *Thinking in Systems: A Primer*. Chelsea Green Publishing.

²²⁸ Government of Singapore. (2020). *Whole-of-Government Approach to National Resilience*.

²²⁹ Dutch Ministry of Infrastructure and Water Management. (2015). *Room for the River Programme: Integrated river management in the Netherlands*.

²³⁰ Greater London Authority. (2023). *ULEZ Expansion Evaluation Report*.

(Londonning kengaytirilgan Ultra Low Emission Zone (ULEZ) loyihasi

Shuning uchun raqamli egizaklar (Dubay, Seul) murakkab tizimga “ko‘z + miya” rolini o‘taydi – real-vaqt sensorlar ma’lumotni yig‘adi, sun’iy intellekt bog‘liqlikni tahlil qilib, siyosiy qarorlarni asoslaydi²³¹. Sektorlararo KPI va huquqiy fundament yaratilsa, “silos sindromi” bo‘yidagi devorlar yemiriladi²³².

2.3. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida ekologik muammolar, global iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va sanoatlashtirish jarayonining atrof-muhitga salbiy ta’siri dolzarb muammolardan biri sifatida ko‘tarilmoqda. Mazkur holat insoniyatni yangi, barqaror rivojlanish modelini izlashga majbur qilmoqda. Ana shunday yondashuvlardan biri — bu “yashil” iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan iqtisodiy rivojlanish strategiyasidir²³³.

Yashil iqtisodiyot — bu iqtisodiy o‘tishni ta’minlaydigan, shu bilan birga ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni birgalikda qo‘llab-quvvatlaydigan iqtisodiy modeldir. U an’anaviy iqtisodiy faoliyatdan farqli o‘laroq, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va aholi salomatligini asrash kabi ustuvor yo‘nalishlarga e’tibor qaratadi²³⁴.

Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyalari bugun boshqa davlatlar uchun namunaviy tajriba bo‘lib xizmat qilmoqda²³⁵. Bu strategiyalar davlat siyosati, moliyaviy mexanizmlar, innovatsion

²³¹ OECD. (2021). *Integrating Environmental and Economic Policies: Systemic Approaches for Sustainable Development*.

²³² World Economic Forum. (2021). *Transformational Governance: Forging a Path to Sustainable Future*.

²³³ UNEP. (2011). *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*. United Nations Environment Programme.


²³⁴ European Commission. (2019). *The European Green Deal*. Brussels.

²³⁵ UNESCAP. (2022). *Green Economy for Sustainable Development in Asia and the Pacific*.

texnologiyalar va jamiyatning ekologik ongini uyg‘otish kabi ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab oladi.

2.3.1-jadval

Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi: asosiy yo‘nalishlar²³⁶



Yashil iqtisodiyotga o‘tish — bu bir kunlik islohot emas, balki uzoq muddatli, murakkab va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan **strategik jarayondir**. Mazkur jarayon muvaffaqiyatli kechishi uchun har bir davlat o‘z milliy resurslari, ehtiyojlari va ijtimoiy-iqtisodiy real holatidan kelib chiqib, muayyan strategik yo‘nalishlarni ishlab chiqishi va ularni izchil tatbiq etishi zarur²³⁷.

1. Normativ-huquqiy asosni shakllantirish

Yashil iqtisodiyotni joriy etishdagi eng birinchi bosqich — bu mustahkam huquqiy asos yaratishdan boshlanadi. Bunda ekologik

²³⁶ Muallif ishlanmasi.

²³⁷ United Nations Environment Programme. (2011). *Towards a green economy: Pathways to sustainable development and poverty eradication*. <https://www.unep.org/resources/report/towards-green-economy>

kodekslar, chiqindilarni boshqarish bo'yicha qonunlar, yashil standartlar, shuningdek, iqlim o'zgarishiga qarshi milliy strategiyalar muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, davlat tomonidan yashil texnologiyalarni rag'batlantirish maqsadida soliq va bojxona imtiyozlari tizimi joriy etiladi. Masalan, O'zbekiston tomonidan qabul qilingan **“Yashil iqtisodiyotni 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasi”** bu borada tub burilish nuqtasi bo'lib xizmat qilmoqda²³⁸.

2. Energiya sektorini transformatsiya qilish

Yashil iqtisodiyotning yuragi — bu energetika. Qayta tiklanadigan manbalar — quyosh, shamol, bioenergiya va gidroenergiya — energiya ishlab chiqarishda asosiy manba sifatida ko'zda tutiladi. Uzoq muddatli strategiya sifatida esa elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish choralari muhim ahamiyatga ega. Bu borada **Germaniyaning “Energiewende”** deb nomlangan milliy strategiyasi yorqin namuna bo'lib, u yadro va ko'mir energiyasidan voz kechib, to'liq qayta tiklanadigan energiyaga o'tishga qaratilgan²³⁹.

3. “Yashil” infratuzilmaga sarmoya kiritish

Shaharsozlik va transport tizimi yashil iqtisodiyotning ajralmas qismidir. Elektromobillar, metropoliten, veloyullar kabi barqaror transport vositalari, shuningdek, energiyani tejoychi zamonaviy turar-joylar (smart buildings) yashil infratuzilmaning asosi hisoblanadi. Bundan tashqari, real vaqt rejimida ishlaydigan ekologik monitoring tizimlari ham atrof-muhitni nazorat qilishda beqiyos ahamiyatga ega. **Skandinaviya davlatlari** aynan shu yo'nalishda dunyoda yetakchilar qatoriga kiradi²⁴⁰.

4. Sanoatni “yashillashtirish”

Ishlab chiqarish sanoatining ekologik jihatdan xavfsiz modelga o'tishi strategiyaning muhim tarkibiy qismidir. Bu — atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ilg'or texnologiyalar (BAT – Best Available Technologies)ni joriy etish, suv, yer, xomashyo kabi resurslarni tejamlil

²³⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). *“Yashil iqtisodiyotni 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasi”*. <https://lex.uz/>

²³⁹ OECD. (2020). *Green policies for green recovery*. Organisation for Economic Co-operation and Development. <https://www.oecd.org/environment/green-recovery/>

²⁴⁰ World Bank. (2021). *Green infrastructure investment opportunities*. <https://www.worldbank.org/en/topic/environment>

sarflash, chiqindilarni kamaytirish orqali amalga oshiriladi. **Yaponiya** bu borada ISO ekologik standartlarini faol qo'llab, sanoatni ekologik modernizatsiya qilishda muvaffaqiyatli tajriba to'plagan²⁴¹.

5. Yashil moliyalashtirish (green finance)

Yashil iqtisodiyotning moliyaviy asosi sifatida yashil obligatsiyalar, ekologik fondlar va barqaror investitsiyalar xizmat qiladi. Tijorat banklari va moliya institutlari ekologik xavflarni baholovchi tizimlar asosida qarorlar qabul qiladi. **Shveysariya va Kanada** bugungi kunda yashil obligatsiyalar bozorida yetakchi o'rin egallamoqda va bu moliyaviy instrumentlar orqali muhim tashabbuslarni moliyalashtirmoqda²⁴².

6. Ekologik ta'lim va aholining ongini oshirish

Barqaror yashil o'sish faqat texnologik yoki moliyaviy choralar bilangina emas, balki jamiyat madaniyatidagi o'zgarishlar orqali ham amalga oshadi. Bu borada ekologik ta'lim muhim rol o'ynaydi: maktablarda ekologik fanlarning joriy etilishi, aholini energiyani tejash va chiqindilarni saralashga o'rgatish, ijtimoiy tarmoqlar orqali ekologik ongni shakllantirish strategik yo'nalish sifatida qaralmoqda. Chunki madaniy ong o'zgarmasdan, yashil o'sish samara bermaydi.

7. Monitoring, baholash va shaffof hisobotlar tizimi

Strategiyaning natijadorligini baholashda aniq indikatorlar va ularning muntazam monitoringi muhim ahamiyatga ega. Har yili **GHG emissiyasi, suv sarfi, energiya samaradorligi** kabi ko'rsatkichlar baholab boriladi. Nazorat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining bu jarayonda faol ishtiroki esa shaffoflikni ta'minlab, korrupsion xavflarni kamaytiradi.

Kutilayotgan natijalar

Yashil iqtisodiyot strategiyasi orqali:

- yangi ish o'rinlari ("yashil ishlar") yaratiladi;
- resurslardan oqilona foydalanish ta'minlanadi;
- tabiiy boyliklar asrab qoliladi;

²⁴¹ ISO. (2015). *ISO 14001:2015 environmental management systems — Requirements with guidance for use*. International Organization for Standardization. <https://www.iso.org/>

²⁴² United Nations Industrial Development Organization. (2017). *Green Industry Platform: Best available techniques*. <https://www.unido.org/>

- iqlim o‘zgarishiga qarshi real chora-tadbirlar ko‘riladi;
- iqtisodiy o‘sish barqaror va ekologik jihatdan xavfsiz bo‘ladi²⁴³.

2.4. Yashil iqtisodiyotga o‘tish siyosatining dastaklari

Bugungi kunda global miqyosda iqlim o‘zgarishi, resurslarning cheklanganligi va atrof-muhitning degradatsiyasi oldida turgan insoniyat uchun yashil iqtisodiyotga o‘tish — faqat tanlov emas, balki zaruratga aylanmoqda. Ushbu o‘tish jarayonining muvaffaqiyati esa siyosiy va iqtisodiy instrumentlar, ya’ni yashil iqtisodiy siyosat dastaklarining samarali qo‘llanilishiga bog‘liq.

Yashil iqtisodiy siyosat dastaklari — bu davlat, biznes va jamiyatni barqaror rivojlantirish yo‘lida innovatsion, integratsiyalashgan va ko‘p o‘lchovli choralar majmuasi bo‘lib, ular iqlim o‘zgarishini kamaytirish, tabiiy resurslarni oqilona boshqarish hamda yashil texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

2.4.1-chizma

Yashil iqtisodiy siyosat dastaklari²⁴⁴



²⁴³ World Resources Institute. (2023). *Climate Watch: Data for climate action*. <https://www.climatewatchdata.org/>

²⁴⁴ Muallif ishlanmasi.

Regulyativ (buyruq-nazorat) dastak

Yashil iqtisodiyotga o'tishda regulyativ, ya'ni buyruq-nazorat dastagi markaziy o'rin tutadi. Chunki har qanday tizimli o'zgarish uchun qat'iy qoidalar va ularni nazorat qiluvchi mexanizmlar zarur. Davlat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, standartlar va majburiy talablar atrof-muhitni muhofaza qilish va barqarorlikni ta'minlash uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi²⁴⁵.

Bu dastak bir nechta muhim elementlardan tashkil topgan. Birinchidan, qonunlar va normativ-huquqiy bazalar — chiqindilarni boshqarish, havoning ifloslanishini kamaytirish, suv resurslarini himoya qilish kabi sohalarga oid aniq me'yor va talablarni belgilaydi. Ikkinchidan, litsenziyalash va ruxsatnomalar tizimi faoliyatni tartibga soladi, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan harakatlarni nazorat ostiga oladi²⁴⁶.

Uchinchidan, monitoring va nazorat mexanizmlari standartlarga rioya qilinishini ta'minlaydi, buzilishlar aniqlanganda esa qonuniy jazolar qo'llaniladi. To'rtinchidan, majburiy standartlar va cheklovlar — sanoat korxonalarini va boshqa subyektlar uchun maksimal chiqindi miqdori, karbon emissiyasi kabi chegaralarni o'rnatadi. Va nihoyat, bu jarayonlarda jazo choralarining qo'llanilishi qat'iylikni ta'minlab, barcha ishtirokchilarning mas'uliyatini oshiradi.

Regulyativ dastakning ahamiyati shundaki, u barqarorlikni kafolatlaydi, adolat va tenglikni ta'minlaydi hamda innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Qonun va standartlar bo'lmasa, korxonalar va shaxslar atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga intilmaydi, bozor mexanizmlari va moliyaviy rag'batlarning o'zi yetarli bo'lmaydi²⁴⁷. Shu sababli, regulyativ mexanizmlar yashil iqtisodiyotning boshqa dastaklari samaradorligini ta'minlash uchun poydevor vazifasini bajaradi.

²⁴⁵ European Commission. (2021). Euro 7 standards for clean air. Publications Office of the European Union.

²⁴⁶ World Bank. (2020). Strengthening environmental regulations and enforcement. Washington, DC: World Bank.

²⁴⁷ Andersson, J. J. (2019). Carbon taxes and CO₂ emissions: Sweden as a case study. *American Economic Journal: Economic Policy*, 11(4), 1–30. <https://doi.org/10.1257/pol.20170271>

Misol tariqasida, Yevropa Ittifoqining “Euro 7” chiqindilar standartlari keltirilishi mumkin ²⁴⁸. Ushbu qat’iy standartlar avtomobilsozlik sanoatini nafaqat ifloslanishni kamaytirishga majbur qildi, balki yangi, yanada samarali va ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga turtki berdi.

Shunday qilib, regulyativ (buyruq-nazorat) dastak – bu yashil iqtisodiy siyosatning huquqiy va nazorat qismi bo‘lib, barqarorlik va sifatni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Narx signali: karbon solig‘i va ETS

Yashil iqtisodiyotda eng kuchli moliyaviy “kalit” — bu **narx signali**: kim ko‘proq CO₂ chiqaradi, ko‘proq to‘laydi; kim toza ishlab, chiqindini kamaytiradi — tejaydi, hattoki daromad ham qiladi. Narxni beruvchi ikki asosiy mexanizm bor — karbon solig‘i va emissiya savdo tizimi (ETS). Ular bir xil maqsadga xizmat qilsa-da, amalda turlicha ishlaydi²⁴⁹.

Karbon solig‘i: sodda, aniq, oldindan ko‘rinadi

Hukumat har tonna CO₂ uchun qat’iy stavka belgilaydi. Korxonalar belgilangan limitdan oshsa, byudjetga to‘lov qiladi; kamaytira olsa, xarajati tushadi. Shvetsiya 1991-yildan shu usulni qo‘llab, soliqni bugun 150 dollar/tCO₂ darajasiga olib chiqdi; natija — emissiya 33 foiz kamaydi, YAIM esa o‘shishda davom etdi²⁵⁰. Oddiy matematik signali biznesga uzoq muddatli aniqlik beradi: stavka ma’lum — investitsiya rejasini yozish oson²⁵¹.

²⁴⁸ U.S. Department of the Treasury. (2022). Inflation Reduction Act: Summary of energy and climate tax incentives. Washington, DC: U.S. Government.

²⁴⁹ European Commission. (2016). Buying green! A handbook on green public procurement (3rd ed.). Luxembourg: Publications Office of the European Union.

Testa, F., Iraldo, F., & Frey, M. (2011). The effect of environmental regulation on firms’ competitive performance: A case-study on GPP in the EU. *Journal of Cleaner Production*, 19(8), 829–842.

<https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2010.11.022>

²⁵⁰ European Commission. (2016). Buying green! A handbook on green public procurement (3rd ed.). Luxembourg: Publications Office of the European Union.

²⁵¹ European Commission. (2024). *EU Emissions Trading System (EU ETS)*. Retrieved from <https://climate.ec.europa.eu>

ETS: bozor ichidagi cap va savdo

Bunda hukumat avval yiliga ruxsat etiladigan jami emissiya “ship”ini (cap) belgilaydi va shu miqdorga teng ruxsatnomalarni korxonalariga tarqatadi yoki auksionga chiqaradi. Kim CO₂ ni tezroq kamaytira, ortiqcha ruxsatnomasini bozorga sotib, qo‘shimcha daromad oladi; kim orqada qolsa, qo‘shimcha kvota sotib oladi. Yevroittifoq ETSi 2005-yildan buyon energetika va og‘ir sanoatda emissiyani qariyb 47 foizga tushirdi²⁵² — bozor narxi innovatsiyani majburiy emas, foydali qiladi.

Ikki mexanizmning umumiy ishlash zanjiri

1. **Siyosiy qaror** — cap yoki soliq stavkasi belgilash.
2. **MRV (monitoring, reporting, verification)** — har tonnani aniq sanash; raqam xatoga toqat qilmaydi.
